K. M. Mavlonova,
S. H. Qo‘ldosheva, N. S. Hakimova, M. R. Siddiqov

# Ona tili
## 5-sinf
## II qism

*Yangi nashr*

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2024

37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 1 25/10/24 10:48

UO‘K: 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O‘zb ya72
O-58

**Mavlonova K. M.**
**Ona tili.** 5-sinf (II qism): darslik / K. M. Mavlonova, S. H. Qo‘ldosheva, N. S. Hakimova, M. R. Siddiqov. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. – 160 b.

**Mas’ul muharrir:**

G‘. Hamroyev – pedagogika fanlari doktori.

**Taqrizchilar:**

G. Yo‘lchiyeva – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
G. Eshmirzayeva – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 21-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
N. Salimova – Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 110-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
K. Marasulov – Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

## Shartli belgilar


**Og‘zaki bajaring**


**Savollarga javob bering**


**Topshiriqni xattaxtada bajaring**


**Yodda tuting**


**Videolavhani ko‘ring**


**Audiomatnni tinglang**


**Matnni o‘qing**


**Uyga vazifa**


**O‘ylab ko‘ring**


**Loyiha ishi uchun taqdimot**


**Yozma bajaring**



**Guruh bo‘lib ishlang**

**ISBN** 978-9910-672-26-2

© “Novda Edutainment”, 2024

37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 2 25/10/24 10:48

# MILLIY QADRIYATLAR



**1. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.**






1. Rasmlarda qanday vaziyatlar aks etgan?
2. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan yana qanday urf-odatlarni bilasiz?
3. Ayting-chi, siz ham hashar, bemorning holidan xabar olish yoki qo‘shnilarga taom ulashish bilan bog‘liq vaziyatlarning ishtirokchisi bo‘lganmisiz? Bunday paytda odamlar qanday mazmundagi so‘z yoki gaplardan foydalanishadi?
4. “Sehrli so‘zlar” deganda nimani tushunasiz? So‘zlashuvda ulardan foydalanishning ahamiyati qanday?

**2. Dialoglar qanday vaziyatlarga tegishli ekanini ayting. Har bir vaziyatga xos bo‘lgan odob qoidalarini aks ettirayotgan gaplarni aniqlang, ularning mazmunini tahlil qiling.**



– Assalomu alaykum. Salomatmisiz?
– Vaalaykum assalom. Ha, shukur, ancha yaxshiman. O‘zingiz-chi?
– Biz ham yaxshimiz. Ko‘rinishingiz durust.
– Rahmat.
– Hali ko‘rasiz, tez orada dardingiz arib, otday bo‘lib ketasiz.
– Aytganingiz kelsin. Sog‘lik – eng katta boylik, deb bekorga aytishmagan ekan.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 4 25/10/24 10:48



– Assalomu alaykum. Yaxshimisiz, Xadicha xola?
– Vaalaykum assalom, Munisxon.
– Bugun uyda ko‘k somsa yopdik. Oyim qo‘shnilarning ham haqqi bor deb mana buni sizlarga ilinib berib yubordilar.
– Ehhe, juda xursand bo‘ldim! Oyingning ham, sening ham qo‘ling dard ko‘rmasin! Rahmat, qizim!
– Osh bo‘lsin, xola. Men bora qolay, biznikiga ham chiqib turing.
– Uydagilaringga salom ayt, qizim.





– Assalomu alaykum. Hormang, Po‘lat ota!
– Bor bo‘ling, bo‘tam.
– Sizga bir yordam qilaylik deb qamishdan bel bog‘lab keldik. Bizga nima xizmat?
– Juda yaxshi bo‘libdi-da! Ahillikda gap ko‘p-da, bolam.
– Ha, endi qo‘shnimiznikida yaxshi niyatlar bilan qurilish bo‘lyapti-yu, biz hech nima bo‘lmaganday turaylikmi, ota?
– Barakalla, tarbiya bergan ota-onangizga rahmat!





**3. 1-ustundagi so‘zlarning o‘rnida qo‘llash mumkin bo‘lgan jumlalarni 2-ustundan qidiring. Ularni daftaringizga yozing.**

Namuna

*Baxtli bo‘ling! – Toleyingiz baland bo‘lsin! Iqbolingiz ziyoda bo‘lsin!*

| 1 | 2 |
|---|---|
| Baxtli bo‘ling! | Hormang! Salomatmisiz? Toleyingiz baland bo‘lsin! Minnatdorman! Tashakkur! Barakalla! Iqbolingiz ziyoda bo‘lsin! Tuzukmisiz? Ko‘p yashang! Omon bo‘ling! Rizqingiz butun bo‘lsin! |
| Yaxshimisiz? | |
| Baraka toping! | |
| Rahmat! | |



**4. O‘zbekona urf-odatlar namoyon bo‘ladigan vaziyatlardan birini tanlang. Partadoshingiz bilan shu haqda kichik dialog tuzib, yozing.**




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 5 25/10/24 10:48

**She’rni o‘qing. Ona bolasini erkalatish uchun qanday ifodalardan foydalangan? Onalar farzandlarini yana qanday so‘zlar bilan erkalatishadi? O‘qigan kitoblaringiz hamda kattalar yordamida ularni aniqlab, yozing.**

# Alla

Ko‘rar ko‘zim, alla-yo,
Suyar so‘zim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo.
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo,
Alla, bolam, alla-yo, alla,
Do‘mboqqinam, alla-yo, alla.
Osmondagi oyim, alla,
Mening shirin choyim, alla,
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Alla, bolam, alla-yo.
Sahar chog‘i bo‘libdi,
Ichim nurga to‘libdi.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Jigarimning porasi, alla,
Ko‘zginamning qorasi, alla.
Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 6 25/10/24 10:48

1. Hayit bayrami haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbek oilalarida Hayit bayramini nishonlash uchun qanday tayyorgarlik ko‘riladi?

# Hayitlik

Bayramlar ko‘p edi. Ayniqsa, biz bolalar ohorli libos kiyib, kattalar hayitlik berib quvontiradigan kunni zoriqib kutardik. Ro‘za oyi boshlanishi bilan: “Ona, hayitga necha kun qoldi?” – deb barmoqlarini sanayverib, bezor qilardim. Eng qizig‘i, o‘sha qutlug‘ kunda yangi ko‘ylak, iroqi do‘ppini kiyib, mayda o‘rilgan sochlarimizni bir-birimizga ko‘zko‘zlab ko‘chaga o‘ynagani chiqardik.

Va nihoyat orziqib kutilgan kun keldi. Erta tongda onam tikib bergan ko‘ylakni kiyib, ko‘chaga chiqdim. Tong yorishmay supurilib, suvlar sepilgan ko‘cha-hovlilardan tuproqning yoqimli isi kelardi. Quvonib chopqillab o‘ynab yurgan bolalar safiga qo‘shildim. Bizdan besh-olti hovli narida yashaydigan tengdoshim Komila kichkina barmog‘iga qizil ip bog‘lab olgandi. “Nega barmog‘ingga ip boylab olding?” – degan savolimga: “Onam ko‘ylak olib berolmadim, hech bo‘lmasa, barmog‘ingga yangi ip boylab olgin, yangi ko‘ylak kiygandek bo‘lasan, dedi”, – deya ip bog‘langan barmoqchasiga ma’yusgina termilib javob berdi. Qushlar, baliqchalar rasmi tushirilgan ko‘ylagimga havas bilan qarab turgan dugonamga rahmim keldi. O‘sha tobda chiroyli ko‘ylak kiyib olganimdan xijolat ham bo‘ldim.

Komilaning dadasi mehribon kishi edi. Ishdan qaytayotgan payti ko‘chada o‘ynab yurgan bolalarga kissasidan saqichmi, qurutmi berib, boshini silab erkalab qo‘yardi. Xastalik tufayli bevaqt olamdan o‘tdi. Bir kuni onam ular haqida gapirganda eshitib qolgandim:

– Yoshgina umri xazon bo‘lgan odamgayam uvol, bir etak bolasi bilan beva qolgan ayolgayam qiyin bo‘ldi. Erining topganiga qanoat qilib, dalaga chiqib yerga ketmon urmagan juvon endi kesakka qoqilib yiqilsayam, uzun sochlari tuproqni supursayam, mehnat qilishi kerak. Mahalla ahli qo‘limizdan kelganicha yordam berib, bolalari qatorga qo‘shilguncha koriga yarab turishimiz kerak.

Hayit namozidan qaytayotgan bobosi yoki dadasining bag‘riga oshiqayotgan bolalar izidan mung‘ayib qarab turgan Komilaning yoniga borib qo‘lidan mahkam tutdim. “Dadam hozir qaytadi. Ikkalamizga shirinlik, hayitlik beradi”, – dedim ishonch bilan. Ammo kelayotgan odamlar orasida dadam ko‘rinmasdi. Hamma tarqaldi. Qani edi dadam ham tezroq kela qolsa... Dugonam ikkimiz yo‘lga termilgancha ancha o‘tirdik. Shu payt ko‘cha boshida dadamning qorasi ko‘rindi. Ikkalamiz teng yugurdik. Boshimizni silab, bag‘riga bosgan dadam qo‘lidagi xaltaning birini Komilaga tutdi. Keyin unga qarab:



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 7 25/10/24 10:48

– Qizim, buni uyga kirib, ochib qarang. Sizga ko‘ylakcha oldim. Agar loyiq kelmasa, do‘kondan alishtirib beraman, – dedi. So‘ng menga qarab: “Qizijon, sizga onangiz yangi ko‘ylak tikib berdi, shuning uchun kelasi bayramda xuddi shunaqasidan olib beraman”, – dedi.

Xursand edim. Dadamning qulog‘iga sekingina: “Rahmat, dadajon”, – deya pichirladim.

*Munavvara Usmonova*



**5. Matndan olingan so‘zlarni izohi bilan moslab yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ohorli | hayitlik | iroqi | o‘sha tobda |
| ma’yuslik | juvon | kori | mung‘aymoq |

| | |
|---|---|
| **1** | Hayit bayrami munosabati bilan beriladigan sovg‘a |
| **2** | turmush qurgan yosh ayol |
| **3** | tutilmagan, yangi, kiyilmagan |
| **4** | tushkun, g‘amgin holat |
| **5** | shu paytda, shu vaqtda, o‘sha mahalda |
| **6** | kashtado‘zlikda to‘rga ip yoki ipaklarni kesishtirib gul tikish usulidagi bezak shakli |
| **7** | g‘amgin, tushkun holatda bo‘lmoq |
| **8** | hojat, ehtiyoj |



1. Nima uchun muallif bolaligida Hayit bayramini alohida zoriqib kutar edi?
2. Komila nima sababdan barmog‘iga qizil ip bog‘lab olgan edi?
3. Nega hikoya qahramoni chiroyli ko‘ylak kiyib olganidan xijolat bo‘la boshladi?
4. Muallifning qo‘shni qiz Komilaga munosabatini izohlang. Bolaligidagi voqealar unda qanday taassurot qoldirgan edi?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 8 25/10/24 10:48



**6. Matndagi iboralar qanday ma’no ifodalayotganini ustozingiz yordamida izohlab, yozing.**

Namuna — *ko‘zko‘zlamoq – maqtanmoq, namoyish etmoq*

1. Eng qizig‘i, o‘sha qutlug‘ kunda yangi ko‘ylak, iroqi do‘ppini kiyib, mayda o‘rilgan sochlarimizni bir-birimizga **ko‘zko‘zlab**, ko‘chaga o‘ynagani chiqardik.
2. Xastalik tufayli **bevaqt olamdan o‘tdi.**
3. **Yoshgina umri xazon bo‘lgan odamgayam uvol,** bir etak bolasi bilan beva qolgan ayolgayam qiyin bo‘ldi.
4. **Mahalla ahli qo‘limizdan kelganicha yordam berib,** bolalari **qatorga qo‘shilguncha** koriga yarab turishimiz kerak.
5. Shu payt ko‘cha boshidan dadamning **qorasi ko‘rindi**.



**7. Matndan olingan gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang. Shunday mazmundagi gaplarga bittadan misol yozing.**

| Matndan olingan gaplar | Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi | Men tuzgan jumla |
|---|---|---|
| Tong yorishmay supurilib, suvlar sepilgan ko‘cha-hovlilardan tuproqning yoqimli isi kelardi. | * * * | * * * |
| Nega barmog‘ingga ip boylab olding? | * * * | * * * |
| Qizim, buni uyga kirib, ochib qarang. | * * * | * * * |
| Qani edi dadam ham tezroq kela qolsa!.. | * * * | * * * |



**8. Matndan olingan shakldosh so‘zlarning ma’nosini izohlang. Har ikkala ma’no asosida gaplar tuzib, yozing.**

kun → oftob, quyosh
kun → sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botgungacha bo‘lgan qismi

yosh | yangi | soch | tut | sep



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 9 25/10/24 10:48

**Quyidagi shakldosh so‘zlar ma’nolaridagi farqni aniqlang. Har ikkala ma’no asosida gaplar tuzib, yozing.**

Namuna

***Quyma*** – quyish yo‘li bilan tayyorlangan, quyilgan.
***Quyma*** – quyish ish-harakatini bajarmaslik buyrug‘i.

olmá – ólma | ko‘zlár – kó‘zlar | bog‘lár – bóg‘lar

**9. “Hayitlik” matni asosida berilgan testlarni yeching va javoblarni daftaringizga yozing.**

**1. Nima uchun ota o‘z qiziga emas, qo‘shni qizga ko‘ylak olib berdi?**

A. Chunki u qo‘shni qizning yangi ko‘ylagi yo‘q ekanini bilar edi.
B. Chunki ayoli undan qo‘shni qizga yangi ko‘ylak olib berishini iltimos qilgan edi.
D. Chunki u bayram kuni sovg‘alar berib, bolalarni xursand qilmoqchi edi.
E. Chunki u qo‘shni qizning yangi ko‘ylak kiya olmagani uchun o‘ksinib qolishini istamasdi.

**2. Otasining faqat qo‘shni qizga ko‘ylak olib kelganini bilgan hikoya qahramoni o‘zini qanday his qildi?**

A. Qo‘shni qizni xursand qilgani uchun otasi bilan faxrlandi.
B. Unga ko‘ylak olib kelmagani uchun otasidan xafa bo‘ldi.
D. Otasining kelasi yil unga ham ko‘ylak olib berishidan xursand bo‘ldi.
E. Unga emas, qo‘shni qizga ko‘ylak olib kelganidan hayron bo‘ldi.

**3. Gapda ajratib ko‘rsatilgan birikma qanday ma’noni ifodalayotganini aniqlang.**
*Ayniqsa, biz bolalar ohorli libos kiyib, kattalar hayitlik berib quvontiradigan kunni* ***zoriqib kutardik.***

A. Biror narsa yoki maqsadga erishishni mo‘ljallamoq.
B. Diqqat bilan qaramoq, sinchiklab tekshirmoq.
D. Biror narsaga zor bo‘lmoq, muhtoj bo‘lmoq.
E. Sabrsizlik bilan kutmoq, intizor bo‘lmoq.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 10 25/10/24 10:48

**4. Muallifning ushbu hikoyadan ko‘zlagan asosiy maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?**

A. Milliy bayramlar haqida, ularning ahamiyati va tarixi haqida ma’lumot berish.
B. Hayit bayrami va oldinlari uning qanday nishonlanishi haqida ma’lumot berish.
D. Hayit bayramida amal qilinadigan urf-odatlar haqida ma’lumot berish.
E. Qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatining go‘zal shakliga e’tibor qaratish.



**10. Matn asosida Hayit bayrami urf-odatlarini jadvalning birinchi ustuniga, o‘zingiz biladigan urf-odatlarni esa ikkinchi ustunga yozing.**

| Matnda berilgan urf-odatlar | Men biladigan urf-odatlar |
|---|---|
| * * * | * * * |



**11. “Hayitlik” matni qahramonlariga xos bittadan sifatni ayting. Shunday xulosaga kelishingizga sabab bo‘lgan gapni matndan topib, yozing.**

Namuna

Hikoya qahramonining onasi – kuyinchak.
*Mahalla ahli qo‘limizdan kelganicha yordam berib, bolalari qatorga qo‘shilguncha koriga yarab turishimiz kerak.*

| Hikoya qahramonining otasi | Komila | Komilaning otasi |
|---|---|---|
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 11 25/10/24 10:48



**12. Jumlalarni yakunlab, gap hosil qiling. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yish kerakligini aniqlang.**

1. Men ulg‘ayganimda ...
2. Ota-onasini e’zozlagan inson ...
3. Beshikdan to qabrgacha ilm izlang, chunki ...
4. Non – aziz ne’mat, shuning uchun ...
5. Erta tongdan hovlini supurib qo‘ysangiz, ...
6. Qanday qilib seni tarbiyalab, voyaga yetkazgan inson – otaga nisbatan ...



**Matnni o‘qing. Gaplarning chegarasini aniqlang va mos tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.**

Qo‘shni haqqi juda muhim qo‘shni nochor qo‘shnisiga yeganidan yedirib, kiyganidan kiydirishi kerak har ehtiyojini bitirishi kerak har xususda qo‘shni qo‘shnining ko‘nglini olishi, molini, jonini, sha’nini, or-nomusini o‘zinikidan ziyodaroq ko‘rishi zarur unga duch kelganda salom berib, hol-ahvol so‘rash, xasta bo‘lsa, ziyoratida bo‘lish zarur faqir qo‘shnining taomlanishi uchun oziq-ovqatlar olishiga yordam berish kerak taom pishirganingizda hidi qo‘shniga yetsa, undan qo‘shningizga ham ilinishingiz shart.





**13. So‘zlarni taqqoslang. Ularning ma’nolari o‘rtasida qanday farq borligini tushuntiring.**

| | | |
|---|---|---|
| bayram<br>bayram**lar** | bola<br>bola**lar** | baliqcha<br>baliqcha**lar** |



**-lar** qo‘shimchasi asosan **ko‘plik ma’nosi**ni, ba’zan **hurmat**, **kuchaytirish** va boshqa ma’nolarni ifodalaydi.

**Masalan:** *E’lonlar yozildi (ko‘plik). Dadamlarni sog‘indim (hurmat). Boshlarim og‘rib ketdi (kuchaytirish).*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 12 25/10/24 10:48

**14.** **“Hayitlik” matnidan ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llangan so‘zlarni aniqlab, yozing.**

**15.** **Quyidagi so‘zlardan foydalanib gaplar tuzing va yozing. *-lar* qo‘shimchasi orqali hosil bo‘layotgan ma’noga e’tibor bering.**

Namuna

*Uchayotgan laylaklarni ko‘rib, **zavqlarim** oshib ketdi.*
*(zavqlarim – kuchaytirish)*

bolalar (ko‘plik)

olmalar (ko‘plik)

oyimlar (hurmat)

boshlarim (kuchaytirish)

zavqlarim oshib ketdi (kuchaytirish)

yog‘lar (turli navdagi)

Anvarlar kelishdi (Anvar va uning oila a’zolari)

fevrallarda (taxmin-gumon)

**16.** **So‘zlarni taqqoslang. Ularning o‘rtasida qanday farq borligini tushuntiring.**

Aziz – Aziz**bek**

sandiq – sandiq**cha**

**Kichraytirish** ma’nosi **-cha, -choq, -loq** kabi qo‘shimchalar orqali ifodalanadi.

**Masalan:** *uy – uycha, toy – toychoq, qiz – qizaloq.*

**Erkalash (iliqlik)** ma’nosi esa **-gina (-kina, -qina), -jon, -xon, -oy, -bek** kabi qo‘shimchalar orqali ifodalanadi.

**Masalan:** *bola – bolaginam, Bobur – Boburjon, Go‘zal – Go‘zalxon.*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 13 25/10/24 10:48



**17.** **So‘zlarga berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘shib yozing. So‘z ma’nosidagi o‘zgarishlarga e’tibor bering.**

uka | aka | Mohira | Rasul

qo‘zi | Rahim | Gulsum | bola

Kumush | kelin | Zebi | ko‘za

-jon, -xon, -chak, -boy,
-bibi, -ginam, - oy, -cha,
-niso, -kay, -bek, -choq



**18.** **Erkalash, kichraytirish yoki hurmat ma’nosi ifodalangan so‘zlarni aniqlab, yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| opaginam | singlimgina | dadamlar | onalar |
| akamlar | ukalarim | ukamgina | ukaginam |
| qo‘g‘irchoq | toychoq | kelinchak | o‘rgimchak |



**1.** **Oila a’zolaringizning ismi, familiyasi va tug‘ilgan yilini namunadagi kabi yozib keling.**
**2.** **Ularning ismlariga qanday qo‘shimchalarni qo‘shib aytish mumkin? Alohida yozing.**

Namuna

*Otam Sanjarbek Shuhratov 1990-yil 14-yanvarda tug‘ilgan.*





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 14 25/10/24 10:48

1. Ayting-chi, e’lonlarni qayerlarda uchratish mumkin?
2. Ular qanday maqsadlarda yoziladi?

**19. Quyidagi e’lonlar bilan tanishing.**

1

**DIQQAT, DIQQAT!**

Siz futbolga qiziqasizmi? Qobiliyatingizni maydonda sinab ko‘rishni istaysizmi? Unda sizni 17-dekabrda ochilishi kutilayotgan yangi guruhimizga taklif etamiz.

Ushbu guruhda yosh havaskorlar malakali murabbiydan futbol sirlarini o‘rganish, o‘z qobiliyatini namoyish etish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shoshiling, joylar soni cheklangan. Qo‘shimcha savollar bilan t.me/futbolchi.bot ga murojaat qilishingiz mumkin.

O‘yingohimiz manzili: Farg‘ona shahri Bobur ko‘chasi 2-uy.

2

**Barcha dam olish istagida bo‘lganlar diqqatiga!**

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida joylashgan fayzli oromgohda yozgi dam olish mavsumi boshlanganini e’lon qilamiz.

Ushbu maskanda sizni:

- tog‘ sayri;
- shifobaxsh buloq suvlari;
- malakali shifokorlar ko‘rigi;
- zamonaviy muolajalar kutmoqda.

**UNUTMANG:** ***YAXSHI DAM – MEHNATGA HAMDAM!***

Qo‘shimcha ma’lumot olish va joy band qilish uchun quyidagi raqamlar bilan bog‘lanishingiz mumkin: +998900000000; +998970000000.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 15 25/10/24 10:48

3

**DIQQAT, TANLOV!**

Dono va zukko bolajonlar! Eshitmadim demanglar, tanlovga kech qolmanglar! O‘z iqtidor va mahoratingizni namoyish qilish uchun “Gulxan” jurnali ajoyib imkoniyat yaratdi. Bu qanday imkoniyat deysizmi?!

Gulxanjon tinib-tinchimas muxlislari uchun tanlov e’lon qildi. Tanlovda faol qatnashib, g‘olib bo‘lishni istaysizmi? Unda shartlar bilan tanishing.

1. **“Do‘stimga aylangan kitob”.**
2. **“Tabiatning bir bo‘lagimiz”.**
3. **“Kelajak mening tasavvurimda”.**

Yuqoridagi mavzulardan birini tanlab, kuzatish va mulohazalaringiz asosida maqola, lavha, badia yozing va tahririyatimizga yuboring. Eng yaxshi mashqlar jurnalda e’lon qilib boriladi. Tanlov 2024-yilning noyabriga qadar davom etadi. G‘oliblar yil so‘ngida aniqlanadi.

**Aziz o‘quvchilar! Tanlovda faol ishtirok etib, sirli sovg‘amizga ega bo‘lishga, o‘z iqtidoringizni namoyish etishga shoshiling!**

**20. Ma’lumotlarning yuqoridagi e’lonlarning qay biriga tegishli ekanini aniqlang.**

| T/r | E’londan olingan ma’lumotlar | Qaysi e’longa tegishli? |
|---|---|---|
| 1 | Bog‘lanish uchun telefon raqamlari keltirilgan. | * * * |
| 2 | Qo‘shimcha savollarga “Telegram”dagi manzil orqali javob olish mumkin. | * * * |
| 3 | Tanlov ishtirokchilarini sirli sovg‘alar kutmoqda. | * * * |
| 4 | Qabul aynan yozgi mavsum uchun ochiq deb e’lon qilingan. | * * * |
| 5 | Malakali murabbiydan saboq olish va o‘z qobiliyatini namoyish etish imkoniyati taklif etilgan. | * * * |
| 6 | G‘oliblarni taqdirlash yil so‘ngida bo‘lib o‘tishi haqida ma’lumot berilgan. | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 16 25/10/24 10:48

**21. Savollarning qaysi e’longa tegishli ekanini aniqlang. Ularning qaysilariga e’londa berilgan ma’lumotlar asosida javob olish mumkinligini belgilang.**

| ...-e’lon | |
|---|---|
| O‘tkazilishi rejalashtirilayotgan tanlovning maqsadi nimadan iborat? | * * * |
| E’lon qilingan tanlovning nomi qanday? | * * * |
| Ushbu tanlov bolalarga qanday imkoniyatlarni beradi? | * * * |
| ...-e’lon | |
| Guruh qaysi sanada ochiladi? | * * * |
| Guruhga nechta bola qabul qilinadi? | * * * |
| Guruhga qo‘shilish shartlari qanday? | * * * |
| ...-e’lon | |
| Mavsum uchun to‘lanadigan pul miqdori qancha? | * * * |
| E’lonni qaysi tashkilot bergan? | * * * |
| Oromgoh qayerda joylashgan? | * * * |

**22. 21-topshiriqda javobi topilmagan savollardan kelib chiqib e’lonlarga qanday ma’lumotlarni kiritish kerak? Ushbu ma’lumotlarni daftaringizga yozing.**

Namuna

3-e’lon. **Tanlov “Yosh jurnalist” deb nomlanadi.**

1-e’lon. _____

2-e’lon. _____

3-e’lon. _____

E’lonlar kishilarni biror tadbir, ish taklifi va boshqalar haqida xabardor qilish uchun yoziladi.

E’lon quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo‘ladi:

1. E’lon sarlavhasi. 2. E’lon matni (maqsadi, o‘tkazilish vaqti, joyi).
3. E’lon beruvchi.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 17 25/10/24 10:48

**23.** **Quyidagi xususiyatlar qaysi e’lonlarga tegishli ekanini aniqlang.**

| Takliflar | Qaysi e’longa oid? |
|---|---|
| Dizayniga alohida e’tibor qaratish | * * * |
| “Diqqat, diqqat, diqqat!” kabi kishi e’tiborini tortuvchi so‘zlarni qo‘shish | * * * |
| Qo‘shimcha savollar bilan murojaat qilish mumkin bo‘lgan raqamni kiritish | * * * |
| Matndagi muhim ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish (boshqa rangda berish yoki to‘qroq qilib bo‘yash orqali) | * * * |

**24.** **Jumlalardagi xatolarni to‘g‘rilab, daftaringizga yozing.**

| tanlov o‘tqaziladi | tanlov o‘tkaziladi |
|---|---|
| murojat qiling | * * * |
| batavsil ma’lumotlar bilan tanishing | * * * |
| na’muna asosida qabul qilinadi | * * * |
| xurmatli tengdoshlar | * * * |
| arizalarni qabul qilish mudati | * * * |
| g‘oliblarni taqtirlash | * * * |

**19-topshiriqda berilgan e’lonlardan birini tanlang. Bajarilgan topshiriqlar (19–22-topshiriqlar)dan chiqargan xulosangiz yordamida uni qayta yozing.**

**25.** **1-e’londa uchragan quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. F harfi ishtirok etgan so‘zlarni davom ettirib yozing.**

futbol | Farg‘ona | ...

**Ushbu so‘zlardagi f tovushining talaffuziga alohida e’tibor bering. Talaffuzda qanday o‘zgarishlarni sezdingiz?**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 18 25/10/24 10:48

**F** undoshi *Sharofat, faner* kabi so‘zlarda ba’zan **p** tarzida talaffuz qilinsa ham, **f** yoziladi.

*Afzal, afg‘on* kabi so‘zlarda **f** undoshi ba’zan **v** tarzida talaffuz qilinsa ham, **f** yoziladi.

**V** undoshi *avtomat, avtomobil* kabi so‘zlarda **f** tarzida talaffuz qilinsa ham, **v** yoziladi.

**26. Harflardan mosini qo‘yib, so‘zlarni yozing.**

Sharo f/p at | a f/v sona | Sha f/v kat | f/p arosat | A f/v g‘oniston | a f/v zal

**27. Imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

| | |
|---|---|
| shavqat | shafqat |
| tavofut | tafovut |
| fotografiya | potografiya |
| farmon | parmon |
| avtobus | aftobus |
| avtoturargoh | aftoturargoh |
| detektif | detektiv |
| fokus | pokus |
| isrofgarchilik | isropgarchilik |
| faylasup | faylasuf |

**28. 2-e’londan olingan so‘zlarga berilgan qo‘shimchalarni qo‘shib yozing. Qaysi so‘zlarda o‘zgarish bo‘ldi?**

| | *-ga* | *-im* |
|---|---|---|
| Bo‘stonliq | * * * | * * * |
| tog‘ | * * * | * * * |
| buloq | * * * | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 19 25/10/24 10:48

**Q** undoshi bilan tugagan so‘zlarga **-ga** qo‘shimchasi qo‘shilsa, bu qo‘shimcha *-qa* tarzida aytiladi va shunday yoziladi.

**Masalan:** *quduqqa, toshloqqa.*

Bunday so‘zlarga *-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz* (egalik qo‘shimchalari) qo‘shilsa, so‘z oxiridagi *q* undoshi aksariyat hollarda *g‘* ga aylanadi va shunday yoziladi.

**Masalan:** *bulog‘i, qishlog‘i.*

**G‘** undoshi bilan tugagan so‘zlarga **-ga** qo‘shimchasi qo‘shilsa, asos va qo‘shimchalar qanday aytilishidan qat’i nazar, o‘zgarmaydi.

**Masalan:** *tog‘ga, Yakkabog‘ga.*

**29. Rasmlarga qarab q va g‘ undoshi bilan tugaydigan narsa nomlarini toping. Ularga *-im*, *-imiz*, *-ing*, *-ingiz*, *-i* qo‘shimchalaridan birini hamda *-ga* qo‘shimchasini alohida-alohida qo‘shib yozing.**

Namuna

qarmoq – qarmog‘im, qarmoqqa.










37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 20 25/10/24 10:48

**30.** **So‘zlarni namunadagidek ikki ustunga ajratib yozing.**

*bayrog‘im, borliqqa, sovuqqa, tarmoqqa, barmog‘ing, tuzog‘imiz, buzoqqa, tuprog‘i, munchog‘ingiz*

| So‘z asosida o‘zgarish | Qo‘shimchada o‘zgarish |
|---|---|
| bayroq + im – bayrog‘im | borliq + ga – borliqqa |
| * * * | * * * |

**Berilgan izohlar yordamida q harfidan boshlanib, q harfi bilan tugaydigan so‘zlarni yozing. Topgan so‘zlaringizga *-im*, *-imiz*, *-ing*, *-ingiz*, *-i* qo‘shimchalaridan birini hamda *-ga* qo‘shimchasini alohida-alohida qo‘shib yozing.**

1. To‘rtta o‘nlik.
2. Suv olish maqsadida qazilgan chuqurlik.
3. Tuxumga un qo‘shib, yog‘da pishiriladigan taom.
4. Qo‘yning bolasi.
5. Masalliqlari qovurib tayyorlangan taom.

**31.** **3-e’londagi j harfi ishtirok etgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qarating.**

bolajonlar | jurnal | ajoyib | Gulxanjon | kelajak | ijod



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 21 25/10/24 10:48

**32.** **So‘zlarni birgalikda talaffuz qiling. Ularning tarkibidagi j tovushi qanday talaffuz qilinayotganiga e’tibor qarating.**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ajdar | vijdon | javob | garaj | jahon |
| jajji | avj | juda | tiraj | g‘ijjak |

**33.** **Nuqtalar o‘rniga qanday birliklarni qo‘yish mumkinligi haqida o‘ylang. E’lonlarni to‘ldirib yozing.**

**E’lon**

2023-yil 18-mart kuni soat 10:00 da maktab hovlisida Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan sayil ... . Barcha o‘quvchilarni ushbu tadbirga ... . Tadbirda sizlarni qiziqarli chiqishlar, milliy liboslar ko‘rgazmasi hamda xalq o‘yinlari tomoshalari ... .

**...**

Aziz o‘quvchilar! Maktab ma’muriyati 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan “Men kelajakni qanday tasavvur qilaman?” mavzusida tanlov ... . Ushbu tanlovda mavzuga oid videorolik, esse yoki boshqa turdagi ijodiy ishlaringiz bilan ... .

Tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar maktab ma’muriyati tomonidan ... .

... ... : **t.me/yoshkelajak.bot.**

**34.** **E’lon yozishda odamlarni o‘ziga jalb qiluvchi qanday jumlalardan foydalanish o‘rinli ekani haqida o‘ylab ko‘ring. Takliflaringizni yozing.**

Namuna

Shoshiling! | Diqqat, diqqat! | Kulgi shinavandalari diqqatiga!



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 22 25/10/24 10:48

**Tasavvur qiling, maktabingizda 1-iyun – Bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan tadbir o‘tkazilmoqda. Ushbu tadbir uchun quyidagi yo‘riqnoma asosida e’lon yozing.**

| | |
|---|---|
| E’lon | **Rasmiy hujjat nomi** |
| E’lon mazmuni (e’lon qilinayotgan tadbirning nomi, vaqti, o‘tkazilish joyi, tadbirning mavzusi) | **Asosiy qism** |
| Tadbirni o‘tkazuvchilar | **Yakuniy qism** |

1. Suyunchi nima? U nima maqsadda so‘raladi?
2. Ayting-chi, siz biror marta boshqalardan suyunchi olganmisiz?

**35. “Pahlavon”ning beshigi” audiomatnini tinglang. Savollarga javob berishga tayyorlaning.**

1






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 23 25/10/24 10:48



1. Hikoyadagi bolakay nima uchun xursand bo‘lib, hammadan suyunchi so‘ray boshladi?
2. Hikoya qahramoni kattalardan suyunchi so‘raganida atrofdagilar unga qanday munosabatda bo‘lishdi?
3. Hikoyada ukali bo‘lishning qanday “yomon” tomoni haqida gap ketmoqda?
4. Chaqaloqni beshikka belash marosimi haqida nimalarni bilib oldingiz?



**36. Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni izohlari bilan moslang va daftaringizga yozing.**

Ukali bo‘lish yaxshi ekan. Birpasda ancha-muncha narsali bo‘lib qoldim. **Chaqa** pul, tanga pul, qog‘oz pul...

Ustiga cho‘g‘dek qizil **gavrapo‘sh** yopilgan, gavrapo‘sh chetlariga chaqaloqning ko‘ylakchalari, ishtonchalari, **ukpar** qadalgan do‘ppisi chatib qo‘yilgan.

Hamma-hamma bilan, Parcha xola **shinni**ga non botirib uryapti.

**Taxmon** oldida Lazokat xola yangi beshikka boshqatdan joy sola boshladi.

Shildir-shildir qilayotgan **qovuz**ni yozdi.

Ammam **xokandoz**da tutab turgan isiriq ko‘tarib kirdi.

Lazokat xola chaqaloqni ko‘rpachaga yotqizib, **yo‘rgagini** yechdi.

| |
|---|
| ukki pati (odatda bolalar kiyimlari, asosan bosh kiyimni bezatish uchun unga chatib qo‘yiladi) |
| uy yoki ayvon devorida: sandiq o‘rnatib, ustiga ko‘rpa yig‘ib qo‘yiladigan tokchasimon maxsus joy |
| beshik ustiga yopiladigan mato |
| metalldan yasalgan, qiymati past mayda pul |
| ichida tariq po‘sti bor chaqaloq to‘shakchasi |
| tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qiyom |
| chaqaloqni o‘raydigan kichik choyshab |
| olov, kul, supurindini olish uchun ishlatiladigan dastali asbob |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 24 25/10/24 10:48

**37. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday nutqqa (og‘zaki/yozma) xos? Yozuvchi nima uchun shunday shakldagi so‘zlardan foydalanganini tushuntirishga harakat qiling. Ushbu so‘zlarni yozma nutqqa moslab ko‘chiring.**

Namuna

tug‘dila – tug‘dilar

1. – Suyunchi beringlar! Oyim o‘g‘il **tug‘dila!**
2. – Iye, **giroy,** siz ukalik bo‘lasiz-u, bizni suyunchidan qochirasizmi? – deb menga ko‘k, Abduvaliga sariq qog‘oz pul tutqazdi.
3. **Ukalik** bo‘lish yaxshi ekan!
4. – Hoy, Robiyaxon-u! – dedi ayvon tomonga qarab. – **Obkeling!**
5. – Bu **gapizam** to‘g‘ri, opa! – dedi kattakon kafti bilan qalin labiga yopishgan shinni yuqini artib. – **Mani** qorong‘ida ko‘rsa, **kotta** odam qo‘rqadi-ku!
6. – **Qayoqqa** yotqizay? – deb so‘radi baland ovozda. – Shu yoqqami?
7. – O‘rtoqlaring bilan **bo‘lashib** yenglar! – dedi tayinlab. – Omon ham senlarga o‘xshab chopqillab yursin.

**38. Partadoshingiz bilan rasmlardagi vaziyatlar asosida dialog tuzing. Matnni sinfdoshlaringiz bilan tahlil qiling.**





**Ota-onangiz bilan milliy marosim qo‘shiqlari haqida suhbatlashing. Ulardan birini daftaringizga yozib keling.**

**Masalan:**

- ramazon oyida kuylanadigan qo‘shiqlar;
- Navro‘z sayillarida kuylanadigan qo‘shiqlar.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 25 25/10/24 10:48



1. Ayting-chi, qanday vaziyatlarda kishilardan o‘zini tanishtirish so‘raladi?
2. Qay biri qulay: sizni boshqalar tanishtirganimi yoki o‘zingiz haqingizda gapirib berganingizmi?
3. Kishi o‘zini tanishtirganda qanday ma’lumotlarni aytishi muhim?



**39. Dialogni o‘qing.**

– Assalomu alaykum. Xayrli kun!

– Vaalaykum assalom. Marhamat, o‘zingizni tanishtirsangiz. Ismingiz nima?

– Ismim – Azizjon. Familiyam – Sultonov.

– Men Mardonbek Shuhratov, ushbu elektron nashr rahbariman. Siz bilan yaqindan tanishish uchun ba’zi savollar bilan murojaat qilmoqchiman. Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra siz 24 yoshdasiz.

– Ha, to‘g‘ri. Men 2000-yil 18-martda tug‘ilganman. Yoshim 24 da.

– Juda yaxshi! Tug‘ilgan joyingiz, oila a’zolaringiz haqida gapirib bersangiz.

– Men Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilganman. Otam Azimjon Sultonov – injener-texnolog. Onam Zulfiyaxon Sultonova – shifokor. Oilada uch nafar farzandmiz. Opam Gulnoraxon Sultonova – o‘qituvchi. Singlim Rayhon Sultonova – maktab o‘quvchisi. Otamning ishi sababli 2015-yildan buyon Samarqand shahrida yashab kelyapmiz.

– Rahmat. Ma’lumotingiz haqida ham aytib o‘tsangiz.

– Men bu yil internet jurnalistikasi yo‘nalishi bo‘yicha universitetni tamomladim. Shu sohada ishlamoqchiman.

– Bu juda yaxshi! Bizga aynan sizdek mutaxassislar kerak. Siz haqingizda yaxshiroq tasavvur hosil qilishimiz uchun o‘z sohangizga oid yutuqlaringiz hamda qiziqishlaringiz haqida gapirib bering.

– Men tajriba orttirish, kasbimga oid ko‘nikmalarni egallash maqsadida bir qancha elektron nashrlarda faoliyat yuritganman. Eng sevimli mashg‘ulotim – kitob mutolaasi. O‘z sohamga oid xorijiy adabiyotlarni o‘rganish niyatidaman. Shu sababli bo‘sh vaqtlarimni xorijiy tillarni chuqurroq o‘rganishga sarflayapman. Kelajakda onlayn nashrlar faoliyatiga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlab, ushbu soha rivojiga o‘z hissamni qo‘shmoqchiman.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 26 25/10/24 10:48



**40.** **Gaplar oxirida qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Gap turlarini aniqlab, yozing.**

| | | |
|---|---|---|
| Xayrli kun! | undov | * * * |
| Ismingiz nima? | so‘roq | * * * |
| Men Mardonbek Shuhratov, ushbu elektron nashr rahbariman. | nuqta | * * * |
| Juda yaxshi! | undov | * * * |
| Eng sevimli mashg‘ulotim – kitob mutolaasi. | nuqta | * * * |



**41.** **Gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib yozing.**

| Darak gap | So‘roq gap |
|---|---|
| Siz bilan yaqindan tanishish uchun ba’zi savollar bilan murojaat qilmoqchiman. | Siz bilan yaqindan tanishish uchun ba’zi savollar bilan murojaat qilsam maylimi? |
| Tug‘ilgan joyingiz, oila a’zolaringiz haqida gapirib bersangiz. | * * * |
| Ma’lumotingiz haqida ham aytib o‘tsangiz. | * * * |
| Sohangizga oid yutuqlaringiz hamda qiziqishlaringiz haqida gapirib bering. | * * * |



**42.** **So‘zlarni namunadagidek tahlil qiling.**

| So‘z | So‘zdagi qo‘shimcha | Vazifasi |
|---|---|---|
| Azizjon | *-jon* | erkalash ma’nosi |

Mardonbek | Azimjon | Zulfiyaxon | Gulnoraxon

adabiyotlar | mutaxassislar | nashrlar



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 27 25/10/24 10:48

**43.** **Partadoshingiz haqidagi ma’lumotlarni aniqlash uchun 3 ta savol tayyorlang. Savollar asosida partadoshingiz bilan suhbat quring.**

**O‘zingiz haqdagi ma’lumotlarni yozing. Ularni og‘zaki shaklda yetkazishga tayyorlaning.**



## Barchasi men haqimda...

Ismim: _____

Familiyam: _____

Tug‘ilgan joyim: _____

Maktabim: _____

Sinfim: _____

Sevimli taomim: _____

Sevimli kitobim: _____

Yaxshi ko‘radigan fanlarim: _____

Sevimli rangim: _____

Men ulg‘aygach, _____ bo‘lishni xohlayman.

**44.** **Quyidagi jumlalardan birini tanlab, o‘zingizni og‘zaki tanishtirishga tayyorlaning.**

**Kirish**

- *O‘zimni tanishtirishga ruxsat bersangiz. / O‘zim haqimda ozroq gapirib bersam.*
- *Mening ismim **Azimjon Karimov**. / Men **Azimjon Elyor o‘g‘liman**. / Men **Azimjonman**.*
- ***11** yoshdaman. / Men **11** yoshdaman. / Men 2013-yilda tug‘ilganman.*
- *Men **Samarqand**da tug‘ilganman. / Men **samarqandlik**man. / Men **Samarqand**da yashayman. / Mening tug‘ilgan joyim – **Samarqand**, ammo hozir oilamiz bilan **Toshkent**da yashaymiz.*

Agar suhbatdoshingiz qiziqsa, o‘zingiz yashaydigan shahar/qishloq haqida, uning diqqatga sazovor joylari haqida bir-ikkita gap aytishingiz mumkin.

- *Mening ona shahrim – **Samarqand**, u **O‘zbekistondagi eng qadimiy shahar.** / Men yashaydigan joy o‘zining **tarixiy obidalari va muqaddas qadamjolari bilan** mashhur.*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 28 25/10/24 10:48

**Asosiy qism**

Hozir nima bilan shug‘ullanishingiz haqida gapiring:

- *Men **5**-sinfda o‘qiyman. / Men 34-maktabning **5**-sinfida o‘qiyman. / Hozir 5-sinfda o‘qiyapman.*
- *Men **ona tili** va **tarix** fanlarini **yaxshi ko‘raman**. / Mening sevimli fanlarim – **ona tili** va **tarix**. / Men **ona tili** va **tarix** fanlariga **qiziqaman**.*

Sevimli mashg‘ulotingiz, qiziqishlaringiz, qobiliyatingiz haqida ma’lumot bering:

- *Qiziqishlarim haqida gapiradigan bo‘lsam, **musiqa tinglashni** yaxshi ko‘raman. / Men **sportga** qiziqaman. / **Sportni** yaxshi ko‘raman. / **Tennisni** yaxshi o‘ynay olaman. / Bo‘sh vaqtlarimda **sport bilan** shug‘ullanaman. / **Robototexnikaga** qiziqishim juda yuqori. / Odatda bo‘sh vaqtlarimni **kitob** mutolaasi bilan o‘tkazaman.*

Agar ehtiyoj bo‘lsa, o‘z fe’l-atvoringiz haqida ma’lumot berishingiz mumkin:

- *Ko‘pchilik meni **quvnoq** bola deb hisoblaydi. / Oila a’zolarim mening mehribonligimni bilishadi. / Men **yolg‘onchi** va **dangasa** insonlarni yoqtirmayman. / Men **kitobsevar** va **aqlli odamlar** bilan do‘stlashishni xohlayman.*

**Yakuniy qism**

O‘zingizni tanishtirishni kelajakdagi rejalaringiz va orzularingiz haqidagi bir nechta jumla bilan yakunlashingiz mumkin:

- *Men kelajakda **shifokor** bo‘lishni xohlayman. / Men kelajakda **o‘qituvchi** bo‘lmoqchiman. / Men **taniqli olim** bo‘lishni xohlayman.*
- *Orzum **– dunyo bo‘ylab sayohat qilish**. / Men **dunyo bo‘ylab sayohat qilish**ni orzu qilaman.*
- *Mening orzularim juda ko‘p, shuning uchun ko‘p narsalarni o‘rganishga harakat qilyapman. **Til o‘rganish, qiziqqan fanimga oid adabiyotlar bilan tanishish** asosiy mashg‘ulotimga aylangan.*
- Suhbatdoshingizga sizni tinglagani uchun minnatdorlik bildiring:
- *E’tiboringiz uchun **rahmat**. / Meni tinglaganingiz uchun **tashakkur**. / Meni tinglaganingizdan **minnatdorman**.*

**45. Tanlagan jumlalaringizdan foydalanib o‘zingiz haqingizda ma’lumot bering.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 29 25/10/24 10:48

**46.** **Sinfdoshlaringizning nutqini tinglang. Ularga qanday tavsiyalar berish mumkinligini yozing.**

**O‘zingizni tanishtirish bo‘yicha nutqingizni video shaklida tayyorlab, oila a’zolaringizga ko‘rsating. Ulardan videomaterial haqida quyidagilarni so‘rang va javoblarni daftaringizga yozib oling:**

1) ekran qarshisida o‘zingizni qanday tutganingiz (yuz, ko‘z, og‘iz, qo‘l harakatlari va boshqalar);
2) nutq tezligingiz;
3) fikrni to‘liq yetkazganingiz;
4) nutqingizdagi yutuqlar;
5) tuzatishingiz zarur bo‘lgan holatlar.

**47.** **Rasmiy uslubga xos so‘zlarni ko‘chiring.**

man / men | dadam / otam | opacham / opam | ayam / onam | ukajonim / ukam | akajonim / akam | singilginam / singlim

**48.** **Namunadan foydalanib tarjimayi holingizni yozing.**

| TARJIMAYI HOL | |
|---|---|
| Men, Karim Salimov Olim o‘g‘li, 2013-yil 15-sentyabrda Toshkent shahrida, ziyoli oilada tug‘ildim. Otam Olim Salimov Oripovich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘qituvchi, onam Gulnora Rahimova Azimovna 122-bolalar bog‘chasida bosh tarbiyachi bo‘lib ishlaydilar. Singlim Gulchehra Salimova Olim qizi bog‘cha tarbiyalanuvchisi. | Tarjimayi hol muallifining ismi, familiyasi, otaismi, tug‘ilgan sanasi va joyi, ota-onasi haqida qisqacha ma’lumot |
| 2020-yildan buyon Toshkent shahridagi 14-maktabda tahsil olmoqdaman. Hozir 5-sinf o‘quvchisiman. Darsdan bo‘sh vaqtlarimda matematika va ingliz tili fanlaridan to‘garaklarga qatnashaman. Sportning futbol turiga qiziqaman. | Tarjimayi hol muallifining ma’lumoti va o‘qish joyi |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 30 25/10/24 10:48

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2021-yilda o‘tkazilgan “Bolalarga bering dunyoni” tanlovida ishtirok etib, 2-o‘rinni qo‘lga kiritganman. | | Tarjimayi hol muallifining erishgan yutuqlari | |
| Yashash manzilim: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko‘chasi 5-uy 27-xonadon. | | Tarjimayi hol muallifining turarjoyi | |
| Sana: 2024.12.03. | Imzo: | Sana | Imzo |



**49. Tarjimayi holingizni partadoshingizniki bilan almashtiring va matnni quyidagi mezonlar asosida baholang.**

| | |
|---|---|
| Matn qismlari to‘g‘ri ketma-ketlikda berilgan. | **1 ball** |
| Matnda oila a’zolarining nomlari to‘g‘ri yozilgan. | **1 ball** |
| Matnda rasmiy uslubga oid birliklardan foydalanilgan. | **1 ball** |
| Matnda imloviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| Matnda ishoraviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| **Jami:** | **5 ball** |



**Oila a’zolaringizdan birining tarjimayi holini yozib keling.**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 31 25/10/24 10:48

# Bob yuzasidan takrorlash

**50.** **Quyidagi masalliqlar asosida ayron tayyorlash uchun nimalar qilish kerakligini yozing.**

**Kerakli masalliqlar:**

- 2 piyola qatiq;
- 2 piyola ichimlik suvi;
- ta’bga ko‘ra tuz;
- rayhon barglari;
- ko‘katlar.



**51.** **Berilgan sarlavhalar ostidagi matnlar qaysi manbalardan olinganini taxmin qilib, yozing.**

| Sarlavhalar | Bolalar ensiklopediyasi | Shaxsiy hujjatlar yig‘majildi | Gazeta yoki jurnal | Hikoyalar to‘plami |
|---|---|---|---|---|
| Kino olamining bo‘lajak yulduzlari | * * * | * * * | * * * | * * * |
| Yulduz Qambarovaning tarjimayi holi | * * * | * * * | * * * | * * * |
| Eng yorqin yulduz qaysi? | * * * | * * * | * * * | * * * |
| Oy bo‘lishni istagan yulduz | * * * | * * * | * * * | * * * |


**52.** **To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.**

| | | |
|---|---|---|
| zirapcha / zirapja | boj / boch | kamxarch / kamxarj |
| mavch / mavj | izchil / izjil | muhtoch / muhtoj |
| xuruj / xuruch | dilxiroch / dilxiroj | |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 32 25/10/24 10:48

**53.** **Quyidagi so‘zlarga -ga qo‘shimchasini qo‘shib yozing. Tovushlarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga diqqat qiling.**




**O‘zingiz ishtirok etgan milliy bayram yoki marosimdan olgan taassurotlaringiz asosida do‘stingizga xat yozing. Unda quyidagi ma’lumotlar aks etishiga e’tibor qarating:**

- bayram yoki marosimning qayerda, qachon o‘tkazilgani;
- jarayon tasviri (kimlar ishtirok etgani, odamlarning libosi, o‘zaro suhbati);
- bayram yoki marosimning sizga yoqqan jihatlari.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 33 25/10/24 10:48

# SAN’AT



**1.** **Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.**




1. Rasmlarda qanday san’at turlari aks etgan?
2. Qaysi san’at turi sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun?
3. Hayotimizga san’atning qanday ta’siri bor?
4. Qaysi san’atkorlarni taniysiz?

**2.** **Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang. To‘g‘ri variantini daftaringizga ko‘chiring.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| rubop<br>rubob | pianino<br>piyanina | royal<br>rayal | do‘mbara<br>do‘mbira |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 35 25/10/24 10:48

**3.** **San’at vakillarining vazifasini aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.**

| San’at vakillari | | Qanday vazifani bajaradi? | |
|---|---|---|---|
| 1 | Baxshi | A | gilam to‘qiydi. |
| 2 | Kulol | B | rasm chizadi. |
| 3 | Adib | D | rol ijro etadi. |
| 4 | Gilamdo‘z | E | musiqa bastalaydi. |
| 5 | Bastakor | F | dostonlar kuylaydi. |
| 6 | Musavvir | G | musiqiy asar ijrosi uyg‘unligini ta’minlaydi. |
| 7 | Aktyor | H | loydan buyumlar yasaydi. |
| 8 | Dirijyor | I | badiiy asar yozadi. |

**4.** **Quyidagi rasmlarda aks etgan san’at turlari haqida nimalarni bilasiz? Biror san’at turiga oid qisqa atamalar lug‘atini tuzing.**





















37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 36 25/10/24 10:48



**Berilgan so‘zlardan foydalanib dorbozlik tomoshalari haqida matn yozing. Oila a’zolaringizdan ko‘mak oling.**

dor | mashq | sulola | langar | muvozanat

1. Sirk haqida nimalarni bilasiz?
2. Sirk tomoshasi va spektaklning qanday farqi bor?

## Qiziqarli tomoshalar

1 Sirkda eng g‘amgin inson ham kulib, hayratda qolishi aniq. Bu – ana shunday ajoyib san’at. Sirk ko‘p hollarda yumaloq arena va baland gumbazli binoda joylashadi (ko‘chib yuruvchi sirklar esa chodirlar tiklashadi). Gumbaz tagida, ingichka sim ustida akrobatlar yuradi, sakraydi va havoda aylanadi. O‘rgatilgan yo‘lbarslar yonib turgan halqa ichidan o‘tadi, ayiqlar esa raqs tushib, velosiped haydaydi. Sirkni hammani kuldiradigan masxarabozlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.



**Ko‘zboyloqchi shlyapasining ichida hamma narsa bo‘lishi mumkin. Masalan: quyon.**

2 Jonglyorlar epchillik bilan turli buyumlar – shar, gurzi va halqalarni uloqtirib, tutishadi. Ular oldin ikki-uchta buyum bilan ishlaydi, keyinchalik buyumlar soni ko‘payib boradi.Teatrda aktyorlar bilan birga turli kasb egalari ham ishlaydi. Rejissyor rollarni taqsimlab, repetitsiya o‘tkazadi. Rassom sahna bezaklari va qahramonlarning liboslarini chizadi. Liboschi spektakl uchun kiyim tikadi. Grimchi aktyorlar qiyofasini o‘zgartirish ustida ishlaydi. Bundan tashqari, chiroq ustalari, sahna ishchilari va nazoratchilar faoliyat yuritishadi.



**Masxarabozlar maxsus pufaklardan hayvonlarning ajoyib shakllarini yasaydi.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 37 25/10/24 10:48

**3** Teatr juda qadimda paydo bo‘lgan, hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud.

Ilgari teatr aktyorlari niqob taqqan. Niqoblar tomoshabinlarga ular oldida qanday obraz turganini anglatgan. Ya’ni u qahramonning rahmdil yoki jahldor, quvnoq yoki g‘amgin ekanini tushunish uchun yordam bergan. Hozir aktyorlar rollarni niqobsiz ijro etadilar.



**Yana shunday teatrlar borki, u yerda bosh aktyorlar soyalardir. Bunday teatrlar *soyalar teatri* deyiladi. Bunda faqat chiroq, parda va qo‘llar kerak bo‘ladi.**



**Bunday qo‘g‘irchoqlar qo‘lqop kabi kiyiladi va ular yordamida qiziqarli tomoshalar ko‘rsatiladi.**

**4** Teatrlarda nafaqat aktyorlar, balki qo‘g‘irchoqlar ham rol o‘ynaydi. Bunday teatrda ular bosh qahramon hisoblanadi. Qo‘g‘irchoqlarni aktyorlar boshqaradi. Agar teatr qiziqarli bo‘lsa, tomoshabinlar sahnada qo‘g‘irchoqlar o‘ynayotganini unutib ham qo‘yishadi. Ular yoqtirgan qahramonlari bilan birga kuladi va yig‘laydi.

Uyda ham teatr tashkillashtirish mumkin. Buning uchun qiziqarli hikoya tanlash, rollarni taqsimlash va mos liboslar tayyorlash talab etiladi. Tomoshabinlar esa ota-onangiz va do‘stlaringiz bo‘lishi mumkin.

*“Kichkintoy ensiklopediyasi”dan olindi.*

**5. So‘zlarni izohi bilan moslashtiring va daftaringizga yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | gumbaz | **A** | aktyor sahnada ijro etadigan obraz |
| **2** | jonglyor | **B** | yuzga tutiladigan narsa |
| **3** | liboschi | **D** | asarni sahnalashtiruvchi rahbar |
| **4** | niqob | **E** | aylana shaklidagi buyum |
| **5** | rol | **F** | narsalarni yuqoriga otib, qayta tutib oluvchi artist |
| **6** | rejissyor | **G** | qubba shaklidagi tom |
| **7** | halqa | **H** | aktyor qiyofasini o‘zgartiruvchi |
| **8** | grimchi | **I** | spektakl uchun libos tikuvchi |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 38 25/10/24 10:48

1. Sirkda qanday tomoshalar namoyish etiladi?
2. Sizga aynan qanday tomoshalar yoqadi?
3. Teatrda kimlar qanday vazifani bajaradi?
4. Nima sababdan qadimda teatr aktyorlari niqob taqqan?
5. Qo‘g‘irchoqlarni boshqaradigan odamlarni ham aktyor deyish mumkinmi? Nima uchun?

**6. Chapdan o‘ngga yo tepadan pastga harakatlanish orqali san’at sohasiga doir 10 ta so‘zni toping. Ularning ma’nosini izohlang.**

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| s | a | h | a | l | q | a | x | t | k |
| t | e | a | t | r | m | v | m | a | u |
| s | m | f | i | a | u | t | o | m | o |
| i | d | o | r | q | s | j | r | b | sh |
| r | i | z | b | s | i | q | a | u | a |
| k | i | n | o | z | d | b | v | r | t |
| r | o | o | q | k | s | a | h | n | a |
| m | u | o | o‘ | x | d | g | v | p | t |
| y | t | r | g‘ | h | b | e | z | a | k |
| s | o | v | i | r | ch | o | q | a | r |

**7. Asarni sahnalashtirishda quyidagi shaxslar qanday vazifalarni bajaradi? Daftaringizga yozing.**

| | |
|---|---|
| yozuvchi | * * * |
| rejissyor | * * * |
| aktyor | * * * |
| rassom | * * * |
| liboschi | * * * |
| chiroqchi | * * * |
| bastakor | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 39 25/10/24 10:48

**Teatr tomoshalari odamlarga nima uchun kerak? 4 ta sabab yozing. Oila a’zolaringizdan ko‘mak oling.**



**8. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.**

**1. “Qiziqarli tomoshalar” matniga ko‘ra teatrda aktyorlardan tashqari yana kimlar ishlaydi?**

**Bir nechta to‘g‘ri javobni toping.**

- rejissyor
- gimnastikachi
- rassom
- chiroq ustasi
- jonglyor
- nazoratchi

**2. Hukmlarning qaysilari to‘g‘ri ekanini aniqlang.**

**1.** Avvallari teatr aktyorlari niqob taqqan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

**2.** Teatrda aktyorlar rollarni taqsimlab, repetitsiyalarni o‘tkazadi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

**3.** Rassom sahna bezaklari va qahramonlarning liboslarini chizadi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

**4.** Teatrlarda nafaqat aktyorlar, balki qo‘g‘irchoqlar ham “rol o‘ynaydi”.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 40 25/10/24 10:48

**9. Gaplarni “Qiziqarli tomoshalar” matni mazmuni asosida ketma-ket joylashtiring.**

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| * * * | * * * | * * * | * * * | * * * |

**A** Teatr qiziqarli bo‘lsa, rolni kim ijro etayotgani unutiladi.

**B** Hozirda deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo‘lgan teatr uzoq tarixga ega.

**D** Oila a’zolaringiz va do‘stlaringiz uchun ham teatr tashkil etish mumkin.

**E** Sirkda nafaqat odamlar, balki hayvonlar ham tomosha ko‘rsatadi.

**F** Jonglyorlar shar, gurzi va halqalar bilan tomosha ko‘rsatadi.

**10. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni o‘qituvchingiz yordamida aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| xayrat – hayrat | xavo – havo | xabar – habar | xikoya – hikoya |
| haqiqiy – xaqiqiy | xayr – hayr | yahshi – yaxshi | qaxramon – qahramon |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 41 25/10/24 10:48

**X** tovushi og‘izda (kichik tilda), **h** esa bo‘g‘izda hosil bo‘ladi.

Ko‘pincha bir bo‘g‘inda **e** unlisidan keyin **h** harfi keladi: *meh-mon, deh-qon, eh-tirom, eh-son, eh-tiyoj, eh-timol, eh-tiros, eh-tiyot, eh-rom, mehr, meh-rob, meh-ribon, sehr, cheh-ra...*

Bir bo‘g‘inda **i** unlisidan keyin ko‘pincha **x** chuqur til orqa undoshi keladi: *ixtiyor, ixlos, ixtiro, ixcham, pix, mix, six…*

**11. So‘zlarni talaffuz qiling, to‘g‘ri shaklini aniqlang va ko‘chiring. Tanlovingizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.**

| So‘zlar | |
|---|---|
| xodisa | hodisa |
| harakat | xarakat |
| har xil | xar hil |
| sahna | saxna |
| mehnat | mexnat |
| tehnika | texnika |
| xizmat | hizmat |
| mahsus | maxsus |
| hilma-hil | xilma-xil |

**Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo‘yib, matnni daftaringizga ko‘chiring. Imlo lug‘atidan foydalaning.**

San’at inson me...nati, aql-idroki bilan yaratilgan ijod ma...sulidir. San’at asarida sha...s-ning o‘ziga ...os iste’dodi namoyon bo‘ladi. San’at dunyoni ma’naviy anglashning ma...sus turidir. U keng ma’noda badiiy qadriyatlar, ularni yaratish va idrok etish jarayonlarini qamrab oladi. San’at ...ozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ...olda rivojlanib kelgan.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 42 25/10/24 10:48

Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz?

## Sehrli qalpoqcham bo‘lsaydi...

*(intervyu)*



– Bolalikni nimaga qiyoslaysiz?

– Aslida, bolalikni hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Men bolalikni bolalikning o‘ziga qiyoslayman. Inson umrini uch qismga bo‘lsak, eng qiziq, qaynoq voqealarga boy pallasi, eng katta baxt yashiringan davri bu bolalik davri ekan.

– Xudoyberdi To‘xtaboyev asari asosida “Sehrli qalpoqcha” kinosini suratga olish fikri sizda qanday paydo bo‘lgan?

– Bolaligimdan ushbu asarni juda yoqtirar edim. Sehrli qalpoqcham bo‘lishini juda-juda orzu qilganman. Nasib qilgan ekan, yillar o‘tib bu filmda rol ijro etdim.

– Sizningcha, filmda asardagi voqealar to‘liq ochib berilganmi?

– Yo‘q, albatta. Asarning filmda yoritilmagan joylari ko‘p. Ehtimol, bunga makon va zamon ham sababdir...

– Hoshimjon obrazining bolaligingiz bilan o‘xshashligi bormi? Bo‘lsa, aynan qaysi jihati?

– Yoshligimda Hoshimjonga o‘xshab bir necha bor uydan qochib ketganman *(kuladi)*. Uydagilarga aytmasdan qishloqqa ravona bo‘lardim. Paxta dalalarini, kengliklarni yaxshi ko‘rardim. Umuman olganda, ushbu asar ijodimda katta ahamiyat kasb etgan. Ayni paytda ancha ulg‘aygan bo‘lishimga qaramay, sehrli qalpoqcham bo‘lishini hamon orzu qilaman.

– Maktabda qanday o‘quvchi bo‘lgansiz va qaysi fanlarni yaxshi ko‘rgansiz?

– Maktabda o‘rtoqlarim menga fe’l-atvori og‘ir, indamas deya baho berishardi. Lekin o‘zim bu fikrga qo‘shilmasdim. Chunki juda tirishqoq va puxta bola edim. 7-sinfda o‘qiyotgan paytlarimdanoq pul topa boshlaganman. Keyinchalik san’at olamiga kirganimda esa “Kesakdan ham o‘t chiqarkan-da...” deyishgan.

Sevimli fanlarimga keladigan bo‘lsak, tarix faniga qiziqishim kuchli edi. Chunki ustozimiz darsni juda qiziqarli va jonli o‘tar edi. Umuman olganda, barcha fanlarni yaxshi ko‘rganman.

– Har bir inson kasb tanlashdan oldin biror insonga havas qiladi. Sizda ham shunday bo‘lganmi?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 43 25/10/24 10:48

– Rejissyor bo‘lishdan oldin aktyor bo‘lishni orzu qilganman. Ammo aynan biror aktyorga havas qilganman, deyolmayman. Tohir Saidov, Abdurayim Abduvahobov, Dilbar Ikromova, Karim Mirhodiyev kabi taniqli ustoz aktyorlar bilan birga ishladim. Barchalarini birdek yaxshi ko‘rganman. Menda aktyorlik kasbiga havas kuchli edi. Rejissyorlikka qiziqish vaziyat taqozosi bo‘lgan. Yoshlikdan kichik-kichik ssenariylar, hikoyalar yozib turardim.

Universitetga kirish uchun imtihon topshirganimda past ball olganman. Keyin rejissyorlik fakultetiga o‘qishga kirganman. Shuhrat Abbosov, Jo‘ra Mahmudov, Mahmud Rashidov kabi o‘z kasbining fidoyilari qo‘lida tahsil olganman. Balki, shu sabab menda rejissyorlik kasbiga muhabbat uyg‘ongandir...

– “Tong yulduzi” gazetasi o‘quvchilariga tilaklaringiz.

– Doimo shaxdam qadamlar bilan olg‘a intilishlariga, elimizning koriga yaraydigan fidoyi farzand bo‘lishlariga tilakdoshman.

*“Tong yulduzi” gazetasidan qisqartirishlar bilan olindi.*



**12. So‘zlar va ularning izohini moslashtirib yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | tuyg‘u | **A** | anchadan beri, hozirgacha |
| **2** | palla | **B** | kishining fe’l-atvori |
| **3** | ravona bo‘lmoq | **D** | o‘qish, bilim olish |
| **4** | hamon | **E** | rag‘bat, qiziqish |
| **5** | xulq | **F** | muayyan vaqt |
| **6** | ijod | **G** | sezgi, ruhiy va jismoniy kechinma |
| **7** | havas | **H** | biror tomonga yo‘l olmoq, jo‘namoq |
| **8** | tahsil olmoq | **I** | yaratuvchilik faoliyati |



1. Dialogdagi suhbatdoshlar kim ekanini aniqlang. Buni qanday topdingiz? Javobingizni asoslang.
2. Suhbatdosh bolalikni nimaga qiyoslaydi? Siz-chi?
3. Suhbatdoshning bolaligidagi orzusi amalga oshdimi? Javobingizni izohlang.
4. Suhbatdosh bilan Hoshimjonning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.
5. Suhbatdosh qaysi kasb egasi bo‘lishni istagan edi? Siz-chi, kim bo‘lishni xohlaysiz?




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 44 25/10/24 10:48


**13. Matn asosida 2-suhbatdosh haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. Noto‘g‘ri ma’lumotlarni to‘g‘rilang.**

1. Sehrli qalpoqchasi bo‘lishini faqat yoshligida orzu qilgan.
2. Fe’l-atvori juda og‘ir, indamas bola edi.
3. Faqat tarix eng sevimli fani edi.
4. Aktyor bo‘lishdan oldin rejissyor bo‘lishni orzu qilgan.
5. Yoshligidan ijod bilan shug‘ullanishni boshlagan.
6. Ustozlar sabog‘i orqali unda rejissyorlik kasbiga muhabbat uyg‘ongan.

**14. “Sehrli qalpoqcham bo‘lsaydi...” matnida suhbatdosh inson umrini 3 qismga bo‘lib, bolalikka ta’rif beradi. Qolgan qismlarga siz qanday ta’rif bergan bo‘lardingiz?**




**Tasavvur qiling, o‘zingiz havas qiladigan insondan intervyu olishingiz kerak. Intervyuga mos savollar tuzing. Quyidagi ko‘rsatmaga amal qiling.**






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 45 25/10/24 10:48

1. Kimdan intervyu olish uchun tayyorgarlik ko‘rdingiz?
2. Suhbatdoshingizga qanday savollar bilan murojaat qilasiz? Nima uchun?

**15. “Sehrli qalpoqcham bo‘lsaydi...” matni asosidagi savollarga javob yozing.**

1. Sehrli qalpoqchangiz bo‘lganida nima qilar edingiz? ?
2. “Kesakdan ham o‘t chiqarkan” deganda nimani tushundingiz? ?
3. Sizningcha, el koriga yaraydigan farzand qanday bo‘lishi kerak? ?

**16. “Sehrli qalpoqcham bo‘lsaydi...” matni asosida tuzilgan savollarga yozma javob bering.**

1. Nega u bolalikni inson umrining “eng katta baxt yashiringan davri” deb izohlaydi?

* * * * *

2. Suhbatdoshimizning san’at olamiga kirib kelishiga sabab nima edi?

* * * * *

3. Tasavvur qiling, rejissyorsiz. Qanday mavzularda kino olgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

* * * * *

**17. Berilgan so‘zlarni talaffuz qilib ko‘ring. Ularning talaffuzi va ma’nosidagi farqni ayting.**

| | |
|---|---|
| **amr – amir** | buyruq |
| | hukmdor |
| **adib – adip** | yozuvchi |
| | to‘n mag‘zi |
| **burj – burch** | 12 ta yulduz turkumi |
| | mas’uliyat |

| | |
|---|---|
| **ganch – ganj** | qurilish materiali |
| | boylik |
| **azim – azm** | ulkan |
| | qaror qilmoq |
| **tanbur – tambur** | cholg‘u asbobi |
| | vagon bo‘lmasi |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 46 25/10/24 10:48

Paronimlar – talaffuzi bir xil yoki bir-biriga yaqin, ammo har xil ma’no anglatadigan so‘zlar.

**Masalan:** asir (tutqun) – asr (yuz yil); yonilg‘i (benzin, neft kabi yonadigan suyuqlik) – yoqilg‘i (ko‘mir, o‘tin kabi yoqiladigan ashyo).

**18. O‘rtadagi izohlar chap yoki o‘ng tomondagi qaysi so‘zga tegishli? Ularni talaffuz qilib ko‘ring. Izohlanmagan so‘zlarning ma’nosini o‘qituvchingiz yordamida aniqlang.**

| | | |
|---|---|---|
| **shoh** | *daraxt qismi* | **shox** |
| **sher** | *qofiyali asar* | **she’r** |
| **ravon** | *bir tekisda, to‘g‘ri* | **rovon** |
| **yod** | *es, xotira* | **yot** |

**Quyidagi paronim so‘zlarning ma’nosini aniqlang. Ularning har ikkala ma’nosi asosida gaplar tuzib, yozing.**

surat – sur’at | sava – sa’va | qars – qarz

**19. *Z* yoki *s* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| i…tirob | yo…sa | …ohib | i…chil |
| i…hor | mu…qaymoq | …uiiste’mol | hava… |
| i…quvar | mu…siz | imtiyo… | u…toz |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 47 25/10/24 10:48

**Z** tovushi ayrim so‘zlarda **s** deb aytilsa ham, **z** yoziladi.
**Masalan:** ***ischil*** *emas,* ***izchil****;* ***yussiz*** *emas,* ***yuzsiz***.
**Sh**, **ch** va **ng** harflar birikmasidir.
**S** va **h** harflari yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda ular orasiga tutuq belgisi **(’)** qo‘yiladi.
**Masalan:** Is’hoq (ism), as’hob (suhbatdoshlar).

**20. Jadvalda berilgan so‘zlarni talaffuz qilib ko‘ring. Ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.**

| | |
|---|---|
| rizq | Har kim o‘z rizq-nasibasini halol mehnat orqali topishi kerak. |
| izsiz | * * * |
| faraz | * * * |
| tuzsiz | * * * |

**21. So‘zlarni mos harf bilan to‘ldirib yozing. Ularning talaffuzi va imlosida qanday farq borligiga e’tibor bering.**

ne (ch / sh) ta

monta (j / sh)

(s / sh) irguruch

fala (j / ch)

namo (sh / z) shomgul

**22. Tez aytishlarni bir nafasda kamida 7–8 martagacha ayting. S va sh tovushlarining talaffuziga diqqat qiling.**

Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?

Sobirning sozi sozdir, Sahnada jo‘r ovozdir.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 48 25/10/24 10:48

**23. Maqollarni o‘qing. Z, s, sh, ch tovushlarining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Daftaringizga yozing va yodlang.**

Zehn qo‘ysang bilimga,
Ilm tomar dilingga.

Chechanning tili –
Chevarning qo‘li.

Ota kasbi – davlat kasbi.

Uchishga qanot kerak,
O‘qishga – toqat.

**Namuna asosida paronim so‘zlar lug‘atini tuzing.**

Namuna

*qism – butunning tarkibi, bo‘lagi*
*qisim – kaft orasiga olingan narsa miqdori*

Ayting-chi, qaysi qo‘shiqlarni yoddan bilasiz?

## Bastakor

Har bir qo‘shiq – ashula
Yaratilmas biryo‘la.
Shoir she’r yozib berar,
So‘z bog‘idan gul terar.

She’rni o‘qib chiqaman,
Mag‘zi-mag‘zin chaqaman.
Ilhom bilan surib o‘y –
Izlayman yoqimli kuy.

Yozaman, o‘chiraman,
Notaga ko‘chiraman.
Asta aytib ko‘raman,
Ijod gashtin suraman.

Allalarmi ko‘ngilni,
Ochiltirarmi gulni?
Dilda zavq uyg‘otarmi,
Yayrab quloch otarmi?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 49 25/10/24 10:48

Qo‘shiq ijod qilmoqlik –
Derlar talantga bog‘liq.
Lekin iste’dod o‘zi
Ocharmi ijod ko‘zin?

O‘qish, o‘rganish kerak,
Charchash, o‘rtanish kerak,
Goho ijod zavqida
Kechish mumkin uyqudan.



Ustozlar shunday qilgan,
Ular bilgani-bilgan.
El dilini bilganlar,
Cho‘qqiga intilganlar.

Ular deganlar: “Qo‘shiq –
Ko‘ngil uchun zo‘r oziq”.
Pishirsa mehnat, ilhom,
Oziq hech bo‘lmaydi xom.

Ilhom bilan sizlarga,
O‘g‘illarga, qizlarga,
Doim sho‘x qo‘shiq bitsam,
Tilingizdan eshitsam.

Juda yayrab ketarman,
Yana kuylar bitarman.

*Po‘lat Mo‘min*

**24. “Bastakor” she’ridan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohlab yozing. O‘qituvchingizdan ko‘mak oling.**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| nota | ... | ilhom | ... | gasht | ... |

**25. “Bastakor” she’ridagi ushbu iboralarning ma’nosini o‘qituvchingiz yordamida aniqlang va izohini yozing.**

| | |
|---|---|
| Mag‘zini chaqmoq | * * * |
| Ijod gashtini surmoq | * * * |
| Cho‘qqiga intilmoq | * * * |
| Ko‘ngilga oziq bo‘lmoq | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 50 25/10/24 10:48

1. “Ilhom bilan o‘y surmoq” deganda nimani tushundingiz?
2. She’rda keltirilishicha, bastakordan nimalar talab qilinadi?
3. “El dilini bilish” deganda shoir nimani nazarda tutgan?
4. Shoir qo‘shiqqa qanday ta’rif bergan?
5. Bastakorlardan kimlarni bilasiz?

**O‘zingiz yoqtirgan san’at turi haqida ma’lumot to‘plang. Quyidagi yo‘riqnoma asosida radionutq tayyorlang:**

1. Tanlangan san’at turi haqida ma’lumot to‘plang.
2. Shu asosda matn tayyorlang.
3. Tayyorlagan matningizni bir necha marta ovoz chiqarib o‘qing.
4. Uni radionutq sifatida audio shaklida yozib oling.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 51 25/10/24 10:48

**26.** **“Bastakor” she’ridan bu kasb egasiga xos sifatlarni topib, ayting.**

- mehnatsevar
- bilimdon
- xushovoz
- izlanuvchan
- zukko
- intiluvchan

**27.** **Bastakorga xos yuqorida aniqlangan sifatlarni she’r matnidan topib, daftaringizga yozing.**

| Bastakorga xos xususiyatlar | She’riy parcha |
|---|---|
| *izlanuvchan* | O‘qish, o‘rganish kerak,<br>Charchash, o‘rtanish kerak. |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |

**Sifat** turkumidagi so‘zlar shaxs, narsa va joyning belgisini bildiradi. *Qanday?*, *qaysi?* kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi.

**Masalan:** *mohir* rassom, *yoqimli* musiqa, *qadimiy* Buxoro.

**28.** **Bulutcha ichidagi so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlang va jadvaldagi tartib asosida daftaringizga yozing.**

| Rang bildiruvchi | Ta’m bildiruvchi | Xususiyat bildiruvchi | Hajm-o‘lchov bildiruvchi |
|---|---|---|---|
| *** | *** | *** | *** |
| *** | *** | *** | *** |
| *** | *** | *** | *** |
| *** | *** | *** | *** |

sariq, sho‘r, baland, nordon, aqlli, uzun, jigarrang, ziyrak, shirin, past, oq, nodon, kichik, bug‘doyrang, taxir, malla, kamtar



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 52 25/10/24 10:48

**29.** **Rasmga qarang va belgi bildiruvchi so‘zlar qatorini davom ettiring.**



| shirin | olma |
|---|---|
| * * * | olma |
| * * * | olma |
| * * * | olma |
| * * * | olma |

**30.** **Berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib matnni to‘ldiring va daftaringizga yozing.**

Cho‘l-u biyobon. ..., ... sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan. Kuz fasli. Shamollar ..., ... esadi. ..., ... osmonda onda-sonda ... bulutlar asta kezadi. ... tog‘lar tumanda. Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go‘yo sahrolar, tog‘lar kezaman. Bulutlar ..., ranglar tinmay o‘zgaradi. “Tabiatning siri, ma’nosi...” deyman ichimda.

*Oybek*

yuksak | mayin | tiniq | keng | chuqur | ko‘m-ko‘k | yoqimli | ulug‘vor | yengil | rang-barang

**Berilgan jumlalardan foydalanib rasmlar asosida matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying. Matnda sifatlardan unumli foydalaning.**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 53 25/10/24 10:48

| | | |
|---|---|---|
| ko‘m-ko‘k o‘rmon | azim chinor | o‘rmon qiroli |
| o‘tkir tishli | bahaybat sher | iltijoli qarash |
| kichkina sichqon | mamnun termilmoq | yashirin tuzoq |

Uyingizda qaysi sopol idishlardan foydalaniladi?

**Kulolchilik san’ati haqidagi videoni tomosha qiling.** 2

**31. Quyidagi so‘zlarni izohi bilan moslab yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | qormoq | A | narsalarning tashqi ko‘rinishi |
| 2 | shakl | B | vorisga qoladigan mulk |
| 3 | mo‘jiza | D | kasb-hunar egasi |
| 4 | naqshinkor | E | maxsus loydan yasab, olovda qizdirib tayyorlanadigan mahsulot |
| 5 | meros | F | suyuq, mayda narsalarni bir-biriga aralashtirish |
| 6 | sopol | G | naqsh solingan, naqsh bilan bezatilgan |
| 7 | sulola | H | hayratga soladigan narsa |
| 8 | hunarmand | I | bir avloddan tarqalganlar |

**32. Videolavha asosida berilgan savollarga javob yozing.**

1. Kulol qanday buyumlarni yasaydi? * * *
2. Idishga shakl berish jarayonidan oldin va keyin qanday ishlar bajariladi? * * *



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 54 25/10/24 10:48

3 Otakasb deganda nimani tushunasiz? * * *

4 Qo‘l mehnati nima? * * *

**33. Tomosha qilgan videolavhangizga sarlavha toping. Videolavhani qismlarga ajrating. Mavzuga mos epigraf tanlang va matn yozing.**

**Sarlavha?**

1  * * *

2  * * *

3  * * *

4  * * *

5  * * *

**“Bizning teatr” loyihasida ishtirok eting. Loyihani tayyorlash uchun 3 bosqichdan iborat topshiriqlar ketma-ketligini bajarib borishingiz kerak.**



**1-bosqich:**

- guruhlarga bo‘lining;
- qaysi ertak yoki hikoyani sahnalashtirishingizni aniqlang, o‘qituvchingiz bilan maslahatlashing;
- guruhingizda ssenariy yozuvchi, rejissyor, bezakchi, bastakor, aktyorlar jamoasini shakllantiring va vazifalarni taqsimlab, bajarishga kirishing.

**Eslatma! Loyihada sinfdagi barcha o‘quvchilar ishtirok etishlari lozim. Loyiha so‘ngida spektakl namoyish etiladi.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 55 25/10/24 10:48

**34.** **33-topshiriq asosida yozgan matningizni partadoshingizniki bilan almashtiring va uni quyidagi mezonlar asosida baholang:**

| | |
|---|---|
| Matn qismlarga to‘g‘ri ajratilgan. | **1 ball** |
| Matnga to‘g‘ri sarlavha tanlangan. | **1 ball** |
| Tanlangan epigraf matn mazmuniga mos. | **1 ball** |
| Matnda imloviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| Matnda ishoraviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| **Jami:** | **5 ball** |

**35.** **To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab yozing.**


shahar samarqand hunarmant shakil xos jigar rang

shogird ustos naqish ishlav muhum sapol

**Sifatlar** *tub* (yasalmagan) va *yasama* kabi turlarga bo‘linadi.
**Masalan:** yashil (tub), iqtidorli (yasama).
*Yasama sifatlar* 2 xil usulda hosil qilinadi:
1. So‘zga qo‘shimcha qo‘shib: *oz + g‘in = ozg‘in; ser + suv = sersuv.*
2. So‘zga so‘z qo‘shib: *ko‘ngil + ochar = ko‘ngilochar; bug‘doy + rang = bug‘doyrang.*


Yasama sifatlar asosan qo‘shib yoziladi.

**36.** **Rasmda yashirilgan so‘zlarni toping. Daftaringizga xuddi shunday yasama so‘zlardan 10 ta yozing.**






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 56 25/10/24 10:48




**37.** **Matnni o‘qing. Tub va yasama sifatlarni aniqlab, yozing.**

Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko‘p bo‘lgan o‘rmon. Archa ham serob. O‘riklarning yaprog‘i qizil, qontalash. Xuddi birov ularning shoxiga bir satil qizil bo‘yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko‘zga shunday jozibali ko‘rinadiki, uzib yeging keladi.

*Shukur Xolmirzayev*

| Tub sifat | Yasama sifat |
|---|---|
| qizil | meva + li |

**38.** **Baxshichilikda foydalaniladigan cholg‘u asboblarining nomini ayting. Ularning oldidan belgi bildiruvchi so‘zlarni qo‘shib, so‘z birikmalari hosil qiling.**



**Diqqat, “Bizning teatr” loyihasi davom etadi!**



**2-bosqich:**

- spektakl uchun nom tanlang;
- nutqingizni yodlang;
- rol ijrosini mashq qilib boring;
- spektakl uchun belgilangan vaqtga rioya qiling.

**Eslatma! Spektakldagi rolingizga jiddiy tayyorlaning.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 57 25/10/24 10:48

**Diqqat, “Bizning teatr” loyihasi!**
**3-bosqich. Spektaklni namoyish qiling.**



**Spektakllardan olgan taassurotingizni yozib keling va sinfda o‘qib bering.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 58 25/10/24 10:49

# Bob yuzasidan takrorlash

**39. Paronim so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.**

adl / adil

1. Mahallamizga burilishdagi mana shu ... teraklarni ham juda sog‘ingan edim.


hiyla / xiyla

2. Qorni ... och bo‘lsa-da, akasining ra’yini qaytara olmadi.

kift / kaft  kift / kaft

3. Onangni ...da tutsang, singlingni ...da tut.

**40. San’at turlarini raqamlar bilan moslashtiring. Qanday o‘xshashlik va farqni sezdingiz? Ushbu san’at turlaridan biri haqida matn yozing.**



1

Rosa katta jonivor,
Favvoraday sochar suv.
Faqat bitta “ayb”i bor:
Sichqon ko‘rsa, qochar u.
*Dilshod Rajab*

2




3

| Haykaltaroshlik | Adabiyot | Rassomchilik |
|---|---|---|
| * * * | * * * | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 59 25/10/24 10:49

**41.** **Doira ichidagi so‘zlarni o‘qing. O‘ylab ko‘ring-chi, nima sababdan doiralarning bir qismi ajratilgan?**




**42.** **So‘zlarni jadvaldagi tartib asosida guruhlang. 4 ta so‘z ishtirokida 4 ta gap tuzing.**

sofdil, aqlli, shifobaxsh, ishchan, ko‘k, foydali, mayin, go‘zal, ertapishar, tezoqar, havorang, ishyoqmas, harakatchan, baland, kuzgi, past, katta

| Tub sifat | Yasama sifat | |
|---|---|---|
| | so‘z + qo‘shimcha | so‘z + so‘z |
| * * * | * * * | * * * |
| * * * | * * * | * * * |

**“San’at” bobida o‘rganilgan yangi so‘zlar hamda qoidalarni takrorlab keling.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 60 25/10/24 10:49

# BOLALAR O‘YINLARI



**1.** **Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.**



1. Rasmlarda qaysi o‘yinlar tasvirlangan?
2. Ushbu o‘yinlardan qaysilarini ham o‘g‘il, ham qiz bolalar o‘ynashadi?
3. O‘zingiz qanday o‘yinlarni o‘ynagansiz?

**Xalq o‘yinlari** nomi qo‘shtirnoqsiz, kichik harf bilan yoziladi.

**Masalan:** *Qizlar **bekinmachoq** o‘ynayapti. O‘g‘il bolalar esa **chillak** o‘ynashga tayyorlanmoqda.*

O‘yin uni o‘ynash chog‘ida aytiladigan so‘z va jumlalar bilan nomlangan bo‘lsa, qo‘shtirnoq ichida, birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

**Masalan:** *Menga “Kim oladi-ya shuginani-ya?” o‘yini yoqadi.*

**2.** **Rasmda ko‘rsatilgan o‘yinlar nomini imlo qoidalari asosida yozing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 62 25/10/24 10:49

**3.** **Jadvalni daftaringizga ko‘chiring. 1-topshiriqda ko‘rsatilgan o‘yinlardan 3 tasini birinchi ustunga yozing. Har bir o‘yin odamda qaysi xususiyatlarni tarbiyalashi haqida fikrlab, 2-, 3- va 4-ustunlardagi tegishli kataklarga “+” belgisini qo‘ying.**

Namuna *bekinmachoq – tezkorlik, zukkolik*

| O‘yin nomi | Epchillik, tezkorlik | Kuchlilik, baquvvatlik | Tafakkur, zukkolik |
|---|---|---|---|
| *** | *** | *** | *** |
| *** | *** | *** | *** |
| *** | *** | *** | *** |

**4.** **Quyida ikki xil holat berilgan. Zafar aka va Tohira qaysi o‘yinlarni bolalikdan o‘ynab yurgan bo‘lsa, ushbu holatlarda qiynalishmaydi?**



Zafar aka dam olish kunlari baliq oviga chiqadi. Bugun ham daryoga jo‘nadi. Daryo chetida turib suvga to‘r tashladi. Bu gal Zafar akaga omad kulib boqdi: to‘rga juda ko‘p baliq ilindi. Endi to‘rni suvdan tortib olish lozim.

Tug‘ilgan kunida Tohiraga kursdoshlari raqs avtomati sovg‘a qilishdi. Qurilma yoqilgach, undan musiqa taraladi va maxsus polchasida kataklar yonib-o‘cha boshlaydi. Yongan kataklarni bosib, musiqaga mos harakatlarni o‘rganib olish mumkin. Tohira qurilmani ishlatib ko‘rmoqchi.



**Yoshi katta qarindoshlaringiz (ota-onangiz, bobo-buvingiz) bilan bolalikdagi o‘yinlari haqida suhbatlashing. Shu o‘yinlardan biri haqida qisqa matn yozing. Matnda quyidagilar aks etsin:**

**1)** o‘yin nomi;
**2)** kimlar tomonidan o‘ynalishi;
**3)** qanday o‘ynalishi;
**4)** salomatlikka foydasi.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 63 25/10/24 10:49



Uy ishi uchun berilgan topshiriqni bajargan bo‘lsangiz, ayting-chi, ota-onangiz, bobo-buvilaringiz o‘ynagan, biroq sizga notanish bo‘lgan qanday o‘yinlar bor ekan?



## An’anaviy bolalar o‘yinlari

Bugun ko‘cha-ko‘yda to‘p tepayotgan, bir-biri bilan eshakmindi o‘ynayotgan bolalarni kam ko‘ramiz. Aksincha, qo‘lidagi telefonga muk tushib nimadir **ko‘rayotgan,** virtual o‘yinlarga andarmon bo‘lib, yon-atrofiga **befarq** bolalarni ko‘p uchratamiz. Bu bolalar 15–20 yillar avval o‘z aka-opalari o‘ynagan milliy o‘yinlarimizni bilarmikan?

**Lanka**

Milliy bolalar o‘yini va shu o‘yin anjomi nomi. Bu o‘yinning yana bir nomi – *qarabtep.* Lanka mol, qo‘y terisidan dumaloq kesib olinib, unga qo‘rg‘oshin yoki tangani ip bilan **mahkamlab** tayyorlanadi. Bu anjomni bolalar oyoqning ich yoki tashqi tomoni bilan yerga tushirmay kim ko‘p tepish bo‘yicha bellashadi.

**Jonkuyar**

Qizlar ikki tomonda turib olib, o‘rtadagi dugonasiga to‘p tekkizib, safdan chiqaradigan o‘yin. O‘rtaga chiqqan qiz dugonalari **otgan** koptokni yo **ilib olib** “jon” yig‘ishi, yo unga chap berishi kerak. Uloqtirilgan to‘p ilib olinmasa yoki tananing biror joyiga tegsa, yig‘ilgan “jon”lar kuyadi – bekor bo‘ladi va qiz o‘yindan chiqadi.

**To‘ptosh**

Danakdek toshchalarni bexato otib-ilib, marraga **to‘plashdan** iborat qizlar o‘yini. Bu o‘yinda toshchalardan birini otib, ikkinchisini epchillik bilan marraga surib qo‘yish kerak bo‘ladi. O‘zi otgan toshchani ilib olmagan qiz **galni** dugonasiga o‘tkazadi. O‘yin toshchalarni kimdir marraga yig‘ib bo‘lgunicha davom etadi.

**Quloqcho‘zma**

O‘g‘il bolalar o‘yini. O‘yinni bakovul – katta yoshli kishi boshqaradi. U ro‘molchaga pul yoki boshqa **sovrinni** tugib, yuqoriga otadi. Bolalardan biri epchillik bilan uni ilib oladi va qochib ketadi. Agar (marraga borgunicha) tengdoshlari unga yetib olsa, qulog‘idan cho‘zib, sovrinni berishga majbur qiladi.

**Xolakam**

Qiz bolalarning mehmon-mehmon o‘yini. Qo‘qon va uning atroflarida bu o‘yin *xolakam-xolakam* deb ataladi. Bu o‘yinda bir necha qizlar mehmon, bittasi mezbon **rolini** bajaradi.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 64 25/10/24 10:49

**Bekinmachoq**

Yashiringan bolalarni qidirib topishdan iborat o‘yin. Shunga o‘xshash o‘yin Farg‘ona vodiysida *yashintopaloq* deyiladi. *Yashintopaloq* kechqurun o‘ynalishi bilan *bekinmachoqdan* farq qiladi.

**Innana**

Uzun yog‘och yoki taxtani biror g‘o‘la ustiga muvozanatli o‘rnatib, ikki boshiga ikki kishi o‘tirib olib, navbat bilan ko‘tarilib-tushib o‘ynaladigan bolalar o‘yini va shunday moslamaning o‘zi.

**Paqpaq**

Bolalarning bir bo‘lak loyni piyola shakliga keltirib, **to‘ntarib** yerga urib paqillatish o‘yini. Qo‘qon taraflarda bu o‘yin *loyporsildoq* deyiladi.

**Eshakmindi**

Bunda to‘rtta to‘ptosh olinadi va ikki-uch metr masofadan chuqurchaga otiladi. Bitta toshi tushgan bola “eshak”, ikkita toshi tushgan bola “ot”, uchta toshi tushgan bola “vazir”, to‘rtta toshi tushgan bola “podshoh” bo‘ladi. Shunda “vazir” “eshak”ni, “podshoh” “ot”ni minadi. Hali to‘ptosh otmagan beshinchi bola esa o‘yinni **qayta** boshlaydi. Toshkentda shunga o‘xshash o‘yin *eshak-eshak* deyiladi. Jizzaxda bu o‘yin o‘n bir bola ishtirokida o‘ynaladi.

**Chillak**

Bitta uzun, bitta kalta tayoq bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yini. Chillak o‘yinida kerak bo‘ladigan ikki tayoqning kaltasi *chillakbola,* uzuni *chillakona* yoki *chillaksop* deyiladi. Chillakona va chillakbola tol shoxidan **tayyorlanmasa,** tezda sinib ketadi. Bu o‘yinda chuqurchada turgan chillakbolani chillaksop bilan urib marraga yetkazish talab etiladi. Marraga yetkazolmagan bolaga “nafas olmay zuvullab kelish”, “bir oyoqda sakrab kelish”, “qurbaqadek yurib kelish” kabi biror shart aytiladi.

*Yorqinjon Odilov*





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 65 25/10/24 10:49



**5. Matnda qo‘llangan so‘z va iboralarni izohi bilan daftaringizga yozib oling.**

| | | |
|---|---|---|
| **1** | muk tushib | boshini ko‘tarmay |
| **2** | virtual o‘yinlar | kompyuter o‘yinlari, videoo‘yinlar |
| **3** | andarmon bo‘lib | berilib |
| **4** | qo‘rg‘oshin | kulrang metall |
| **5** | muvozanatli | ikki tomoni teng holatda |



**6. Matn asosida quyidagi test topshiriqlarining to‘g‘ri javobini belgilang.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | Lanka, to‘ptosh va innana o‘yinlari uchun umumiy jihat qaysi qatorda keltirilgan? | **A** | Bu o‘yinlar doim ikki kishi tomonidan o‘ynaladi. |
| | | **B** | Bu o‘yinlar qo‘l bilan chaqqon harakatlanishni talab qiladi. |
| | | **D** | Bu o‘yinlar qizlarga xos bo‘lib, ularni o‘g‘il bolalar o‘ynamaydi. |
| | | **E** | Bu o‘yinlarning nomi ulardagi anjom, moslamadan olingan. |
| **2** | Qaysi qatordagi o‘yinlarni ham qiz, ham o‘g‘il bolalar o‘ynashi mumkin? | **A** | paqpaq, xolakam |
| | | **B** | innana, bekinmachoq |
| | | **D** | jonkuyar, quloqcho‘zma |
| | | **E** | lanka, to‘ptosh |
| **3** | Qaysi o‘yinni toq sondagi ishtirokchilar o‘ynaydi? | **A** | chillak |
| | | **B** | eshakmindi |
| | | **D** | innana |
| | | **E** | quloqcho‘zma |
| **4** | Qaysi o‘yinda ishtirokchilardan tez yugurish talab etiladi? | **A** | quloqcho‘zma |
| | | **B** | jonkuyar |
| | | **D** | chillak |
| | | **E** | to‘ptosh |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 66 25/10/24 10:49

**7.** **Matnda to‘q rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimini toping va yozing. Diqqat! Berilgan so‘zlardan 4 tasi ortiqcha.**

yasalmoq | tomosha qilmoq | ag‘darmoq | ushlab olmoq | ahamiyat

loqayd | dangasa | boshidan | mustahkamlamoq | navbat | yig‘ish

pishirmoq | vazifa | uloqtirmoq | mukofot | qiyo boqmoq

**8.** **Matn asosida fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

| | | |
|---|---|---|
| **to‘g‘ri** | Jonkuyar o‘yini nomidagi *kuyar* fe’li “bekor bo‘lar”, “ketar” ma’nosida kelgan. | **noto‘g‘ri** |
| **to‘g‘ri** | Ushbu o‘yinlar o‘tmishda bo‘lgan, bugungi bolalar esa ulardan hech birini o‘ynamaydi. | **noto‘g‘ri** |
| **to‘g‘ri** | Bekinmachoq o‘yinini bolalar kunduzi o‘ynaydi. | **noto‘g‘ri** |

**Matnda keltirilgan o‘yinlardan bir yoki bir nechtasini darsdan keyin sinfdoshlar, mahalladoshlar yoki oilangiz a’zolari bilan o‘ynab ko‘ring. Taassurotingizni daftarga yozing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 67 25/10/24 10:49

**9.** **“An’anaviy bolalar o‘yinlari” matni asosida rasmlardagi o‘yinlar nomini toping. Sizga rasmlarda tasvirlangan qaysi o‘yin ko‘proq yoqadi? Nima uchun?**






**10.** **“An’anaviy bolalar o‘yinlari” matnida keltirilgan o‘yinlardan qaysilari sizning shevangizda boshqacharoq nomlanadi? Misollar ayting.**

***Sheva so‘zlari*** ma’lum bir hududga xos bo‘lgan so‘zlardir.

**Masalan:** adabiy tildagi *narvon* so‘zi Farg‘ona vodiysida **shoti**, Xorazmda **zangi**; adabiy tildagi *chelak* so‘zi Buxoroda **satil**, Farg‘ona vodiysida **paqir** deb ishlatiladi.

Ayrim sheva so‘zlari adabiy tildagi so‘zning biroz o‘zgartirilgan holati bo‘lishi ham mumkin. **Masalan:** **baliq** (adabiy tilda) – **boliq** (Xorazm shevasida), **balu** (Toshkent shevasida).

Shevalarda nafaqat so‘zlar, balki qo‘shimchalar ham adabiy tildagidan farq qilishi mumkin. **Masalan:** **beryapti** (adabiy tilda) – **bervotti** (Toshkent shevasida), **beropti** (Buxoro shevasida), **berutti** (Namangan shevasida).



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 68 25/10/24 10:49

**11. Jadval bilan tanishib chiqing va uni daftaringizga ko‘chiring.**

| Adabiy tilda | Xorazm shevasida | Toshkent shevasida | Namangan shevasida | Buxoro shevasida |
|---|---|---|---|---|
| ona | opa | opa, oyi | aba | nana |
| ota | aka | ada | deda | dada |
| chumoli | qarinja | chumoli | chimaliq | mo‘rcha |
| olcha | chiya | olcha | olvali | gilos |
| kelyapti | galyatir | kevotti | kelutti | kelopti |
| kaltalatish (sochni) | kaltalatish | kaltalatish | parashlatish | taxlatish |

1. Berilgan oltita so‘z asosida xulosa qiling: qaysi sheva adabiy tilga nisbatan yaqinroq ekan?
2. Darsda, rasmiy uchrashuvlarda, televideniye va radioda adabiy tilda so‘zlash lozim. Bu holatlarda nima uchun shevada gapirmaslik kerak?

**12. 11-topshiriqdagi sheva so‘zlarini ikki guruhga quyidagicha bo‘lib yozing:**

1. Adabiy tildagi so‘zning biroz o‘zgargan ko‘rinishi.
2. Adabiy tildagi so‘zdan butkul farq qiluvchi shakl.

**13. O‘zbek tilining turli shevalariga xos gaplarni adabiy til me’yorlariga moslab yozing.**

1. Ovqatingdi jemaysamma?
2. Jo‘ropni ol-da, yerni shipir.
3. Dodam qattala, Boho, ko‘rmadinmi?
4. Tur, soat jettilar bo‘p qoldi.
5. Bir bor galing Xorazma.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 69 25/10/24 10:49

**Quyidagi latifa Toshkent shevasida berilgan. Uni adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda qayta ishlang va yozing. *D, b, k* tovushlari qachon o‘zgarishi, qanday holatlarda esa o‘zgarishsiz qolishi haqida xulosa qiling.**

Ertalap eshiy tegida o‘tirgan Apandidan o‘tip ketvotkan qo‘shnisi so‘rapti:
– Apandim, kechasi minnima hovlizda gupillap kettimi?
– Ha, – dipti Apandi, – kechasi tomda yotkandim, choponim chuship ketti.
– Choponam shunaqa gupillab chushadimi tomdan? – hayron bo‘p so‘rapti qo‘shnisi.
– Ichida o‘zimam boridim-de, – dipti Apandi kulip.

**14. “Tangalik bolalar” filmidan olingan videolavhani tomosha qiling va savollarga javob bering.**

3

1. Bu o‘yin nega “Kim oladi-ya shuginani-ya?” deb nomlanadi? “Shugina” nima degani?
2. Bu o‘yinda asosiy maqsad – yerdagi bosh kiyimini qo‘l harakatisiz olish. Lekin, guvohi bo‘ldikki, o‘yin qo‘shiq jo‘rligida o‘ynaladi. Ishtirokchilar raqs harakatlarini bajaradi, tomoshabinlar esa qarsak chalib turadi. Qo‘shiq, raqs va qarsak o‘yin uchun nega kerak deb o‘ylaysiz?
3. Videolavhada bosh kiyimini olishga ikki ishtirokchi harakat qildi: o‘smir yigit va bolakay. O‘smir yigit nega “shugina”ni ololmadi?

**15. Xatolarni to‘g‘rilang va matnni ko‘chiring.**

Bu o‘yinni bolalar va o‘smirlar o‘ynaydi. Dastlab o‘rtaga do‘ppi tashlanadi. Ishtirokchilar doyira bo‘lib, “Kim oladi-ya shugunani-ya?” dep do‘ppi atrofida aylanishadi. Bir ishtirokchi do‘ppi teppasiga kelip: “Men olaman-o shuginani-ya”, – dep



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 70 25/10/24 10:49

aylana boshlaydi. Atroftagilarning “ololmaysan” mazmunidagi so‘zlaridan keyin u qo‘lini orqaga qilib, engashib, do‘ppini tishlap olishga harakat qiladi. Ayrim xududlarda do‘ppini yerdan kiygan holatta ko‘tarish talab etiladi. Bu jarayonda qo‘ldan foydalanish va tizzani bukish qat’iyan taqiqlanadi.

Do‘ppini yerdan ololgan ishtirokchi g‘olip bo‘ladi.

**16. Videolavhaga tayanib quyidagi mulohazalarni asoslang.**

Keksa kishining kasbi – pochtachilik.

“Shugina”ni ololmagan o‘smir yigit o‘yindan oldin qishloq ishlari bilan mashg‘ul emas edi.

Voqealar yoz faslida ro‘y bermoqda.

**17. Videolavha asosida quyidagi jumlalarni to‘ldiring va yozing.**

- Bolakay “shugina”ni olish uchun egilganida yonidagi ishtirokchilar ham tizzalab oladi, chunki …
- “Kim oladi-ya shuginani-ya?” qo‘shig‘ini eshitganlar ishini tashlab, raqsga tusha boshlaydi, chunki …

**18. Videolavhadan olingan quyidagi so‘zlar o‘yinda ishtirokchi tomonidan aytiladi. Uning ruhiy holatiga baho bering. U maqtanyaptimi? Fikringizni asoslang.**

*Men olaman-o shuginani-ya,*
*Olaman-o shuginani-ya.*

**19. Videolavhadan olingan quyidagi so‘zlar “shugina”ni olishga chog‘langan ishtirokchiga qarata aytiladi. Aytuvchilarning maqsadini anglashga harakat qiling. So‘zlarni izohi bilan ko‘chiring.**

Ololmaysan-o shuginani-ya.
Botir bo‘lsang ham, o‘zingni ko‘rsat,
Shotir bo‘lsang ham, o‘zingni ko‘rsat.
Gajir bo‘lsang ham, o‘zingni ko‘rsat,
Epchil bo‘lsang ham, o‘zingni ko‘rsat.

Botir – qo‘rqmas.
Shotir – yugurdak, xizmatkor.
Gajir – o‘jar, qaysar.




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 71 25/10/24 10:49

**“Kim oladi-ya shuginani-ya?” o‘yini do‘ppini yerdan ko‘tarish bilan yakuniga yetishini bilib oldingiz. Siz do‘ppini yerdan ololmagan ishtirokchi uchun ‘‘jazolash’’ shartini kiriting. Masalan:**
**1. ‘‘O‘yinni o‘ylab o‘ynadim, o‘yinni o‘ynab o‘ynadim’’ tez aytishini bir nafasda 5–6 marta ayting.**
***2.* Bir xil harfdan boshlanuvchi 10 ta ism ayting.**

**20.** ***Lagori*** **boshqa millat bolalarining milliy o‘yinlaridan biridir. O‘yin jarayoni bilan videolavha orqali tanishing va savollarga javob bering.**

4

1. Lagori o‘yini qoidalari nimalardan iborat?
2. U qaysi millatga xos o‘yin? Buni qanday bildingiz?
3. Lagorini o‘ynash boladan nima talab etadi? Bu o‘yinni doimiy o‘ynab yurish kishida qanday xususiyatlarni rivojlantiradi?



Sanani qisqacha ifodalashda yil, kun, oyni bildiruvchi sonlardan so‘ng **nuqta** qo‘yiladi. Bunda bir xonali sonlar oldiga 0 raqami qo‘shiladi.

**Masalan:** *2012.09.11. (2012-yilning 9-noyabri).*

Soat, o‘yin hisobi kabilarni ifodalashda **ikki nuqta**dan foydalaniladi.

**Masalan:** *O‘rtoqlik o‘yini kecha 20:15 da boshlangan edi. Bizning jamoa 3:1 hisobida g‘alaba qozondi.*

Boshlanish va yakun oralig‘i (…dan …gacha)ni ifodalashda **tire** qo‘llanadi.

**Masalan:** *5–9-sinflar (5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinflar), 1441–1501-yillar (1441-yildan 1501-yilgacha).*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 72 25/10/24 10:49

**21.** **Videolavhani qayta (bu gal qismlarga bo‘lib) tomosha qiling. Quyidagi jadvalda bolalar o‘ynayotgan chog‘da ro‘y bergan ayrim holatlar keltirilgan. Har bir holatga namuna asosida o‘z munosabatingizni bildiring.**

Namuna

| Holat yuz bergan vaqt *(daqiqa va soniyalarda)* | Holat | Munosabat |
|---|---|---|
| 00:03 – 00:06 | Ishtirokchi koptokchani ikkinchi ishtirokchining qo‘liga bermay, yerga tashlab yubordi. | Bu yerda shim kiygan bola odobsizlik, hurmatsizlik qildi deb o‘ylayman. Chunki u dastlab koptokchani qo‘lga bermoqchidek harakat qildi, lekin o‘rtog‘i qo‘lini cho‘zganida yerga tashlab yubordi. |

| Holat yuz bergan vaqt *(daqiqa va soniyalarda)* | Holat | Munosabat |
|---|---|---|
| 00:07 – 00:17 | Yo‘l chetidan bir qiz o‘tmoqda… | *** |
| 00:21 – 00:24 | Sariq kalta shimli bola tosh otdi… | *** |
| 00:48 – 00:50 | Orqadan kimdir koptokchani otdi... | *** |
| 00:55 – 01:01 | Bolalardan biri uzoqlashib ketgan koptokchani ortga olib kelmoqchi… | *** |

**22.** **Quyidagi so‘zlar ishtirokida videolavha mavzusiga doir gaplar tuzing va yozing.**

Namuna

*Bolalar harakatdagi transport vositalariga xalal bermoqda.*

xalal bermoq | mo‘ljallamoq | bee’tibor

tutib kelmoq | oyoqyalang | ehtiyotsizlik



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 73 25/10/24 10:49

**23.** **Bo‘sh o‘rinlarga *d* va *t* harflaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

1. Velosipe... mingan bola toshlarni tepib yiqitdi.
2. Sari kiygan ayol bolalar o‘yiniga e’tibor qilmay o‘tib ket...i.
3. Bolalar jamoa... joyida o‘ynash qoidalariga zi... harakatlanardi.
4. Bunday hola... takrorlanmasligi uchun zarur chora-ta...birlarni ko‘rish kerak.

**Jamoat joyida o‘ynayotganda amal qilinishi kerak bo‘lgan qoidalar ro‘yxatini tuzing. Turli o‘yinlar paytida yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarga e’tibor qarating. Matnni *“O‘yin o‘ynash odobi”* deb nomlang va daftaringizga yozing.**




**24.** **Lagori o‘yini haqidagi videolavha asosida bo‘sh o‘rinlarga mos so‘zlarni qo‘ying va ko‘chiring.**

**1.** Lagori o‘yinida ... juda muhim.

kuchlilik | aniqlik | chopqirlik

**2.** Taxlangan toshlarni yiqitgan ishtirokchi ... .

jazolanadi | yutqizadi | g‘alaba qozonadi

**3.** Yo‘lovchi va haydovchilar bolalarning tartibni buzayotganiga ... .

befarq | achinyapti | toqat qila olmayapti



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 74 25/10/24 10:49



***Kesim*** va ***ega*** gapning bosh bo‘laklari sanaladi, chunki asosiy ma’lumot ular orqali beriladi.

**Masalan:** ***Tohirjon*** *kecha ukasi bilan teatrga* ***bordi***.

Bu gapda *“Tohirjonning borgani”* – asosiy ma’lumot; qachon, qayerga va kim bilan borgani esa ikkinchi darajali ma’lumot.

Kesim ko‘pincha gap oxirida keladi. Kesimga *kim?, nima?, qayer?* so‘roqlarini berib, ega topiladi.

**Masalan:** *Yaxshilik bir kuni albatta qaytadi.* Bu gapda *qaytadi* – kesim. Nima qaytadi? – Yaxshilik qaytadi. Demak, *yaxshilik* – ega.

Ba’zan gapda ega qatnashmasligi ham mumkin.

**Masalan:** *Ertaga jo‘naymiz.*



**25. Gaplar tarkibidagi asosiy ma’lumotni ifodalovchi so‘zlarni aniqlab, yozing.**

Namuna

Har qanday o‘yin ma’lum qoidalar asosida o‘ynaladi. – O‘yin o‘ynaladi.

- Lagorida ikkita muhim qoida bor.
- Ishtirokchilar xavfsizlik qoidalariga amal qilmayapti.
- Lagorini kamida ikki ishtirokchi o‘ynaydi.
- Transportni boshqarayotganlar yo‘ldan zo‘rg‘a o‘tyapti.



**26. Partadoshingiz bilan “Gapimni to‘ldir” o‘yinini o‘ynang.**

**O‘yin qoidasi:**

Siz faqat ega va kesimni yozasiz. Partadoshingiz unga ikkinchi darajali bo‘laklarni qo‘shib, gapni to‘ldirishi kerak. Masalan, siz *akam* va *keldi* so‘zlarini yozdingiz. Partadoshingiz uni “*Akam* ***universitetdan*** *keldi”, “****Kecha*** *akam keldi”, “Akam* ***do‘stlari bilan*** *keldi”* kabi ko‘rinishlarga keltiradi.

**Shu tarzda 3 tadan gap tuzing. To‘ldirilgan gaplarni yozing.**



**Ochiq joyda o‘ynash uchun yangi o‘yin o‘ylab toping. Uning qoidalarini matnda batafsil yoriting. Ega va kesimlarning ostiga chizing.**






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 75 25/10/24 10:49

**27. Rasmlarda tasvirlangan o‘yinlar nomini sinfdoshlaringiz bilan toping va daftarga namuna asosida yozing.**

Namuna

**1)** *krossvord;* **2)** *...*

1




2



3



4



5



6



7



8



9





1. Rasmlardagi o‘yinlardan qaysilarini o‘ynagansiz?
2. Qaysi o‘yin sizga umuman notanish?
3. Intellektual o‘yinlar deganda nimani tushunasiz? Ularning harakatli o‘yinlar (*bekinmachoq, lanka, kurash, jonkuyar, quloqcho‘zma*)dan qanday farqi bor?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 76 25/10/24 10:49

**28.** **27-topshiriqdagi rebusda *“ixtiro”* so‘zi yashiringan. Buni tasvir va ishoralar asosida topish mumkin. Dastlab “mix”dan “m”ni olib tashladik, chunki mix tasvirining chap tarafida bitta harfni olib tashlashga ishora – belgi bor. Demak, bizda *ix* hosil bo‘ldi. Keyin *“tish”*dan *“sh”*ni chiqarib tashladik: *ti;* yakunda “robot”dan so‘nggi uch harfni – “b”, “o”, “t”ni chiqardik: *ro.* Jamlasak, *“ixtiro”* so‘zi hosil bo‘ladi.**
**Shu asosda quyidagi rebuslarni yeching.**




***Qo‘sh undosh*** deganda yonma-yon kelgan bir xil undoshlar tushuniladi.
**Masalan:** *tayyor, achchiq, jiddiy.*
So‘z boshida yoki oxirida kelgan qo‘sh undoshlardan biri o‘qilmaydi.
**Masalan:** *ssenariy, metall, kilogramm.*
***Qator undoshlar*** deganda bir bo‘g‘inda yonma-yon kelgan har xil undoshlar tushuniladi.
**Masalan:** *go‘sht, bad-jahl, qarz-ga, trak-tor.*

**29.** **Rebuslar javobini – topilgan so‘zlarni daftaringizga yozing. Qo‘sh va qator undoshlarning ostiga chizing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 77 25/10/24 10:49

**30.** **Tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, she’riy parchalarni ko‘chiring.**

...amma yerda ba...tlaring sochiq,
Ba...orlardan go‘zallik yig‘...an.
Ba...t emasmi, ko‘zlaring ochiq?
Osmonga boq, ko‘k...a oy chiq...an!
*Erkin Vohidov*

Illat izlaganga illat...ir dunyo,
G‘urbat izlaganga g‘urbat...ir dunyo.
Kim neni izlasa, top...ay begumon,
...ikmat izlaganga ...ikmat...ir dunyo.
*Sadriddin Salim Buxoriy*

**Birida qo‘sh undosh, ikkinchisida qator undosh qatnashgan so‘zlarga rebus tuzing.**

99999

**RE**



1. “Zakovat” teleo‘yinini tomosha qilganmisiz? U qanday o‘yin?
2. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida “Zakovat” bo‘yicha respublika chempioni bo‘lish uchun bugundan nimalarga e’tibor qaratib borish kerak deb o‘ylaysiz?

## “Zakovat” intellektual o‘yini

“Zakovat” – yumaloq stol atrofidagi olti bilimdon va savol mualliflari o‘rtasidagi bahsga asoslangan intellektual o‘yin. Boshlovchi stoldagi pirildoq ko‘rsatkichi aniqlab bergan savolni o‘qiydi. **Bir** daqiqalik muhokamadan so‘ng bilimdonlar jamoasi o‘z javobini aytadi. Teleo‘yin tomonlardan biri **6** ochkoni qo‘lga kiritgunga qadar davom etadi.

“Zakovat” teleo‘yini **birinchi** bor **2001**-yilda namoyish etilgan. Ko‘rsatuv asoschisi va boshlovchisi – Abdurasul Abdullayev.

Biz televideniye orqali tomosha qiladigan o‘yin “Zakovat” oliy ligasi sanaladi.

Bundan tashqari, professional, birinchi, ikkinchi ligalar, shuningdek, o‘quvchilar, talabalar, ayollar ligalari ham mavjud. Bu ligalarda yil bo‘yi har hafta o‘yinlar tashkil qilinadi. Ushbu ligalardagi bahslar teleo‘yindan quyidagi jihatlariga ko‘ra farqlanadi:



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 78 25/10/24 10:49

1. Bilimdonlar jamoasi savol mualliflari bilan emas, balki boshqa jamoalar bilan bahs olib boradi.
2. Savollar soni **11 ta**dan ko‘p, masalan, **24 ta** yoki **36 ta** bo‘lishi mumkin.
3. Javoblar og‘zaki emas, yozma tarzda beriladi.

**2022**-yildan “Zakovat” aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylana boshladi. Respublikadagi barcha maktablarda “Zakovat” klubi tashkil qilindi. O‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, shifokorlar va mahallalar o‘rtasida yirik turnirlar o‘tkazila boshladi.

“Zakovat” jamoaviy ishlash, tez fikrlash, muammoning mohiyatini to‘g‘ri anglashga o‘rgatishi bilan boshqa aqliy o‘yinlardan farqlanib turadi. Savol mantig‘iga yetib olishning, birgalashib to‘g‘ri javobni topishning gashti, mazasi boshqacha. Birinchi raundda ortda qolib, keyin raqiblaringdan o‘zib ketishing… To‘g‘ri javobni **40 ta** jamoa ichida faqat sen topib qo‘yishing… Bu hisni faqat tuyish mumkin, ta’riflab bo‘lmaydi.

Bugun maktablar, universitetlar, turli tashkilotlar o‘z ichki “Zakovat”ini o‘tkazmoqda. Xalqimizda bu o‘yinga qiziqish kundan kun ortmoqda. Bir marta “Zakovat” o‘ynagan kishi hali o‘sishi, kitob varaqlashi kerakligini anglab yetadi. Mana shu – eng katta burilish. Zero, yoshlarda bilimga, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otish “Zakovat”ning asosiy maqsadlaridan biridir.






**31. Matn asosida test topshiriqlarining to‘g‘ri javobini belgilang. Savol va to‘g‘ri javoblarni daftaringizga yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | “Zakovat” teleo‘yini kamida va uzog‘i bilan necha raund davom etishi mumkin? | **A** | 6 raund, 11 raund |
| | | **B** | 11 raund, 13 raund |
| | | **D** | 7 raund, 13 raund |
| | | **E** | 9 raund, 12 raund |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 79 25/10/24 10:49

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Nima uchun teleo‘yindan boshqa liga bahslarida javoblar yozma tarzda beriladi? | A | jamoalar ko‘pligi va har birining javobini tinglashga ancha vaqt talab etilishi tufayli |
| | | B | qaysi jamoalarda to‘g‘ri, qaysilarida noto‘g‘ri javob bo‘lganini eslab qolish imkonsizligi bois |
| | | D | o‘ndan ortiq jamoaga ovoz kuchaytiruvchi vosita – mikrofon yetkazib berish muammosi tufayli |
| | | E | bir jamoa aytgan javobni qolgan jamoalar ham takrorlashi ehtimoli yuqoriligi uchun |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Matnda nimani anglash kishi uchun eng katta burilish ekani aytilgan? | A | o‘zining ko‘p narsaga qodirligini |
| | | B | jamoada munosib o‘rni borligini |
| | | D | ko‘p narsani bilmasligini |
| | | E | bu o‘yinni hamma ham o‘ynay olmasligini |

**32. Matn asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

| | | |
|---|---|---|
| to‘g‘ri | “Zakovat” professional ligasi “Zakovat” teleo‘yini ham deyiladi. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | 2022-yildan boshlab “Zakovat” aholining turli qatlamlari ichida ommalasha boshladi. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Birinchi va ikkinchi liga bahslari oliy ligadan aylana stolda 6 tadan ko‘proq kishi o‘tira olishi bilan farqlanadi. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | “Zakovat” teleo‘yinida topilgan har bir javob uchun 6 ochko beriladi. | noto‘g‘ri |

***Son so‘z turkumi*** deganda *beshta, o‘ntacha, yuzlab* kabi miqdorni, *birinchi, yigirmanchi* kabi tartibni bildiradigan so‘zlar tushuniladi.

***Miqdor sonlar*** aniq yoki noaniq miqdorni, shuningdek, jamni, taqsimni va kasrni ifodalay oladi.

**Masalan:** ***uchta*** *uzuk,* ***o‘n*** *dona quti (aniq miqdor);* ***beshtacha*** *bola,* ***o‘nlab*** *she’rlar,* ***o‘n ikki*** *litrcha sut (chama, noaniq miqdor);* ***uchalasi, beshovi, oltovlon*** *(jam);* ***o‘ntadan*** *olma (taqsim);* ***uchdan bir, yarim, chorak*** *(kasr).*

***Miqdor va tartib sonlar*** so‘z yoki raqamlar bilan ifodalanadi.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 80 25/10/24 10:49

**33. “Zakovat” intellektual o‘yini” matnidagi sonlarni miqdor yoki tartibni ifodalashiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozing.**

| Miqdor sonlar | Tartib sonlar |
|---|---|

**34. “Zakovat” intellektual o‘yini” matnidagi sonlar qanday yozilganiga e’tibor qarating. Ular asosida chiqarilgan hukmlar to‘g‘ri bo‘lishi uchun bo‘sh o‘rinlarga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.**

1. Son raqam(lar) orqali ifodalanganda -ta qo‘shimchasi ... yoziladi.

| songa qo‘shib | sondan ajratib | chiziqcha bilan |
|---|---|---|

2. Miqdor sonda -ta qo‘shimchasidan so‘ng -ga qo‘shimchasi kelsa, kelishik qo‘shimchasi ... yoziladi.

| qo‘shib | ajratib | chiziqcha bilan |
|---|---|---|

**Mantiqiy savolning javobini toping. O‘zingiz ham sinfdoshlar bilan “Zakovat” o‘ynash uchun shunday savol tuzing. Kartochkaning bir tomoniga savolni, orqa tomoniga esa ismingiz hamda to‘g‘ri javobni yozing.**

**SAVOL**

Biz uni qasrga o‘xshatishimiz mumkin. Bu qasrga hammamiz kirganmiz. Qasr oldida sizni alloma kutib oladi. Eshigiga o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotni yozasiz. Kirsangiz, ayrim qasrlarda yo‘llar tor, ayrimlarida kengroq, yana ayrimlarida esa panjarasimon bo‘ladi. Qasrning o‘rtasida ikkita qisqichbaqaga ko‘zingiz tushadi.

Diqqat, savol: biz nimani qasrga o‘xshatdik? Javobingizda 12 soni ishtirok etsin.




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 81 25/10/24 10:49

1. Gadjetlardan kuniga necha soat foydalanasiz? Qanday maqsadlarda?
2. Gadjetlardan internet yoniq holatda ko‘proq foydalanasizmi yoki o‘chiq holatda?

***Gadjet, qurilma*** – ishimizni oson, qulay qiluvchi smartfon, planshet, aqlli soat kabi ixcham texnik vositalar.

**35. So‘nggi yillarda 10–14 yoshli bolalar internetdan nima maqsadda foydalanayotgani haqidagi infografika bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.**






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 82 25/10/24 10:49



1. Infografikada nega ayrim raqamlar yashilda, ayrimlari qizilda berilgan?
2. Infografikada qo‘llangan % belgisi nimani anglatadi?
3. Ushbu statistik ma’lumot quyida keltirilgan qaysi holatga aloqador?

**1-holat**

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarining internetdan nima maqsadda foydalanishi statistikasini tuzmoqchi bo‘ldi. O‘quvchilarga yuzlanib: “Internetdan o‘yin o‘ynash maqsadida foydalanib turadiganlar, qo‘lingizni ko‘taring”, – dedi. Ko‘tarilgan qo‘llarni sanab, yondaftarchasiga belgilab qo‘ydi. Shu tarzda yana 5 marta ma’lumot oldi.

**2-holat**

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarining internetdan asosan nima maqsadda foydalanishi statistikasini tuzmoqchi bo‘ldi. O‘quvchilarga yuzlanib: “Internetda o‘tkazadigan vaqtining eng ko‘p qismini o‘yin o‘ynashga sarflaydiganlar, qo‘lingizni ko‘taring”, – dedi. Ko‘tarilgan qo‘llarni sanab, yondaftarchasiga belgilab qo‘ydi. Shu tarzda yana 5 marta ma’lumot oldi.



***Foizni*** ifodalashda ***%*** belgisidan yoki ***foiz*** so‘zidan foydalaniladi. Bunda % belgisi o‘zidan oldingi songa qo‘shib yoziladi, keyingi qo‘shimchadan esa ajratiladi.

**Masalan:** *25%, 25% iga, 25% dan.*



**36. Statistik ma’lumotdan foydalanib o‘g‘il yoki qiz bolalarning mashg‘ulotini vaqt sarfi kamayishi tartibida, namuna asosida yozing.**

**Namuna**

| *O‘g‘il bolalar:* | *Qiz bolalar:* |
|---|---|
| **1)** o‘yinlar; | **1)** suhbatlar; |
| **2)** … . | **2)** … . |

qiziqarli videolar

kino, musiqa

yangiliklar | o‘yinlar | ta’lim | suhbatlar




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 83 25/10/24 10:49

**37. Infografika asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

| | | |
|---|---|---|
| to‘g‘ri | O‘g‘il bolalar ham, qizlar ham internetda eng ko‘p vaqtini o‘yinga sarflaydi. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Qizlarning ta’lim olish maqsadida internetdan foydalanish foizi yuqoriroq. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | O‘g‘il va qiz bolalarning ko‘ngilochar videoroliklarni ko‘rish bo‘yicha ko‘rsatkichlari deyarli teng. | noto‘g‘ri |

**35-topshiriqdagi infografika asosida matn tuzing. Gaplar tarkibidagi kesim va egani aniqlab, ostiga chizing.**

Qaysi o‘yinlarni haqiqiy hayotda ham, virtual tarzda (gadjetlar orqali) ham o‘ynash mumkin? Siz uchun qay biri ma’qul?











37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 84 25/10/24 10:49

**Matnlarni o‘qing.**

**1** 2007-yilda norvegiyalik 12 yoshli Hans Yorgen Olsen singlisi bilan o‘rmon kezayotganida shoxdor bug‘uga duch keladi. Shunda Hans baqirib, imo-ishoralar orqali hayvonni o‘ziga ergashtiradi. Singlisidan biroz uzoqlashgach, atayin yiqiladi va o‘zini jonsiz ko‘rsatib yotaveradi. Bu ish beradi: bug‘u uni hidlaydi va ketadi. Hans bu usulni “World of Warcraft” o‘yinidan o‘rgangan edi.

**2** Ayrim xorij maktablarida “Minecraft” o‘yinidan o‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatishda foydalanishadi. Cheksiz imkoniyatlar olami bo‘lmish “Minecraft” bolaga o‘z mantig‘i va tasavvuri bilan oddiy buyumlardan tortib o‘z dunyosini qurishgacha o‘rgatadi.

**3** Mutaxassislarning fikricha, bolalarning kompyuter o‘yinlariga berilib ketishi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: **1)** o‘yinga qaramlik; **2)** odamovilik; **3)** jahldorlik; **4)** to‘yib uxlamaslik natijasida kelib chiqadigan kasalliklar; **5)** ko‘rish qobiliyatining pasayishi; **6)** bosh va bel og‘rig‘i; **7)** asabiylik.

**38. Matnda qo‘llangan quyidagi so‘z va birikmalarni o‘ng tomondagi izohlar bilan moslab yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | istiqomat qilmoq | **A** | bilib turib, qandaydir maqsadda |
| **2** | kezmoq | **B** | o‘yin o‘ynamasa, tura olmaslik |
| **3** | atayin | **D** | tez jahli chiqmoq |
| **4** | o‘yinga qaramlik | **E** | odamlardan o‘zini olib qochish |
| **5** | odamovilik | **F** | yashamoq |
| **6** | asabiylik | **G** | aylanib yurmoq |

1. Matnlar asosida qanday xulosaga keldingiz: kompyuter o‘yinlari foydalimi yoki zararli?
2. Sinfingizda kim virtual o‘yinlarni ko‘proq o‘ynaydi? Unda 3-matnda sanalgan salbiy oqibatlardan birortasi bormi?
3. Siz ham maktabingizda kompyuter o‘yinlaridan to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanilishini xohlaysizmi? Nima uchun?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 85 25/10/24 10:49

***O‘lchov so‘zlari*** vazn, hajm, uzunlik kabi turli miqdorlarni o‘lchashga xizmat qiladigan birliklardir.

**Masalan:** *uch **gramm** tuz, to‘rt **litr** sut, 3 **metr** masofa, 4 **soat** muhlat.*

Asl vazifasi o‘lchash emas, lekin sonlar bilan kelib, shu vazifani bajaradigan so‘zlar ham bor: *qoshiq, chelak, quti, og‘iz, qop, uy, qadam…* Bu kabi o‘lchov so‘zlari doim ham bir xil miqdorni anglatavermaydi.

**Masalan:** *uch **qoshiq** tuz, o‘n **qadam** masofa, bir **uy** odam.*

O‘lchov so‘zlari ***hisob so‘zlari*** ham deyiladi.

**39. Bo‘sh o‘rinlarga** *qultum, changal, qarich, uy, kosa, siqim, quloch, nafar* **so‘zlaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

1. Yurtim, bir ... yeringni-da, bir ... tuprog‘ingni-da o‘zgaga bermam.
2. Qaqroq cho‘lda bir piyola tugul, bir ... suvga ham zor edik.
3. Besh lagan osh ikki ... odamga kamlik qilsa keragov.
4. Devor o‘lgur ham qalin ekan: naq ikki ... keladi-ya.

**Shaxmat o‘yiniga doir oltita ma’lumot toping va ular asosida matn tuzing. Matnda *daqiqa, gramm, santimetr* kabi o‘lchov so‘zlari ishtirok etsin.**

**40. Quyidagi rasmlar asosida qisqa hikoya tuzing va yozing. Qahramonlarga ism, hikoyaga nom tanlang.**

***Hikoyangizda ushbu so‘zlar ham ishtirok etsin:*** *yolg‘iz, ikkinchi, innana, urinmoq, arra, bermoq.*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 86 25/10/24 10:49



**41.** **Xatolarni to‘g‘rilang va ko‘chiring.**

| | | |
|---|---|---|
| komiksning 4-qisimi | II ta maymun | XII-asr |
| 5 “A”-sinf | III-V asrlar | 5-8-sinflar |

**42.** **Komiks nima haqida? Unga qanday nom taklif qilasiz?**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 87 25/10/24 10:49

# Bob yuzasidan takrorlash

**43. O‘yin nomlarining qaysi shakli to‘g‘ri? To‘g‘rilarini ko‘chiring.**

| | | |
|---|---|---|
| bekinmachoq<br>Bekinmachoq<br>“Bekinmachoq” | Kim oladi-ya shuginani-ya?<br>“Kim oladi-ya shuginani-ya?”<br>“Kim oladiya shuginaniya?” | jon-kuyar<br>jonkuyar<br>“Jonkuyar” |
| to‘p tosh<br>to‘ptosh<br>“To‘ptosh” | Oq terakmi, ko‘k terak?<br>“Oq terakmi, ko‘k terak?”<br>“Oq terak-mi, ko‘k terak?” | quloq-cho‘zma<br>quloqcho‘zma<br>“Quloqcho‘zma” |

**44. Keltirilgan qoidalar qaysi o‘yinga xos ekanini aniqlang.**

| | |
|---|---|
| Yutqizgan bola ortiga, nafas olmay, zuvullab qaytishi kerak. | *** |
| Ishtirokchi tizzasini bukmasligi kerak. | *** |
| Qo‘llarni uzib o‘tolmasa, raqib jamoa a’zosiga aylanadi. | *** |
| Sovrinni marraga olib borguncha raqiblariga chap berishi kerak. | *** |

**45. Sheva so‘zlari va ularning adabiy tildagi muqobilini moslang. Daftaringizga namunadagi kabi yozing.**

Namuna *satil – chelak, …*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 88 25/10/24 10:49

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | satil | A | tuxum |
| 2 | yumirta | B | narvon |
| 3 | jilon | D | supurgi |
| 4 | pishak | E | chelak |
| 5 | zangi | F | mushuk |
| 6 | jo‘rob | G | ilon |

**46.** **Bo‘sh o‘rinlarga berilgan so‘zlardan mosini qo‘ying.**

***Foydalanish uchun so‘zlar:*** *oltinchi, uchinchi, quloch, qism, o‘nta, besh-oltita, yettita, sakkiztadan.*

**Diqqat! Uchta so‘z ortiqcha.**

1. Ko‘cha boshida ... bola (nechtaligini aniq bilolmadim) gaplashib turgan edi.
2. Har birimizga ... tegdi. Yoki senga kamroq berildimi?
3. Bugungisini hisoblaganda oldingizga ... kelishim. Oldin ham ikki bor kelgandim.
4. Katta o‘g‘li ... sinfda o‘qiydi-yu, lekin ko‘rganlar talabami deydi.
5. Daraxtning qalinligi naq olti ... kelar ekan.

**47.** **So‘z va so‘z birikmalaridagi xatoni to‘g‘rilab ko‘chiring.**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| yugirib | zuvillab | muk tushub | gram | duppi |
| senariy | bajjahl | go‘sh | topkach | oy chiqgan |
| ko‘rsatgich | marifiy | xolat | varog‘i | extiyoj |
| kundan-kun | andarmon bo‘lip | o‘nbeshtadan | | |

**“Bolalar o‘yinlari” bobida o‘rganilgan matnlar, yangi so‘zlar hamda qoidalarni takrorlab keling.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 89 25/10/24 10:49

# ORZU VA IMKON



**1. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.**



1. Rasmdagi bola nimalarni orzu qilmoqda?
2. Orzularingiz haqida gapirib bering.
3. Orzularingizga yetishish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor? Ulardan qay darajada foydalana olyapsiz?

**2. Hikmatli so‘zlar bilan tanishing va mazmunini tahlil qiling.**

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat.

*Jaloliddin Rumiy*

Orzu qila oldingizmi, demak, qo‘lingizdan keladi.

*Uolt Disney*

Butun umringiz davomida orzungizga intiling va vaqtingizni behuda sarflamang. Chunki havoga uchgan vaqt sizdagi barcha yaxshi narsalarni tortib oladi.

*Aflotun*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 91 25/10/24 10:49

**3. Iboralarni izohlari bilan moslashtirib yozing. Izohi berilmaganlarini o‘zingiz izohlang.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | temirni qizig‘ida bosmoq | **A** | eplamoq, eplab bajarmoq |
| **2** | uddasidan chiqmoq | **B** | har ishni abjirlik bilan bajarmoq |
| **3** | yulduzni benarvon urmoq | **D** | muvaffaqiyatli bo‘lmoq |
| **4** | ishi o‘ngidan kelmoq | **E** | biror ishni bajarishga kirishmoq |
| **5** | bel bog‘lamoq | **F** | biror ishni ayni vaqtida qilmoq |
| **6** | ro‘yobga chiqarmoq | **G** | ... |
| **7** | jonini jabborga bermoq | **H** | ... |

**4. Yuqorida berilgan iboralar yordamida “Orzu va imkon” mavzusi doirasida gaplar tuzing.**

Namuna

*Orzularingiz tezroq ro‘yobga chiqishini istasangiz, vaqtdan unumli foydalaning.*

**Yaqinlaringiz bilan orzu va uning ro‘yobi mavzusida suhbatlashing. Suhbat mazmunini qisqa shaklda daftaringizga yozib oling. Suhbatdoshingizga quyidagi savollar bilan murojaat qilishingiz mumkin:**

1. Yoshligingizda qanday orzungiz bo‘lgan?
2. Orzungizni amalga oshirish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor edi? Buning uchun qanchalik harakat qilgansiz?
3. Orzuning maqsadga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?
4. Yoshligingizga qaytib qolsangiz, yana nimalarni orzu qilgan bo‘lar edingiz?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 92 25/10/24 10:49

Oila a’zolaringizdan kimlar yondaftar ishlatadi? Unga nimalar yozib boriladi?

## Yondaftarning yordami



Aziz do‘stim, hech yondaftar tutganmisiz?! Yo‘q, deysizmi? O‘ylaymanki, bugungi suhbatimizdan keyin shunday qilasiz. Chunki hozir sizga yondaftar tutish kishiga qanchalik asqatishini tushuntirib beraman.

Men ancha yillardan beri yondaftar tutaman. Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo‘yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman. Mabodo chala ishlarim bo‘lsa, ularni, albatta, boshqa kungi rejamga qo‘shaman. Muhimi, yondaftar xotirani mustahkamlaydi. Yozib qo‘yilgan narsaga qarasa, xotira rivojlanadimi, deysizmi? Yo‘q, lekin yozayotganimda ular miyamga o‘rnashadi. Shunchalik mustahkam o‘rnashadiki, ba’zan ertasi kuni yondaftarimga qarashga hojat qolmaydi.

Yondaftar tutishni boshlagach, o‘zingizda ijobiy o‘zgarishlar sezasiz. Ilgari to‘planib ketadigan muammolaringiz tartib bilan hal bo‘laveradi. Chunki siz hammasini yondaftaringizga sanasi va vaqti bilan yozib qo‘ygansiz-da! Yondaftaringizga vazifalarni aniq vaqti, muhimligiga qarab ketma-ketlikda biting. Shunda ishingiz barakali bo‘ladi. To‘g‘ri, qandaydir tasodifiy vaziyatlar hisobiga kuningiz rejadagidan farqliroq bo‘lishi tabiiy. Lekin, muhimi, siz palapartish kunlardagidan ko‘ra ko‘proq natijaga erishasiz.

Qadrdonim, xohlasangiz, kundaligingizdagi ishlarni darajalab, muhimlarini qizil rangda ajratib yozing, tagiga chizing, ulardan keyingilarini esa kuningizning bo‘sh qolayotgan qismiga joylashtiring. Istasangiz, har bir sananing tagiga sizni ruhlantiradigan, olg‘a undaydigan jumlalarni yozib qo‘ying. Ularning ham kayfiyatingiz, ham ish unumingizga ta’siri katta.




Bilasizmi, men yondaftar tutmagunimcha o‘qishda, to‘garaklarda, uy ishlari va hatto do‘stlarim bilan o‘ynashimda ham tartib bo‘lmagan. Bir ishni boshlasam, nuqul ikkinchisi xalal bergan, uchinchisi chala qolgan. Ammo yondaftar barchasini o‘zgartirdi. Men o‘z vaqtida



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 93 25/10/24 10:49

to‘garaklarga qatnashga, maktab darslarini bajarishga, uy ishlarini qilishga, har kuni 20–30 bet kitob o‘qishga, sevimli filmlarimni ko‘rishga, hatto o‘rtoqlarim bilan o‘ynashga ham imkon topdim. Natijada baholarim a’lo, ishim unumli bo‘ldi. O‘zimga ishonchim ortdi. Dangasalikdan qutuldim. A’lo bahoga o‘qib, akademik litseyga, keyin universitetga o‘qishga kirdim. Lekin hamon yondaftarim yonimda.

Ha, aytgancha, yondaftar xarid qilishda ko‘zingizga eng chiroyli ko‘ringanini oling. Har safar unga qaraganingizda ko‘zingiz quvnab, qo‘lga olgingiz kelaveradi. Keyinchalik u qadrdoningizga aylanganini sezmay qolasiz. Axir menda shu hol kuzatildi-da! Bugun erishayotgan yutuqlarim uchun chin do‘stga aylangan yondaftarimdan minnatdorman.

*Muhammadali Po‘latov*

**5. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini taxminan yozing va lug‘atdan tekshiring.**

| So‘zlar | Taxminim | Lug‘atda |
|---|---|---|
| asqatmoq | *** | *** |
| ruhlantirmoq | *** | *** |
| bitmoq | *** | *** |
| palapartish | *** | *** |
| unum | *** | *** |

1. Maqola muallifi kundalik ishlarni muhimligiga ko‘ra tartiblab yozishni tavsiya qilyapti. Siz kun tartibingizdagi qaysi ishlarni birinchi o‘ringa yozgan bo‘lar edingiz?
2. Yondaftar tutishning foydali jihatlari haqida gapiring.
3. Nima uchun matnda ko‘zga eng chiroyli ko‘ringan yondaftarni xarid qilish tavsiya etilmoqda?
4. Muallif ushbu matnni yaratishdan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 94 25/10/24 10:49



**6. Matn mazmuni asosida chiqarilgan xulosalarning qay biri to‘g‘ri ekanini aniqlang. Javoblaringizni izohlang.**

**1**

A. Maqola muallifi akademik litseyga kirganidan buyon yondaftar tutishni odat qilgan.
B. Maqola muallifi ancha yillardan beri yondaftar tutishni odat qilgan.

**2**

A. Yozib qo‘yilgan narsaga qarasa, xotira mustahkamlanadi.
B. Ma’lumotlarni yozib qo‘yish xotirani mustahkamlaydi.

**3**

A. Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jumlani yozib qo‘yish ish unumi oshishiga yordam beradi.
B. Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jumlani yozib qo‘yish kunning tartibli o‘tishiga yordam beradi.

**4**

A. Yaxshi bahoga o‘qish, vaqtdan unumli foydalanish insonda o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishiga sabab bo‘ladi.
B. Yondaftar tutishni odat qilgan bolaning o‘ziga ishonchi boshqalarnikidan balandroq bo‘ladi.

**5**

A. Yillar o‘tishi bilan yondaftar o‘z egasining ishonchli do‘stiga aylanadi.
B. Yillar o‘tishi bilan yondaftar atrofingizda do‘stlar ko‘payishiga yordam beradi.



**7. Gaplar orasidan tavsiya mazmuniga ega bo‘lganlarini ajratib yozing.**

- Kun davomida bajarilishi kerak bo‘lgan barcha vazifalarni aniq vaqti bilan yozing.
- Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo‘yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman.
- Kun davomida bajarilishi rejalashtirilgan vazifalarni muhimligiga qarab ketma-ketlikda yozing.
- Kundalikdagi ishlarni darajalab, muhimlarini qizil rangda ajratib yozing.
- Mabodo chala ishlarim qolib ketsa, ularni keyingi kungi rejalarimga qo‘shaman.
- Har bir sananing tagiga insonni ruhlantiradigan jumlalarni yozib qo‘ying.
- Yondaftar xarid qilishda ko‘zingizga eng chiroyli ko‘ringanini oling.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 95 25/10/24 10:49

**8. 7-topshiriqdagi tavsiya mazmuniga ega bo‘lmagan gaplarni tavsiya mazmunidagi gapga aylantirib yozing.**

| | |
|---|---|
| Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib qo‘yaman, ertasiga kechqurun ularning qaysilarini bajarganimni belgilab chiqaman. | 1. Har kecha uyqudan oldin ertaga nimalar qilishingizni yondaftaringizga yozing.<br>2. ... . |
| *** | *** |

**Diqqat, loyiha!**
**“Orzular sari dadil qadamlar” mavzusidagi taqdimotga tayyorlaning. Taqdimotni tayyorlash uchun siz 8 bosqichdan iborat topshiriqlar ketma-ketligini bajarib borishingiz kerak.**
**1-bosqich. Orzularingiz ro‘yxatini yondaftaringizga namunadagidek yozing.**

Namuna

1. Kompyuter sotib olishni xohlayman.
2. Velosipedim bo‘lishini orzu qilaman.
3. Shifokor bo‘lishni maqsad qilganman.
4. ... .

**9. Quyidagi gapni berilgan so‘zlar bilan to‘ldirib yozing. Hosil qilgan gapingizni o‘qing. Gap tarkibiga kiritilgan bo‘laklar uning mazmuniga qanday ta’sir qilayotganini aniqlang.**

Men (ega) ... so‘zlab bermoqchiman (kesim).

| | | |
|---|---|---|
| o‘zimning (kimning?) | tanlovda (qayerda?) | ixtirom haqida (nima haqida?) |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 96 25/10/24 10:49

**Ikkinchi darajali bo‘laklar** bosh bo‘laklar ifodalagan fikrni to‘ldiradi, aniqlaydi va izohlaydi.

**Masalan:**

1. *Kutubxonamizda **qiziqarli** kitoblar ko‘p. (qanday kitoblar? – **qiziqarli** kitoblar)*
2. ***Akamning** rejalari birma-bir ish bera boshladi. (kimning rejalari? – **akamning** rejalari)*
3. *Menga sovg‘a qilgan **kitobingizni** bir kechada o‘qib chiqdim. (nimani o‘qib chiqdim? – kitobingizni o‘qib chiqdim)*
4. *Oybarchinning eng katta orzusi **bugun** amalga oshdi. (qachon amalga oshdi? – **bugun** amalga oshdi)*

**10. Ajratib ko‘rsatilgan bo‘lakning so‘rog‘ini aniqlang va daftaringizga namunadagidek yozing.**

| Gap | Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning so‘rog‘i | U va u bog‘lanib kelgan so‘z |
|---|---|---|
| **Har kecha** uyqudan oldin ertaga nimalar qilishimni yozib boraman. | qachon? | har kecha yozib boraman |
| Muhimi, yondaftar **xotirani** mustahkamlaydi. | *** | *** |
| Yondaftar tutishni boshlagach, o‘zingizda **ijobiy** o‘zgarishlar sezasiz. | *** | *** |
| Yondaftaringizga vazifalarni aniq vaqti, muhimligiga qarab **ketma-ketlikda** yozing. | *** | *** |
| Yozayotganimda ular **miyamga** o‘rnashadi. | *** | *** |
| **Dangasalikdan** qutuldim. | *** | *** |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 97 25/10/24 10:49

**11.** **Qavs ichidagi so‘roqqa javob bo‘luvchi bo‘lakni aniqlab, namunadagidek yozing.**

| Gap | So‘roqqa javob bo‘luvchi bo‘lak | U va u bog‘lanib kelgan so‘z |
|---|---|---|
| Men hozir sizga yondaftar tutish kishiga qanchalik asqatishini tushuntirib beraman. (kimga?) | sizga | sizga tushuntirib beraman |
| Ularning ham kayfiyatingiz, ham ish unumingizga ta’siri katta. (nimalarning?) | *** | *** |
| Xohlasangiz, kundaligingizdagi muhim ishlarni ajratib yozing, tagiga chizing. (qanday?) | *** | *** |
| Chala ishlarimni keyingi kundagi rejaga qo‘shaman. (nimaga?) | *** | *** |
| Kundaligingizdagi ishlarni darajalab yozing. (qay holda?) | *** | *** |
| Ko‘zingizga eng chiroyli ko‘ringan yondaftarni xarid qiling. (nimani?) | *** | *** |

**12.** **Gaplarni tegishli so‘roqqa javob bo‘luvchi hamda gap mazmuniga mos keluvchi bo‘laklar bilan to‘ldirib yozing.**

1. Orzu qilish – ... (nimani?) tasavvur qilish demakdir. (taqdirni / kelajakni / olamni)
2. Bolalar orzular olamining osmonida parvoz qilishni, ... (qayerda?) uchib yurishni yaxshi ko‘radilar. (xayolot dunyosida / balandlikda / tog‘-u toshlar orasida)
3. Maqsadlari sari intilgan ... (kimning?) orzulari birma-bir ushalib boraveradi. (o‘quvchining / odamning / ota-onaning)
4. Ilm olish va fan cho‘qqilarini zabt etish uchun ... (qancha?) kitob o‘qish kerak. (biroz / ko‘proq / ozgina)
5. Kundalik ishlarni rejalashtirib olish vaqtning ... (qanday?) taqsimlanishiga yordam beradi. (tez / to‘g‘ri / aniq)

**Diqqat, loyiha! “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi davom etadi.**
**2-bosqich.**
**Ayni damdagi eng muhim orzungizga yetishish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor? Yana qanday imkoniyatlardan foydalanishni istaysiz? Fikrlaringizni yondaftaringizga namunadagi kabi yozing.**

Namuna

“Yosh kitobxon” tanlovida g‘olib bo‘lish ayni damdagi eng muhim orzularimdan biridir.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 98 25/10/24 10:49

| Mendagi imkoniyatlar | Imkonim bo‘lganida... |
|---|---|
| Shaxsiy kutubxonamdagi kitoblarni o‘qib chiqish | Ro‘yxatda berilgan ayrim kitoblarni kitob do‘konlaridan sotib olish |
| Ba’zi asarlarni mutolaa qilish uchun maktab kutubxonasidan foydalanish | Kitob o‘qish uchun ko‘proq vaqt ajratish |
| *** | *** |

Alisher Navoiy haqida nimalarni bilasiz?

## Bola Alisher

*(qissadan parcha)*



To‘rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipcha gavdali bo‘lib, tuyg‘un ko‘zlarida teran aql ko‘rinar edi. Uning boshida taqya, ustida adras to‘n, oyoqlarida xiyol etik, holvani yeb turib, majlisni odob ila kuzatar edi.

– Otni yaxshi ko‘rarmisen, Alisherbek? – deya so‘radi kulumsirab sipohlardan biri.

– Ko‘p yaxshi ko‘rarmen, lekin … – dedi otasiga termila turib Alisher, – ot choptirishdan fikr yugurtirish yaxshiroqdir, chamamda.

Hamma hayratda qotib qolgan edi.

– Ofarin! – dedi keksa barlos. – O‘qiting o‘g‘lonni, mulla qiling! Ilmning cho‘qqisiga arziydi o‘g‘lingiz.

G‘iyosiddin Kichkinaning yuzi quvonchdan yorug‘lashib ketgan edi, ko‘zlarida tabassum-la javob berdi u:

– Niyatimiz xuddi shunday, o‘qitmoq orzu qilurmiz. Ziyrak bola, picha sho‘xligi bor...

– Bolaning sho‘xi yaxshi, zeroki fikri ham yugurik bo‘lur. Fikrning chaqnog‘i – ilmning chaqmog‘i, – dedi domla Murod.

Savdo ahlidan baqaloqqina bir kishi domla Murodga e’tiroz bilan g‘ulduradi:



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 99 25/10/24 10:49

– Ahli savdo safiga kirmoq – ulug‘ ish. Savdoning xislati ko‘p. Zeroki har narsaning davosi oltin, deydilar. O‘qiting o‘g‘ilni, bek, ammo zar qadrini ham o‘rgating!

Sipohlardan biri gurullab dedi:

– Eee, bahodirlikka ne yetsun! Jangchi bahodir bo‘lg‘ay o‘g‘lon! Kuchi bo‘lgan er yigit har narsaga yetgusidir. Egar-jabduq, o‘q-yoy bilimidan saboq bering, janob bek!

– Qani, jiyan, bir g‘azal o‘qib yubor, bilasan-ku, – dedi tog‘asi shoir Mirsaid Alisherni yelkasidan quchib.

Alisher otasiga o‘qisam maylimi deganday yalt etib qaradi.

– O‘qi, o‘g‘lim, o‘qi, ixlos bilan o‘qi! – dedi G‘iyosiddin uning yelkasiga qoqib.

Alisher oyoqlarini yig‘ib, darrov cho‘kka tushdi va tiniq tovush bilan muloyim ohangda she’r o‘qib ketdi:

*Ko‘kardi chaman, gul’uzorim qani?*
*Zihi sarvi bo‘yluq nigorim qani?*
*Topibdur bu kun vasli gul andalib,*
*Darig‘o, mening navbahorim qani?*

Majlis ahli maroq bilan jim quloq solurdi. Qizarib ketgan Alisher bir ongina sukut qilgach, dedi:

– Mavlono Lutfiy hazratlari aytmishlar bu she’rni. Men juda yoqtiramen, ota, siz ne deysiz? – so‘radi ixlos bilan otasiga termilib.

Otasi sevinganidan ixtiyorsiz ravishda qahqahlab kulib yubordi.

– Juda yaxshi, o‘g‘lim, menga ham ifrot ma’qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli, har nechuk madhga yarashuq bir shoirdirlar.

Majlis ahli zavq, maroq to‘lqinida, ajoyib hayratda edi.

*Oybek*



**13. Matnda qo‘llangan so‘zlarni izohi bilan alifbo tartibida daftaringizga yozib oling.**

| | | |
|---|---|---|
| **1** | xipcha | ingichka, nozikkina, kelishgan |
| **2** | taqya | sidirg‘a matodan tayyorlangan gulsiz do‘ppi |
| **3** | tuyg‘un | tez sezib, fahmlab, payqab oladigan, sezgir |
| **4** | sipoh | jangchi, askar |
| **5** | barlos | o‘zbek xalqi tarkibiga kiruvchi urug‘, qabila nomi |
| **6** | mulla | madrasa ta’limini olgan shaxs |
| **7** | ifrot | haddan ziyod |
| **8** | hassos | narsa, hodisaning mohiyatini tez va to‘g‘ri his qiluvchi, o‘tkir bilimli, sezgir |
| **9** | andalib | bulbul |
| **10** | sukut | jimlik, gapirmaslik |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 100 25/10/24 10:49



1. Parchada qanday vaziyat tasvirlanganiga e’tibor bering. Unda kimlar ishtirok etmoqda?
2. Alisherning otasi qanday inson bo‘lgani haqida gapiring. Fikringizni matndagi jumlalar yordamida asoslang.
3. G‘iyosiddin Kichkina o‘g‘lining kim bo‘lishini orzu qilar edi? Nima sababdan bunday xulosaga kelgan deb hisoblaysiz?
4. Majlis ahli Alisherning otasiga qanday maslahat berdi?
5. Majlis ahlining hayratga tushishiga nima sabab bo‘ldi?



**14. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni namunadagidek o‘zgartirib, gaplarni qayta yozing.**

| | |
|---|---|
| Otni yaxshi **ko‘rarmisen**, Alisherbek? | *Otni yaxshi ko‘rasanmi, Alisherbek?* |
| Eee, bahodirlikka **ne yetsun!** | *** |
| Jangchi bahodir **bo‘lg‘ay** o‘g‘lon! | *** |
| Majlis ahli maroq bilan jim **quloq solurdi.** | *** |
| Men juda **yoqtiramen,** ota, siz **ne deysiz**? | *** |
| Mavlono Lutfiy **nihoyat** hassos, nozik tafakkurli, har **nechuk madhga yarashuq** bir shoirdirlar. | *** |



**15. Ikkinchi ustundagi birikmalar asosida asar qahramonlarining fe’l-atvoriga xos so‘zlarni topib yozing.**

Alisher → majlisni odob bilan kuzatmoq → ***

(odobli, sergak, o‘ychan, xayolparast)

G‘iyosiddin Kichkina → yuzi quvonchdan yorug‘lashmoq → ***

(mamnun, kamtar, samimiy, aqlli)

Savdogar → e’tiroz bilan g‘ulduramoq → ***

(mahmadona, asabiy, befahm, norozi)

Sipoh → gurullab so‘zlamoq → ***

(shoshqaloq, xotirjam, beparvo, o‘ktam)



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 101 25/10/24 10:49

**Diqqat, loyiha! “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi davom etadi. 3-bosqich. Oila a’zolaringiz bilan birga orzungiz sari olib boruvchi reja tuzing. Uni yondaftaringizga yozing.**

Namuna

1. Har kuni ikki soat kitob mutolaasi bilan shug‘ullanish.
2. Kitobdagi eng muhim ma’lumotlarni qayd etib borish.
3. ... .

**16. Topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.**

**1. Matn mazmuniga ko‘ra Alisher o‘quvchilarda qanday bola sifatida taassurot qoldiradi? Bir nechta javobni belgilashingiz mumkin.**

- odobli;
- ziyrak;
- nozik tafakkurli;
- sho‘x;
- hassos.

**Javoblaringizni asoslovchi jumlalarni matndan aniqlab, yozing.**

**2. Muallif matnni yaratishda so‘zlarning eskirgan shakli *(yaxshi ko‘rarmisen, quloq solurmen)*dan foydalangan. Buning asosiy sababi to‘g‘ri izohlangan javobni aniqlang.**

A. o‘sha davr manzarasini yanada yaqqolroq aks ettirish
B. oldingi davrdagi insonlarga xos nutq haqida ma’lumot berish
D. asar qahramonlari bilan bir davrda yashaganini isbotlash
E. so‘zlarning tarixiy va hozirgi shakli o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 102 25/10/24 10:49

**3. Berilgan xulosalarning qaysilari yuqoridagi matnga mos keladi? Bir nechta javobni belgilashingiz mumkin.**

- Alisher Navoiy bolaligida zukko va ziyrak bo‘lgan.
- G‘iyosiddin Kichkina farzandi Alisherning savdogar bo‘lishini istagan.
- Lutfiy o‘z zamonasining o‘tkir bilimli, nozik tafakkurli shoirlaridan bo‘lgan.
- Alisher bolaligida bo‘sh vaqtlarini o‘q-yoy bilimidan saboq olishga sarflagan.
- Alisherning otasi o‘z davrining hurmatli kishilaridan biri bo‘lgan.
- Alisher Navoiyda Lutfiy ijodiga nisbatan katta qiziqish bo‘lgan.

**4. Alisher otasiga qanday munosabatda bo‘lganini aniqlang. Matndan fikringizga asos bo‘luvchi bitta jumlani topib yozing.**

A. qaysarlik bilan
B. kamtarlik bilan
D. mehribonlik bilan
E. hurmat bilan

**17. Jumlalar mazmuniga mos keluvchi hikmatli so‘zlarni davom ettirib yozing.**

| | |
|---|---|
| – Ko‘p yaxshi ko‘rarmen, lekin … – dedi otasiga termila turib Alisher, – ot choptirishdan fikr yugurtirish yaxshiroqdir, chamamda. | Fikr yugurtirish ot choptirishdan afzal. |
| Bolaning sho‘xi yaxshi, zeroki fikri ham yugurik bo‘lur. | Sho‘x bolaning fikrlari ham ... |
| – Fikrning chaqnog‘i – ilmning chaqmog‘i, – dedi domla Murod. | Fikrning chaqnog‘i – … |
| Kuchi bo‘lgan er yigit har narsaga yetgusidir. | Sog‘lom va kuchli er yigit ... |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 103 25/10/24 10:49

**18. Gaplarni tegishli so‘roqqa javob bo‘luvchi hamda gap mazmuniga mos keluvchi bo‘laklar bilan to‘ldirib yozing. Maqollar mazmunini tahlil qiling.**

1. Baxt *(kimga?)* begona. *(yalqovga / sergapga / xayolparastga)*
2. Birovning bergani – ko‘rgulik,
   *(Nimaning?)* bergani – to‘ygulik. *(kitobning / mehnatning / boylikning)*
3. Mehnat – *(kimning?)* gavhari. *(hammaning / bolaning / insonning)*
4. Ish seni yengmasin, sen *(nimani?)* yeng. *(ishni / kuchni / kibrni)*
5. Qush qanoti bilan tirik, odam – *(nima bilan?)*. *(kuchi bilan / mehnati bilan / aqli bilan)*

**19. “Bola Alisher” hikoyasida qo‘llangan she’r misralariga mos keluvchi jumla tuzib, yozing.**

| | | |
|---|---|---|
| Ko‘kardi chaman, gul’uzorim qani? | **1** | *** |
| Zihi sarvi bo‘yluq nigorim qani? | **2** | *** |
| Topibdur bu kun vasli gul andalib, | **3** | *** |
| Darig‘o, mening navbahorim qani? | **4** | *** |

| | |
|---|---|
| gul’uzor | go‘zal yuzli |
| zihi | qanday chiroyli, go‘zal |
| sarvi bo‘yluq | xushqomat, go‘zal qomatli |
| andalib | bulbul |
| darig‘o | afsus, attang |

**Diqqat, loyiha! “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi davom etadi.**
**4-bosqich. Oila a’zolaringizdan orzuga yetishish yo‘lida foydali bo‘ladigan 5 ta muhim tavsiya so‘rang. Ularni yondaftaringizga yozib oling.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 104 25/10/24 10:49

**20.** ***Taqya, sipoh, andalib, ifrot so‘zlari*** **qanday ma’nolarni ifodalashini yodga oling. Ular ifodalagan tushunchalarning qaysilari bugungi kunga ham tegishli?**

**Eskirgan so‘zlar** hozirgi kunda faol foydalanilmaydigan so‘zlardir.
Ular eskirish sababiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

**1. Tarixiy so‘zlar** – o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskirgan so‘zlar.
**Masalan:** mingboshi, sovut, botmon.

**2. Arxaik so‘zlar –** o‘z o‘rnini boshqa so‘zga bo‘shatib bergan so‘zlar.
**Masalan:** cherik (askar), oraz (yuz), tilmoch (tarjimon).

**21. Eskirgan so‘zlarni ajratib yozing.**

podshoh | uzor | amaldor | qilich | qadoq
hovuch | chelak | davlat | marosim | sulton
oqsoqol | dasturxon | shamshir | qozi

**22. Eskirgan so‘zlarning izohi bilan tanishing. Ularni tarixiy va arxaik so‘zlarga ajratib yozing.**

| | |
|---|---|
| ulus | el, xalq, xaloyiq, odamlar |
| qozi | hukm chiqaruvchi, sudya |
| o‘lpon | qadimda yerdan foydalanganlik uchun yig‘ilgan soliq turi |
| rasadxona | observatoriya |
| mudarris | madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o‘qituvchisi |
| sovut | jangda tanani o‘q, nayza va qilich zarbidan saqlash uchun temir yoki po‘latdan ishlangan harbiy kiyim |
| dubulg‘a | boshni tig‘ yoki o‘qdan saqlash uchun temir yoki po‘latdan ishlangan bosh kiyim |
| ziroat | dehqonchilik |
| suvoriy | otliq askar |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 105 25/10/24 10:49

| Tarixiy so‘zlar | Arxaik so‘zlar |
|---|---|
| *** | *** |

**23. Berilgan gaplardagi eskirgan so‘zlarni aniqlang. Izohlardan foydalanib eskirgan so‘zlar lug‘atini tuzing.**

1. Eshik sharaqlab ochilib, qilich yalang‘ochlagan ikki sipoh ko‘rindi.
2. Ular picha yurib, to‘rt-besh tanob joyni ishg‘ol etgan bedazorga chiqishdi.
3. Tarix muzeyida paranji, chachvon, charx hamda chig‘iriq ham bor ekan.
4. Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’lum.
5. Yana bir istagim shuki, falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot, jug‘rofiya, adabiyot ilmidan xabar topsagina, alloma deb tan olinsa.
6. Otasi devonxonadan kelib, dam olganidan so‘ng ba’zan kitob mutolaa qilar edi.

| | |
|---|---|
| **A** | ayollarning begonalarga ko‘rinmaslik uchun kiyib yuradigan bichimi keng, uzun to‘n shaklidagi ustki kiyimi |
| **B** | geometriya |
| **D** | qadimiy uzunlik o‘lchov birligi |
| **E** | astronomiya |
| **F** | jangchi, askar |
| **G** | paranji ichidan yuzga tutiladigan to‘r parda |
| **H** | daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi |
| **I** | geografiya |
| **J** | paxtani chigitdan ajratish uchun ishlatiladigan qadimgi qo‘l asbobi |
| **K** | matematika |
| **L** | qadimda Sharq musulmon mamlakatlaridagi bosh idoralar, shunday mahkama binolari |


**Lug‘at yordamida 21-topshiriqda ajratib olgan so‘zlaringizni izohlab keling.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 106 25/10/24 10:49

Biror istagingizni amalga oshirish yo‘lida to‘siqqa uchraganmisiz? Bu vaziyatdan qanday chiqib ketgansiz?

## Qanot qoqqan orzular



Nusratjon ustozidan “Yosh hunarmand” tanlovi haqida eshitdi-yu halovatini yo‘qotdi. Kimsan, mashhur kulol Sobir otaning nabirasi bo‘lsa-yu, tanlovda ishtirok etmasa, uyat bo‘ladi-ya. U tanlovda qatnashadigan bo‘ldi. Bobosi ikkovi loy pishitishdi, hushtaklar yasab, olovda quritishdi, rang berishdi. Tayyor hushtakchalarni avaylab qutiga, so‘ng xaltaga solishdi.

Birinchi soat tugagach, ustozi huzuriga oshiqdi. Shu payt uning oyoqlari chalishib ketdi. Gurs etib yiqildi, qo‘lidagi xaltasi ham zarb bilan yerga urildi. U ko‘zini ochganida yuqori sinfda o‘qiydigan Nig‘mat bezori tepasida turardi.

– Ko‘zingga qarab yursang bo‘lmaydimi? – dedi Nig‘mat tirjayib.

Nusratjon o‘rnidan turdi-da: “Hushtaklarimni sindirib qo‘yding!” – deya baqirib yigitga yopishdi. Nig‘mat hech narsaga tushunmagandek yelka qisdi va nari ketdi. Nusratjon xaltasini olib, hovliga chiqdi. Ust-boshini ham qoqmasdan qutichani ochdi. Hushtakchalar sinib ketgan edi. Ularga qarab yig‘lagisi keldi-yu, yig‘lolmadi. Biroz tikilib turdi-da, shudgorga borib ularni to‘kdi, ustiga tuproq tortdi.

– Nusratjon, tanlovda qatnashaman deb va’da berganding. Haligacha ishingni olib kelmading, – dedi Ravshan aka quruq qo‘l bilan xonaga xomush kirgan o‘quvchisiga qarab.

U indamadi. Bo‘lgan ishni biror o‘rtog‘i ko‘rganida ham ustozini ishontirgan bo‘lardi. Nig‘mat bezori deganlarining ustidan shikoyat ham qilmadi. Urishay desa, kuchi yetmaydi.

Bo‘lib o‘tgan voqea haqida bobosiga ham indamadi. Kechga tomon ustaxonadan hech kimga bildirmay xonasiga loy olib keldi. Hamma uyquga ketgach, ishga kirishdi. Loyni qo‘li bilan rosa pishitdi, bobosi o‘rgatganlarini takrorladi. Hushtakchalariga teshiklar qildi. Ko‘ngli to‘lmaganlarini buzib tashlab, qaytadan yasadi. Uch kecha shu ish bilan ovora bo‘ldi. Qolgan loylariga savatcha shaklini berib, olma, anor kabi “mevalar” bilan to‘ldirdi. Yasagan ishlarini bobosining shogirdi pishirib bergach, yaxshilab taroshladi-da,



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 107 25/10/24 10:49

bo‘yadi. Tayyor o‘yinchoqlarini qutichaga solar ekan, yuragidagi mitti orzularini avaylab terayotgandek edi.

– Ustoz, haligi, men ishlarimni olib keldim, – dedi Nusratjon o‘qituvchisining oldiga kelganida boshqa so‘z topolmay.

– Kechikdik, bugun tanlov boshlandi. Ishtirokchilar kecha ko‘rgazmalarini tayyorlab ketishgan. Men “O‘quvchim betob bo‘lib qoldi” degan xabar jo‘natdim. Endi darsga bor, – dedi Ravshan aka xotirjam ohangda.

Nusratjonning yuragi qalqib ketdi.

– Bobom mening yutug‘imni ko‘rmoqchilar. Ularga nima deyman? O‘z qo‘llarim bilan yasagandim, – deb qutini ustozining stoli ustiga qo‘ydi va sekin xonadan chiqdi. Uch kecha ishlab toliqmagan Nusratjon og‘ir charchoqni his qilib ortiga qaytar ekan, “Sobirov!” degan chaqiriqdan hushiga keldi.

– Sumkangni xonamda qoldir. Men mashinamda bo‘laman. Ulgurishimiz shart, – deya ustoz qutini ko‘targancha shoshib kelardi.

Ha, ular ulgurishdi. Ulgurganda ham tanlov zalining bir chekkasidan qimtinibgina joy olgan Nusratjon tanlov yakunida shohsupaning to‘riga ko‘tarildi. Nusratjon yasagan hushtak, savat va mevachalar qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Birinchi o‘rin Nusratjonga tegdi va keyingi bosqichga yo‘llanma oldi. U hamma qiyinchiliklarni butkul unutgan edi.

Ular maktabga kelganida darvoza oldida “Tez yordam” mashinasi turardi. Yuzi shilingan, bir oyog‘i taxtakachlab qo‘yilgan bezori Nig‘mat zambilda o‘tirardi: ikkinchi qavatning zinasidan tushayotib, oyog‘i toyib yiqilibdi.

*Hilola Hamdamova*



**24. Matndagi so‘zlarga mos keluvchi izohlarni topib yozing.**

| So‘zlar | | | Izohlar | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | pishitmoq | | A | haydalgan, chopilgan yer |
| 2 | shudgor | | B | yuk tashish vositasi |
| 3 | taroshlamoq | | D | musobaqalarda g‘olib ishtirokchilarni e’lon qilish uchun hosil qilingan balandlik |
| 4 | shohsupa | | E | ishlov bermoq, me’yoriga yetkazmoq |
| 5 | zambil | | F | silliq, tekis qilmoq |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 108 25/10/24 10:49



1. Nusratjonning tanlovda ishtirok etishiga nima sabab bo‘ldi?
2. Hushtaklarni yasashda Nusratjonga kim yordam berdi? Nima uchun?
3. Hushtaklari sinib qolgan Nusratjon qanday holatga tushdi?
4. Ustozi Nusratjonga tanlovda qatnashish uchun kechikkanini aytgan qismga e’tibor bering. Hikoya qahramoni bu holatda qanday his-tuyg‘ularni boshidan o‘tkazayotgan edi?
5. Nusratjonning tanlovda g‘olib bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlang.



**25. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan iboralar qanday ma’no ifodalayotganini yozing.**

Namuna

halovatini yo‘qotmoq – *tinchlik va xotirjamligini yo‘qotmoq*

1. Nusratjon ustozidan “Yosh hunarmand” tanlovi haqida eshitdi-yu **halovatini yo‘qotdi.**
2. Birinchi soat tugagach, ustozi **huzuriga oshiqdi.**
3. Nusratjonning **yuragi qalqib ketdi.**
   – Bobom mening yutug‘imni ko‘rmoqchilar. Ularga nima deyman?
4. Kechga tomon ustaxonadan hech kimga bildirmay xonasiga loy olib keldi. Hamma uyquga ketgach, **ishga kirishdi.**
5. Loyni qo‘li bilan rosa pishitdi, bobosi o‘rgatganlarini takrorladi. Hushtakchalariga teshiklar qildi. **Ko‘ngli to‘lmaganlarini** buzib tashlab, qaytadan yasadi.
6. Uch kecha ishlab toliqmagan Nusratjon og‘ir charchoqni his qilib ortiga qaytar ekan, “Sobirov!” degan chaqiriqdan **hushiga keldi.**



**26. Berilgan so‘zlarning qaysi biri gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila olishini aniqlang.**

**1.** Tayyor hushtakchalarni *avaylab* qutiga, so‘ng xaltaga solishdi.

ehtiyotlamoq | asramoq | yashirmoq

**2.** Bobosi ikkovi loy pishitishdi, hushtaklar *yasab*, olovda quritishdi, rang berishdi.

tayyorlamoq | hozirlamoq | shaylamoq

**3.** – Ko‘zingga qarab yursang bo‘lmaydimi? – dedi Nig‘mat *tirjayib*.

miyig‘ida kulmoq | jilmaymoq | hiringlamoq



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 109 25/10/24 10:49


**4.** Nig‘mat bezori deganlarining ustidan *shikoyat* ham qilmadi.

arz | hasrat | nola

**5.** Uch kecha shu ish bilan *ovora bo‘ldi*.

shug‘ullanmoq | sarson bo‘lmoq | urinmoq

**Diqqat, loyiha! “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi davom etadi. 5-bosqich. Bajarishingiz lozim bo‘lgan muhim vazifalarni rejalashtirib yozish uchun namunadagi kabi jadval chizing. Unga kunlik ishlaringizni yozib chiqing.**




27. **“Qanot qoqqan orzular” matni asosida berilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga yozing.**

**1. Hikoyada Nusratjonning oyog‘i chalishib, yiqilib tushgani haqida so‘z boradi. Ushbu voqeaning sababi izohlangan jumlani topib yozing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 110 25/10/24 10:50

**2. Ravshan aka Nusratjondan tanlovda qatnashish uchun tayyorlanib kelmaganining sababini so‘radi. Shunda u indamaslikni ma’qul ko‘rdi. Buning sababi to‘g‘ri izohlangan javobni aniqlang.**

A. Nusratjonning kayfiyati yo‘q edi, shuning uchun gapirmaslikni ma’qul ko‘rdi.
B. Chunki Nusratjon bo‘lgan voqeani aytib berib, ustozini ishontira olmayman deb hisobladi.
D. Agar Nusratjon ustoziga bo‘lgan voqeani aytib bersa, yig‘lab yuborishi mumkinligini o‘yladi.
E. Nusratjon ustoziga bo‘lgan voqeani aytmasdan, shunchaki narsalarni boshqatdan yasab kelmoqchi edi.

**3. Musobaqaga kechikkanini eshitgan Nusratjon birinchi navbatda nimadan xavotirga tushdi?**

A. Ustoziga bergan va’dasining ustidan chiqa olmaganidan.
B. Bezori Nig‘matga o‘zining qobiliyatini ko‘rsatib qo‘yish imkoniyatini boy berganidan.
D. Bobosining ishonchini oqlay olmaganidan.
E. Barcha qilgan mehnatlari zoye ketganidan.

**4. Muallif Nig‘matning zinadan yiqilib tushishi bilan bog‘liq holatni hikoyaga qanday maqsadda kiritgan?**

A. Yomon xulq-atvorli kishilar o‘z qilmishlariga jazo olishini ta’kidlash uchun.
B. Nig‘matning qilgan ishidan pushaymon bo‘lganini ta’kidlash uchun.
D. Nusratjon Nig‘matning ishidan xafa bo‘lganini ta’kidlash uchun.
E. Yaxshi va yomon xabarlar bir-birini quvib yurishini ta’kidlash uchun.



**28. Nusratjon va Nig‘matning xatti-harakatlariga mos keladigan maqollarni yozib oling.**

1. Bezoridan hamma bezor.
2. Beqo‘nimga qo‘nim yo‘q,
   Yomon odamga – o‘lim.
3. Birov tuzar, birov buzar.
4. Asilning xatosi bo‘lmas,
   Yomonning oshnasi bo‘lmas.
5. Birovga choh qazima, o‘zing tushasan.
6. Ari zahrin chekmagan bol qadrini bilmas.
7. Ahdi borning baxti bor.
8. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
   Odam – mehnati bilan.
9. Jon koyitmay, ish bitmas.
10. Intilgan elga yoqar.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 111 25/10/24 10:50



**29. Nusratjonga xos bo‘lgan sifatlarni yozing. Yozgan sifatlaringizni hikoyada keltirilgan ma’lumotlar yordamida asoslang.**

Namuna

Ijodkor – *Nusratjon loydan ko‘zni quvnatadigan narsalar yasay oladigan ijodkor shaxs.*



**30. Matnga asoslangan holda kulolchilik buyumlarini yasash bosqichlarini ketma-ketlikda yozing.**

qurigan buyumlarni taroshlash

buyumlarga rang berish

yasalgan buyumlarni olovda quritish

loyni pishitish

buyumni yasash



**Diqqat, loyiha! “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi davom etadi. 6-bosqich. 1–5-bosqichlarda bajarib kelgan topshiriqlaringiz asosida “Orzular sari dadil qadamlar” loyihasi uchun taqdimot tayyorlang.**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 112 25/10/24 10:50



“Qanot qoqqan orzular” matnida kelgan *dars, anor, stol, og‘ir, tanlov, ishtirokchi, shart, ustoz, ota, oyoq* so‘zlaridan qaysilarini bir satrdan ikkinchi satrga ko‘chirish mumkin?



So‘zlar bir qatorga sig‘may qolganida uning bir qismi **ko‘chirish qoidalari** asosida keyingi qatorga olib o‘tiladi. Ushbu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. So‘z bo‘g‘inga ajraladigan qismidan ko‘chiriladi.
   **Masalan:** *ta-sav-vur* (*ta-savvur* yoki *tasav-vur*).
2. So‘z boshidagi yoki oxiridagi unli yolg‘iz o‘zi yuqori satrda ham qoldirilmaydi, quyiga ham ko‘chirilmaydi.
   **Masalan:** *o-lima* emas, *oli-ma; mutola-a* emas, *muto-laa.*
3. Tutuq belgisi ko‘chirish chegarasida doim yuqori satrda qoladi.
   **Masalan:** *ma’-lum, ta’-lim.*
4. Sh, ch, ng harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi.
   **Masalan:** *ko-shona, pi-choq, de-ngiz, ko‘-ngil.*
5. *5-“A” sinf, 15-xonadon, 250 g, 12 cm, 10 mm, 18-yanvar* kabi birikmalar bir-biridan ajratilmaydi.
6. *A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev* kabilarda ism va otaismlar qisqartma shaklda berilgan bo‘lib, familiya ulardan ajratib ko‘chirilmaydi.



**31. Berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.**

Ba’zan, doimo, jur’at, omad, e’tibor, baxt, abadiy, matbaa, mard, diagramma, peshona, hunarmand, bezori, beozor, go‘sht, 5-“B” sinf, 17-may, jurnalist, saodat, eshik, oila.

| Bo‘g‘in ko‘chirilmaydi | Bo‘g‘in ko‘chiriladi |
|---|---|
| omad | jur’-at |



**32. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari buzilgan so‘zlarni aniqlang. Daftaringizga ularni tuzatib yozing.**

ma’-ri-fat, hu-km, sha-kl, qadr-don, e-lektr, a-tir, ari-za, e-shit-moq, be-o-dob, mu-oma-la, o-na-lar, o-lis, o‘r-oq, jon-boz, os-mon, i-zoh, komp-yu-ter, fo-no-gram-ma, mat-baa



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 113 25/10/24 10:50

**33.** **Sizningcha, qaysi qatordagi gaplar to‘g‘ri tuzilgan? Nima uchun?**

| | |
|---|---|
| 1. | *Feruza suxandonlik to‘garagiga qatnashadi. U teleboshlovchi bo‘lmoqchi.* |
| 2. | *To‘lqin musiqaga qiziqadi. To‘lqin ulg‘aygach, san’atkor bo‘lmoqchi.* |

**Olmoshlar** boshqa so‘z yoki gap o‘rnida almashib keladi, unga ishora qiladi.

**Masalan:** *Alisherning orzulari juda ko‘p.* ***U*** *kelajakda fazogir bo‘lmoqchi.* (**U** olmoshi **Alisher** o‘rnida qo‘llanmoqda)

*Bolalarning niyatlari* ***shu****: dunyoda tinchlik bo‘lsin.* (*Shu* olmoshi butun bir gapga ishora qilmoqda)

**Kishilik olmoshlari** (*men, sen, u, biz, siz, ular*)ning vazifasi shaxslarga ishora qilishdir.

**Masalan:** ***Men*** *shu yili 12 yoshga to‘laman.*

**So‘roq olmoshlari** so‘roqni bildiradigan barcha so‘zlardir: *kim?, nima?, qachon?, qayer?, qaysi?, qanday?, nega?, qancha?* va boshqalar.

**Masalan:** ***Kimlar*** *sayohatga chiqishni xohlaydi?*

**34.** **Gaplarni namunadagidek tahlil qiling.**

| Gap | Kishilik olmoshi | Kimga ishora qiladi? |
|---|---|---|
| U ko‘zini ochganida yuqori sinfda o‘qiydigan Nig‘mat bezori tepasida tirjayib turardi. | *U* | *Nusratjonga* |
| Men “O‘quvchim betob bo‘lib qoldi” degan xabar jo‘natdim. | *** | *** |
| Bobom mening yutug‘imni ko‘rmoqchilar. Ularga nima deyman? | *** | *** |
| Ular maktabga kelganida darvoza oldida “Tez yordam” mashinasi turardi. | *** | *** |
| U ikkinchi qavatning zinasidan tushayotib oyog‘i toyib yiqilibdi. | *** | *** |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 114 25/10/24 10:50

**35. Darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib yozing.**

Namuna

Nusratjon ustozidan “Yosh hunarmand” tanlovi haqida eshitdiyu halovatini yo‘qotdi. (kimdan?) – *Nusratjon “Yosh hunarmand” tanlovi haqida **kimdan** eshitdi?*

1. Nusratjon birinchi soat tugagach, ustozi huzuriga oshiqdi. (qachon?)
2. Nusratjon xaltasini olib hovliga chiqdi. (qayerga?)
3. Hushtakchalar sinib ketgan edi. (nimalar?)
4. Nusratjonning yuragi qalqib ketdi. (nima bo‘ldi?)
5. Nig‘mat ikkinchi qavatning zinasidan tushayotib oyog‘i toyib yiqilibdi. (nechanchi?)

**O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan kishilik va so‘roq olmoshlari ishtirok etgan gaplarga misollar topib, yozing.**

Orzularga yetishishga atrofdagilar qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

**36. Audiomatnning birinchi daqiqasini tinglang va savollarga javob bering.**

5



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 115 25/10/24 10:50



1. Qurbaqalar uyushtirgan musobaqaning sharti qanday edi?
2. Nima uchun tomoshabin qurbaqalar ishtirokchilarning g‘olib bo‘lishiga ishonmaslikni boshlashdi?
3. Tomoshabin qurbaqalarning bunday munosabati ishtirokchilarga qanday ta’sir qildi?
4. G‘olib qurbaqa musobaqa ishtirokchilari va tomoshabinlarning savoliga nima deb javob bergan bo‘lishi mumkin?

**37. Audiomatnni to‘liq tinglang. Undan qanday xulosa chiqarish mumkin? Xulosangizni jumlani davom ettirgan holda yozing.**

G‘olib bo‘lishni istasangiz, ... .

**38. Gaplardagi kishilik va so‘roq olmoshlarini aniqlang. So‘roq olmoshi ishtirok etgan gaplarga javob yozing.**

| Gaplar | Olmosh |
|---|---|
| Shartga ko‘ra g‘oliblik kimga nasib qilishi belgilangan edi? | *** |
| Qanday insonlar o‘z maqsadlariga erishadilar? | *** |
| Ular bu so‘zlarni eshitar ekanlar, marraga yetishlariga o‘zlari ham ishonmaslikni boshladilar. | *** |
| Hayrat ichida qolgan ishtirokchilar-u tomoshabinlar undan bu mushkul ishni qanday uddalaganini so‘rashga oshiqdilar. | *** |

**39. Gaplarni audiomatn mazmuniga mos ketma-ketlikda joylashtiring.**

| | |
|---|---|
| 1 | Tomoshaga kelgan ko‘plab qurbaqalar ishtirokchilarning hech biri shartni bajara olmasligini aytib bahs qilishardi. |
| 2 | Hayrat ichida qolgan ishtirokchilar g‘olib bo‘lgan qurbaqadan bu ishni qanday uddalagani haqida so‘radilar. |
| 3 | Kunlardan bir kuni qurbaqalar musobaqa uyushtirishibdi. |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 116 25/10/24 10:50

| | |
|---|---|
| **4** | Ishtirokchilarga tomoshabinlarning ishonchsizligi ta’sir etib, musobaqani bir-bir tark etishni boshlabdilar. |
| **5** | Birgina qurbaqa hech qanday gap-so‘zga e’tibor bermas, minoraga o‘jarlik bilan tirmashishda davom etardi. |
| **6** | Musobaqada baland minoraga birinchi bo‘lib chiqqan ishtirokchi g‘olib bo‘lishi aytilibdi. |
| **7** | G‘olibning bu holatidan bilibdilarki, u kar ekan. |
| **8** | Nihoyat birgina qurbaqa bu ishni uddalabdi. |
| **9** | Qissadan hissa shuki, hech qachon badgumon kimsalar umidlaringizni sindirishiga yo‘l qo‘ymang. Hamisha o‘zingizga va qalbingizga ishoning. |
| **10** | G‘olib hech narsani tushunmaganday hayron bo‘lib qarab turar edi. |

| **Kirish** | **Asosiy qism** | **Xulosa** |
|---|---|---|
| Qurbaqalar uyushtirgan musobaqa | Musobaqaning borishi | O‘zingga ishon – maqsadingga yet. |

**7-bosqich. “Orzular sari dadil qadamlar” mavzusidagi taqdimot uchun nutq tayyorlang.**

- Taqdimotni yaratishda qadam-baqadam berib borilgan topshiriqlardan foydalaning.
- Taqdimot vaqtidagi nutqingiz quyidagi mazmunda bo‘lishi lozim:

1. Kelajakdagi orzularingiz.
2. Ularga erishish yo‘lida qanday rejalaringiz bor?
3. Orzular sari intilishda amal qilish muhim bo‘lgan qoidalar.
4. Maqsadingizga yetishish uchun tuzgan haftalik rejangiz mazmuni.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 117 25/10/24 10:50



**40. “Orzular sari dadil qadamlar” mavzusidagi loyihangizni taqdim eting. Quyidagi qoidalarga rioya qiling.**

- Nutqingiz qisqa va aniq bo‘lishiga e’tibor bering.
- Nutqingizda uyga berilgan topshiriqda so‘ralgan barcha ma’lumotlarning keltirilganiga ahamiyat qarating.



**41. Sinfdoshingiz nutqini kuzating. Uning nutqiga munosabat bildirishda quyidagilarga e’tibor bering:**

- Taqdimotning sizga yoqqan ikki jihatini e’tirof eting.
- Qo‘yilgan talablarga rioya etilganiga e’tibor qarating.
- Nutqida qanday kamchiliklar kuzatilgani haqida gapiring.
- Qaysi kishilik olmoshlaridan foydalanilganiga diqqat qiling.



**Sinfdoshlaringiz taqdimoti orqali orzularga yetishish uchun qanday yangi tavsiyalar bilan tanishdingiz? Eslab qolish uchun ularni yondaftaringizga yozib oling.**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 118 25/10/24 10:50

**42. Maqollar bilan tanishing. Ulardan qanday mavzudagi matnlarni boyitishda foydalanish mumkin?**

| | |
|---|---|
| Vataning tinch – sen tinch. | Ko‘pdan quyon qochib qutulmas. |
| Tikansiz gul bo‘lmas,<br>Mashaqqatsiz – hunar. | Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,<br>Odam mehnati bilan. |

Maqollar fikrni boyitish, dalillash hamda uning ta’sirchanligini oshirishga yordam beradi. Ular matnga asosan ko‘chirma gap shaklida kiritiladi.

**Masalan:**

*Ota-bobolarimiz bejiz: “Qari bilganni pari bilmas”, – deyishmaydi.*

*“Vaqting ketdi – naqding ketdi”, – degan dono xalqimiz.*

**43. Bo‘sh o‘rinlarga tegishli maqollarni qo‘yib, gaplarni yozing.**

1. Do‘stlik haqida xalqimizda shunday maqol bor: “...”.
2. Inson hayoti davomida o‘zidan yaxshi nom qoldirib yashashi kerak. Zero, “...”, – deydi dono xalqimiz.
3. Hunarli bo‘lish, mehnatsevarlik haqida so‘z borar ekan, “...” degan maqol yodimizga tushadi.
4. “...” deb bejiz aytilmaydi. Chunki insonning so‘zi uning xulq-atvori va odobidan darak beradi.

**Qo‘yish uchun maqollar:**

| | |
|---|---|
| Til – aql tarozisi. | Mehnat – rohatning poydevori. |
| Do‘st so‘zini tashlama,<br>Tashlab, boshing qashlama. | Yaxshidan bog‘ qolar,<br>Yomondan – dog‘. |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 119 25/10/24 10:50



**44. “Bolalik dunyosi – beg‘ubor dunyo” mavzusida matn yozishga tayyorlaning.**

**1-bosqich. Matn uchun reja tuzib oling. Berilgan rejadan ham foydalanishingiz mumkin.**

1. Bolalik – hayotning eng quvnoq pallasi.
2. Biz baxtli bolalarmiz.
3. Kelajagim tasavvurimda.

**2-bosqich. Quyidagi boshlanmalardan birini tanlang.**

Bolalik – hayotning eng quvnoq va qaynoq pallasi. Ayni shu davr atrofdagi narsalarga nisbatan qiziquvchanlikni namoyish etish, sirli va sehrli ertaklar olamidagi qahramonlarga o‘xshashni istash, ichimizdagi his-tuyg‘ularni ochiq-oshkora bildirish imkonini beradigan eng beg‘ubor fasldir...

“Bolalik – eng beg‘ubor fasl”, – deyishadi kattalar. Chindan ham shundaymi yoki yo‘q – buni aniq bilmayman. Biladigan yagona narsam – bolalik orzularga to‘la fasl…

**3-bosqich. Quyidagi jumlalardan rejaning ikkinchi va uchinchi qismlariga oid fikrlarni boshlashda foydalanishingiz mumkin.**

**II**

Bilasizmi, biz baxtli bolalarmiz. Nega deysizmi? Chunki biz juda ko‘plab imkoniyatlar dunyosida yashayapmiz...

**III**

Kelajagim bilan bog‘liq ko‘plab orzularim bor. Ular amalga oshishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishim juda muhim. Men o‘z kelajagimni quyosh nuridan bahra olib, gullab-yashnayotgan bog‘ga o‘xshataman.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 120 25/10/24 10:50

**4-bosqich.** **Quyidagi maqollarning biridan foydalaning.**

| | |
|---|---|
| Aql ko‘pga yetkazar,<br>Hunar – ko‘kka. | Zehn qo‘ysang bilimga,<br>Ilm tomar dilingga. |
| O‘qimagan shu damda<br>Turtinar har qadamda. | Bilagi zo‘r birni yiqar,<br>Bilimi zo‘r – mingni. |

**5-bosqich.** **Yuqorida berilgan ko‘rsatmalardan foydalangan holda matn yozishni boshlang.**



**Yozishni boshlagan matningizni tugallang. Uni qayta o‘qib, tahrirlashingiz mumkin. Keyingi darsda matningizni sinfdoshlaringizga o‘qib berishga tayyorlaning.**





**45.** **Yozgan matningizni partadoshingizniki bilan almashtiring va uni quyidagi mezonlar asosida baholang:**

| | |
|---|---|
| Matnga mos reja tanlangan. | **1 ball** |
| Matn mazmuni berilgan maqsad (orzu hamda unga erishish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi haqida)ga mos kelgan. | **1 ball** |
| Matnga she’riy parcha to‘g‘ri kiritilgan. | **1 ball** |
| Matnda imloviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| Matnda ishoraviy xatolar soni kam (3 tagacha xato). | **1 ball** |
| **Jami:** | **5 ball** |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 121 25/10/24 10:50

**46.** **Sinfdoshingizga uning matni haqida 3 ta fikr yozing.**

Namuna

1. Sinfdoshim ... , yozgan matning mazmuni juda qiziqarli.
2. Matn mazmuniga mos she'riy parcha tanlangan, ammo uni matnga kiritishda ayrim xatolar bor.

**47.** **Yozgan fikrlaringizni sinfdoshingizga yetkazing. Aytilgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar bering.**

**Yondaftaringizga Vatan, vaqt qadri, bilim olishning ahamiyati kabi mavzularga oid maqollarni yozib oling. Ijodiy matnlar yozish jarayonida ulardan foydalanishingiz mumkin.**

## Bob yuzasidan takrorlash

**48.** **Yozib kelgan maqollaringizni sinfdoshlaringizga o'qib bering. Ular o'qigan maqollardan o'zingizga yoqqanini yondaftaringizga yozib oling.**

**49.** **Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" asaridan olingan gaplardagi eskirgan so'zlarni o'qituvchingiz yordamida aniqlang. Ularni berilgan izohlar bilan moslashtirib yozing.**

Namuna

*chavgon – ot minib o'ynaladigan, ba'zi jihatlari chim xokkeyini eslatadigan qadimiy o'yin*

1. Begimning parishon nazari tushib turgan ko'kalamzor maydonda bir to'p otliq qizlar chavgon o'ynamoqda.
2. To'y shunchalik katta bo'ldiki, unga borgan mo'tabar begimlarga ob-u oshdan tashqari kumush barkashlarda bir siqimdan oltin tangalar tortildi.
3. Tolorda o'tirgan Xonzodabegim Hamidabonu bilan o'zining orasida alohida bir e'zoz va qiziqish kuchayib borayotganini sezib turardi.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 122 25/10/24 10:50

4. Hamidaning otasi faqih Mirbobodo‘st asli toshkentlik edi, Shayboniyxon qirg‘inlarida Xurosonning Jom shahriga kelib qolgan va shu yerlik qizga uylangandi.
5. – Otangizni johil muhtasiblar adashtirgan, – dedi Nizom. – Ular bizning boshimizga ham qancha kulfatlarni soldilar.
6. Hindol Mirzoga Agradan uch yuz mil g‘arbi-janubdagi Mevat viloyati mulk qilib berildi.

| | | |
|---|---|---|
| diniy ishlar nazoratchisi | ot minib o‘ynaladigan, ba’zi jihatlari chim xokkeyini eslatadigan qadimiy o‘yin | |
| yozlik shiypon | jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o‘rnida ishlatiladigan, doira yoki to‘rtburchak shaklidagi ro‘zg‘or asbobi | islom dini, shariat qoidalarini yaxshi biluvchi olim |
| 1000 metrga teng masofa | | |

**50. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qilingan so‘zlarni aniqlab, daftaringizga yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| iste’-dod | iste-’dod | ta’-lim | ta-’lim |
| o-talari | otala-ri | si-ngil | sing-il |
| mutola-a | muto-laa | mas’-uliyat | mas-’uliyat |
| ko‘-ngil | ko‘ng-il | o-kean | oke-an |
| alif-bo | a-lifbo | Azi-za | A-ziza |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 123 25/10/24 10:50

**Berilgan gaplar tarkibidagi kishilik olmoshlarini aniqlang. Ular bo‘lim davomida siz tanishgan qaysi qahramonga ishora qilayotganini yozing.**

Namuna


*1. Uning boshida taqya, ustida adras to‘n, oyoqlarida xiyol etik, holvani yeb turib, majlisni odob ila kuzatar edi. U – Alisher.*

1. Uning boshida taqya, ustida adras to‘n, oyoqlarida xiyol etik, holvani yeb turib, majlisni odob ila kuzatar edi.
2. – Qani, jiyan, bir g‘azal o‘qib yubor, bilasan-ku, – dedi u Alisherni yelkasidan quchib.
3. – Juda yaxshi, o‘g‘lim, menga ham ifrot ma’qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli, har nechuk madhga yarashuq bir shoirdirlar.
4. – O‘z qo‘llarim bilan yasagandim, – u shunday deb qutini ustozining stoli ustiga qo‘ydi va sekin xonadan chiqdi.
5. – Sumkangni xonamda qoldir. Men mashinamda bo‘laman. Ulgurishimiz shart, – deya ustoz qutini ko‘targancha shoshib kelardi.
6. – Bechoralar, bekorga ovora bo‘lyapsizlar, baribir sizlar marraga yeta olmaysizlar.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 124 25/10/24 10:50

# KITOB – BILIM BULOG‘I



**1.** **Rasmda kitobxonning mutolaa jarayonidagi holatlari aks etgan. Har bir holatni tushunib, izohlashga harakat qiling.**



**2.** **Dialoglarni sinfdoshingiz bilan ifodali o‘qing.**

**1-suhbat**

– Nima qilyapsan?
– Ko‘rmayapsizmi? Kitob o‘qiyapman.
– Iya, shoirmisan?
– Yo‘q!
– Unda nega qo‘lingda kitob?
– O‘qiyotgan insonlarning barchasi shoir bo‘laveradimi?!
– Ochig‘i, kitob ushlaganlarni hozir deyarli ko‘rmayman. Shunga hayronman. Qolaversa, kitob o‘qishni azaldan yoqtirmayman.
– Haaa, bilinib turibdi...
– Ayt-chi, senga bundan nima naf?
– Foydasi ko‘p-da, shunga!
– Himm!
– Miyig‘ingizda kulyapsiz, tinchlikmi?
– Achindim senga. Quloq sol, maslahatning “dodasi”: zamon bilan hamnafas bo‘l...
– Hee, “zamonaviy”!

**2-suhbat**

– Qaysi asar?
– “Mening o‘g‘rigina bolam”.
– Ha... Bir paytlar qayta-qayta o‘qiganman.
– Ha, rosa ta’sirli ekan...
– Muallifi haqida ko‘p ma’lumotlar to‘plaganman.
– Rostdanmi? Aytib berasizmi?
– Bajonidil!

*“Gulxan” jurnalidan*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 126 25/10/24 10:50



**3. Yuqoridagi suhbat asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

- Suhbat mavzusini aniqlab, yozing.
- 1-dialogdagi suhbatdoshlar kim ekanini aniqlang va fikringizni asoslovchi jumlani yozing.
- 2-dialogdagi suhbatdoshlar kim ekanini aniqlang va fikringizni asoslovchi jumlani yozing.
- 1-dialogda savol berayotgan qahramonning sifatlarini yozing.
- 2-dialogda savol berayotgan qahramonning sifatlarini yozing.
- Kitob o‘qishga sizning munosabatingiz qanday? Fikringizni asoslab yozing.



**So‘zlashuv uslubi**dan oilada, ko‘cha-ko‘yda fikr almashish jarayonida foydalanamiz.

So‘zlashuv uslubi ikki turga bo‘linadi: **adabiy** va **oddiy so‘zlashuv.**

Adabiy so‘zlashuv uslubida adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilinadi. Oddiy so‘zlashuv uslubi esa bunday xususiyatga ega bo‘lmaydi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialoglarda qo‘llanadi.

Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi ***dialog*** deyiladi.



**4. Dialoglarni rollarga bo‘lib o‘qing. 2-suhbat matnidagi tushunmagan so‘zlaringiz ma’nosini o‘qituvchingizdan so‘rang.**

I

– Bolalikni nimaga qiyoslaysiz?

– Bolalikni go‘zal ertakka qiyoslagim keladi.

– Mehringizni qozongan kitob qaysi?

– Dadam bizga imkon qadar ko‘p kitob olib kelishga harakat qilardilar. Hozir ham ota uyimizda minglab kitoblarga ega kutubxona bor. O‘qigan kitoblarim ichida mehrimni qozongan eng birinchisi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari bo‘lgan.

…

– “Tong yulduzi” mushtariylariga qanday tilaklaringiz bor?

– “Tong yulduzi” gazetasining aziz muxlislariga avvalo mustahkam sog‘lik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik tilayman. Kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarimiz bo‘sh vaqtlarida imkon qadar ko‘proq kitoblarni va “Tong yulduzi” kabi qiziqarli, mazmundor gazetalarni o‘qishlarini istardim.

*“Tong yulduzi” gazetasidan*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 127 25/10/24 10:50

II

– Ha, nega tarvuzing qo‘ltig‘ingdan tushib, shalpayib turibsan? Boshing og‘riyaptimi?

– Joduni topolmay qiynalib ketdim, shunga. Biyi, jodu o‘zi nima?

– Jodu deysanmi? Ibi, man o‘lay, sanginaga jodu nega kerak, bacham? Sehr-jodu – kufr ish, bachaginaga kim jodu qiladi?

– Bobom.

– Bovang? Dam bo‘l-e, bacham, bovang esini yebdimi, sani jodu qilib!

– Men qayerdan bilay, o‘zlari dalaga ketayotib jo‘xori, yo‘g‘-e, makkapoyani joduda qirqib qo‘y, deb tayinladilar-ku!

– Ibi, qip-qizil shaharlik bo‘libsan-ku san, “jodu” bilan “jodi”ni adashtirgan. Bovang jodu demagan, jodi degan, chog‘i. San jodu deb boshimni qotirasan. Yur, sanga jodini ko‘rsatib qo‘yay.

*“Gulxan” jurnalidan*

**5. 4-topshiriqdagi dialoglar asosida jadvalni to‘ldiring.**

| | Savollar | Javobingiz |
|---|---|---|
| 1 | 1-dialogdagi suhbatdoshlar kim? | *** |
| 2 | 2-dialogdagi suhbatdoshlar kim? | *** |
| 3 | 1-matnning o‘ziga xosligi nimada? | *** |
| 4 | 2-matnning o‘ziga xosligi nimada? | *** |
| 5 | 1-matndagi suhbat mavzusi qanday? | *** |
| 6 | 2-matndagi suhbat mavzusi qanday? | *** |
| 7 | Matndagi tinish belgilari nima maqsadda qo‘llangan? | *** |
| 8 | Matnlar qaysi uslubda yozilgan? | *** |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 128 25/10/24 10:50

**Diqqat, loyiha! “Zukko kitobxon” mavzusidagi taqdimotga tayyorlaning. Buning uchun siz 10 bosqichdan iborat topshiriqlar ketma-ketligini bajarib borishingiz kerak.**

**1-bosqich:**

- quyida berilgan kitoblardan birini tanlang;
- tanlagan kitobingizni o‘qishni boshlang;
- mutolaa davomida tushunmagan so‘zlaringizni belgilab boring;
- oila a’zolaringiz yoki o‘qituvchingizdan tushunmagan so‘zlaringiz izohini so‘rab, lug‘at tuzishni boshlang;
- o‘qish tezligingizni aniqlashga oid jadvalni to‘ldiring.

| Tanlagan kitobingizning umumiy sahifasi | 1 soatda necha sahifa kitob o‘qiganingiz | 1 kunda necha sahifa kitob o‘qiganingiz | Kitobni qancha muddatda o‘qib tugallashingiz mumkinligi | 1 oyda nechta kitob o‘qishingiz mumkin? |
|---|---|---|---|---|
| ... bet | ... bet | ... bet | ... kun | ... ta |

Eslatma! Loyihada sinfdagi barcha o‘quvchilar ishtirok etishlari lozim. O‘qilgan kitob asosida taqdimot qilishga tayyorlanib borishni unutmang. Loyihani qadam-baqadam bajarib borish uchun alohida daftar tuting.

Nomi: “Qaylardasan, bolaligim”
Muallif: Xudoyberdi To‘xtaboyev
Nashriyot: “Yangi asr avlodi”
Nashr yili: 2017
Hajmi: 224 bet

6




Nomi: “Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari”
Muallif: Xudoyberdi To‘xtaboyev
Nashriyot: “Yangi asr avlodi”
Nashr yili: 2021
Hajmi: 96 bet

7






37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 129 25/10/24 10:50

Nomi: **“Alamazon va uning piyodalari”**
Muallif: **Anvar Obidjon**
Nashriyot: **“Yangi asr avlodi”**
Nashr yili: **2014**
Hajmi: **160 bet**

8




Nomi: **“Gulliverning sayohatlari”**
Muallif: **Jonatan Svift**
Nashriyot: **“Yangi asr avlodi”**
Nashr yili: **2014**
Hajmi: **156 bet**

9




Ayting-chi, sizga qanday kitoblar yoqadi? Nima uchun?

## Kitob haqida
*(intervyu)*

– Kitob hayotingizda qanday o‘rin tutadi?

– Hayotim to‘laligicha kitob bilan, mutolaa bilan bog‘liq. Biror kunimni kitobsiz tasavvur qilolmayman. Kitob o‘qimagan kunimni behuda o‘tgan deb hisoblayman.

– Ilk bor o‘qib, zavq olgan kitobingiz esingizdami? Bolaligingizda o‘qigan yana qaysi kitoblar hayotingizga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan?

– Esimda qolgani – Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asari. Kitobga chizilgan suratlarni ko‘p tomosha qilardim. Ularda Tom Soyerga xos shumliklar, qo‘rqmaslik, sarguzashtlar va turfa qiyinchiliklardan hayiqmaslik yaxshi tasvirlangandi. Bolalarning qalbida kitobga muhabbat uyg‘otuvchi qudratli bir necha kuch bor. Bular – samimiyat, beg‘uborlik, o‘ynoqilik, sarguzasht, qahramonlik! Mana shunday sehr ustoz adibimiz Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida yaqqol bo‘rtib turadi.

– Asqad Muxtorning “Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o‘qilgani” degan iborasini qanday izohlaysiz?

– Bu iborada ko‘zda tutilgan ma’no tushunarli, ya’ni har qanday kitob o‘qilgandagina chinakam ma’naviy boylikka aylanishi nazarda tutilmoqda… O‘zim shaxsiy kutubxonamdagi kitoblarning barini boshdan oxirigacha o‘qiganman deb aytolmayman,



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 130 25/10/24 10:50



lekin ularni javonimda ko‘rib tursam, vaqti-vaqti bilan varaqlasam, “cho‘qilab-cho‘qilab” o‘qib qo‘ysam ham, zavq olaveraman, huzurlanaman. Aytmoqchimanki, o‘qib ulgurmagan kitoblarim ham mening boyligim, ularning javonimda turishi, menga juda ko‘p haqiqatlarni eslatayotganining o‘zi ma’naviy boylikdir.

– Javoningizda qayta-qayta o‘qiydigan, sog‘inib qo‘lga oladigan kitob bormi?

– Bunday kitob bitta yo ikkita emas. Unday kitoblarim ko‘p. Jahon adabiyoti namunalari, tarix, axborot dunyosi, sportga oid kitoblarni vaziyatga ko‘ra qayta-qayta qo‘lga olaman…

– Agar o‘zbek adabiyoti bo‘yicha “Oltin javon” tuzilib, unga 10 ta kitob kiritish zarurati tug‘ilsa, qaysi kitoblarni kiritgan bo‘lardingiz?

– Uydagi javonlarga sig‘may qolgan, o‘z davrini o‘tagan deb hisoblash mumkin bo‘lgan kitoblarni chordoqda saqlayman. Lekin vaqti kelib, biror sabab bilan ularning birortasi juda zarur bo‘lib qoladi. Shunday paytlarda ularni chordoqdan topib, chang-chungini artib, ko‘zlarimga surtguday bo‘lib olib tushaman. Ularga javonimdan joy topaman. Uni kerak emas, davri o‘tdi deb hisoblaganim uchun KITOBdan uzr so‘rayman. Aytmoqchimanki, har bir kitob bamisoli bir odam, har qanday odamni birinchi navbatda inson bo‘lgani uchun ham qadrlamog‘imiz, ardoqlamog‘imiz lozim.

– Jurnalxonlarga qanday kitoblarni o‘qishni tavsiya qilasiz?

– Avvalo, kitobga mehr qo‘yishdek eng saodatli tuyg‘uni ardoqlamoq lozim. Yosh do‘stlar, ishoning, sizning qalbingizda ham kitobga mehr-muhabbat tuyg‘usi bor, siz faqat bundan bexabar qolmang, e, men kitobga qiziqmayman, degan so‘zni hech qachon aytmang. O‘qisangiz-u, tushunmagan bo‘lsangiz, yana o‘qing, sinchkovlik bilan o‘qing. Astoydil, diqqatingizni jamlab o‘qishga kirishsangiz, kitobning, undagi so‘z va jumlalarning o‘zi sizga yordam beradi. Bunday mo‘jizali holatni boshdan kechirsangiz, kitobga, mutolaaga umrbod do‘st tutinasiz-qolasiz. Shunda bu do‘stlikka hech kim hech qachon raxna sololmaydi.

*“Gulxan” jurnalidan qisqartirib olindi.*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 131 25/10/24 10:50



**6. So‘zlarni izohi bilan moslab yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | behuda | **A** | boshdan o‘tgan voqea-hodisalar |
| **2** | chordoq | **B** | turli narsalar qo‘yiladigan mebel, shkaf |
| **3** | ardoq | **D** | baxt-iqbolga erishgan, baxtli |
| **4** | javon | **E** | biror ish-harakat qilishga cho‘chimoq, qo‘rqmoq |
| **5** | sarguzasht | **F** | foydasi yo‘q, befoyda |
| **6** | hayiqmoq | **G** | tom bilan ship oralig‘idagi bo‘sh joy |
| **7** | saodatli | **H** | izzat-hurmat, e’zoz |



1. Dialogdagi suhbatdoshlar kim ekanini aniqlang. Buni qanday topdingiz? Javobingizni asoslang.
2. Suhbatda nima uchun Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asari tilga olingan?
3. Suhbatdosh qaysi savolga bergan javobida ayrim kitoblarni “cho‘qilab-cho‘qilab” o‘qishi haqida fikr bildirdi?
4. Suhbatdoshning qayta-qayta o‘qiydigan, sog‘inib qo‘lga oladigan kitobi qaysi ekan? Javobingizni izohlang.
5. Suhbatda kitobdan uzr so‘rash haqida gap bordi. Ayting-chi, kitobxon nima uchun bunday qilgan? Sizda ham shunga o‘xshash holat yuz berganmi? Qachon? Siz qanday yo‘l tutgansiz?



**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**

**2-bosqich:**

- tanlagan kitobingizga ko‘ra 8–10 o‘quvchidan iborat guruhlarga bo‘lining;
- 1-bosqichdagi kitob o‘qish tezligiga oid jadvalingizni guruh a’zolariniki bilan taqqoslang;
- o‘qish ko‘rsatkichi yuqori guruhdoshingizdan buning sababini so‘rang va natijangizni yaxshilashga harakat qiling;
- mutolaada davom eting.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 132 25/10/24 10:50

**7. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| I | Suhbatdosh kitoblarni “cho‘qilab-cho‘qilab” o‘qish deganda qanday holatni nazarda tutgan? Javobingizni asoslovchi fikr ayting. | A | boshi va oxirini o‘qish |
| | | B | kitobni tushunib o‘qish |
| | | D | ayrim sahifa yoki qismlarini o‘qish |
| | | E | boshidan oxirigacha o‘qish |
| II | Suhbatda qo‘llangan “ko‘zlarimga surtguday” iborasiga mos fe’l qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? Javobingizni asoslash uchun tanlagan so‘zingiz ishtirokida gap tuzib, yozing. | A | ardoqlamoq |
| | | B | anglamoq |
| | | D | kutmoq |
| | | E | sog‘inmoq |
| III | Suhbatdosh Xudoyberdi To‘xtaboyev bilan bog‘liq fikrni aytish orqali kitobxonga nima demoqchi? Javobingizni matn asosida isbotlang. | A | X. To‘xtaboyev bolalar uchun sarguzasht asarlar yozadi. |
| | | B | X. To‘xtaboyev – o‘zbek va xorij bolalarining sevimli yozuvchisi. |
| | | D | X. To‘xtaboyev va M. Tven asarlarining mazmuni bir xil. |
| | | E | X. To‘xtaboyev asarlari bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otadi. |

**8. Suhbat matni asosida to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. Noto‘g‘ri ma’lumotlarni to‘g‘rilang.**

| | | |
|---|---|---|
| to‘g‘ri | Suhbatdoshni zavqlantirgan ilk kitob – X. To‘xtaboyev asarlaridan biri. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Suhbatdoshning qayta-qayta o‘qiydigan kitobi bir emas, bir nechta. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Suhbatdosh shaxsiy kutubxonasidagi barcha kitoblarni o‘qib chiqqan. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Suhbatdosh barcha kitoblarini chordoqda saqlaydi. | noto‘g‘ri |
| to‘g‘ri | Jurnalist kitobni asrash haqidagi iboraga izoh so‘radi. | noto‘g‘ri |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 133 25/10/24 10:50

| to‘g‘ri | Suhbat davomida kitob insonga qiyoslangan. | noto‘g‘ri |
|---|---|---|



**9. Suhbatdan chiqarilgan xulosalarni mos so‘zlar bilan to‘ldirib yozing.**

- Kitob mutolaasisiz o‘tgan kun ...ga o‘xshaydi.
- Kitoblarda ifodalangan samimiyat, beg‘uborlik, o‘ynoqilik, sarguzasht va qahramonlik kabilar bolalar qalbida kitobga nisbatan ...ni paydo qiladi.
- Har qanday kitob ...gina chinakam ma’naviy boylikka aylanadi.
- Har bir insonning qalbida ...ga mehr-muhabbat tuyg‘usi bor.
- ...ga mehr qo‘yish eng saodatli tuyg‘u hisoblanadi.



**10. Kichik guruhlarga bo‘lining. Jurnalist sifatida yozuvchiga kitobxonlikka oid qanday savol bergan bo‘lar edingiz? Guruh bilan birgalikda tayyorlagan savolingizni taqdim eting.**



**Oila a’zolaringiz yoki qarindoshlaringiz bilan qanday kitoblarni o‘qishgani yoki o‘qishayotgani haqida suhbatlashing. Savollar va ularning javoblari haqida umumiy xulosangizni yozing.**

| | |
|---|---|
| Kimlar bilan suhbatlashdingiz? | *** |
| Qanday savollar berdingiz? | *** |
| Suhbatdoshingiz qanday javob berdi? | *** |
| Suhbatdan chiqargan xulosangiz qanday? | *** |
| Oila a’zolaringizni kitobxon deya olasizmi? O‘zingizni-chi? Nima uchun? | *** |

Eslatma! Tanlab olgan kitobingizni o‘qishda davom eting.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 134 25/10/24 10:50

**11.** **Hozirgi kunda nutqimizda qanday zamonaviy – yangi so‘zlarni ishlatamiz? Rasmda nimalar tasvirlangan? Yangi so‘zlarga 5 ta misol ayting.**









**12.** **Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar va ularning izohini moslab yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | logotip | **A** | internet tarmog‘idagi shaxsiy “xona” |
| **2** | smartvoch | **B** | internetda sahifa yurituvchi shaxs |
| **3** | akkaunt | **D** | biron-bir nom ostida videodagi xatti-harakatni ko‘pchilik takrorlashiga da’vat va buning internet foydalanuvchilari orasida ommalashuvi |
| **4** | elektromobil | **E** | vaqtni ko‘rsatishdan tashqari ko‘plab vazifalarni bajaruvchi elektron soat, atamaning o‘zbekcha muqobili – aqlli soat |
| **5** | chellenj | **F** | biror janrdagi qo‘shiqni uning matnini o‘zgartirmagan holda boshqa uslubda kuylash |
| **6** | kaver | **G** | kompaniya, tashkilot yoki firma ramzini ifodalovchi o‘zgacha uslubdagi yozuv yoki grafik surat |
| **7** | bloger | **H** | ichki yoqilg‘i quvvati bilan emas, mustaqil energiya manbayi bilan ishlaydigan avtoulov |

**Yangi so‘zlar** tilimizga yaqinda kirib kelgan so‘zlardir. Hozirgi kunda **kaver, podkast, akkaunt, dasturchi** kabi so‘zlar yangi so‘zlarga misol bo‘la oladi. Yangi so‘zlar ma’lum vaqt o‘tgach, *yangilik* xususiyatini yo‘qotib, umumiste’moldagi so‘zlar qatoriga o‘tadi. Ularning o‘rnini esa zamonga mos boshqa so‘zlar egallaydi.

**13.** **Yuqorida berilgan yangi so‘zlardan 3 tasini tanlang. Ular ishtirokida gap tuzing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 135 25/10/24 10:50

**14.** **Quyidagi so‘zlarni ma’no anglatish-anglatmasligi, so‘roqqa javob bo‘lish-bo‘lmasligiga ko‘ra farqlab, xattaxtaga yozing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| hamda | kitobxon | bilan | axir |
| qiziqarli | o‘qimoq | chunki | asar |
| olti | va | biz | kabi |

**Mustaqil so‘zlar** atash ma’nosiga ega, biror so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘zlardir.

**Masalan:** gul – o‘simlik (nima?), yurmoq – harakat (nima qilmoq?), qizil – rang (qanday?), uchinchi (tartib; nechanchi?), sen (II shaxs; kim?).

**Yordamchi so‘zlar** atash ma’nosiga ega bo‘lmagan va so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘zlardir.

**Masalan:** *va, uchun, ammo, ham.*

**Yordamchi so‘zlarning vazifasi:**

1. So‘zlarni bir-biriga bog‘laydi.

**Masalan:** *she’r* ***va*** *hikoya; ukam* ***uchun*** *olmoq.*

2. Gaplarni bir-biriga bog‘laydi.

**Masalan:** *Kutubxona kichik,* ***ammo*** *kitoblar juda ko‘p.*

3. So‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklaydi.

**Masalan:** *Bu ertakni men* ***ham*** *o‘qiganman.*

**15.** **Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, gaplarni ko‘chiring.**

Kitob hayotning eng olis ... qorong‘i yo‘llariga nur baxsh etadigan afsonaviy chiroqdir.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, kitob o‘qishni xush ko‘radigan bolalar maktabda ... yaxshi o‘qishadi.

Kitoblar jonsiz, ... sodiq do‘stlardir.

Hayotda boy tajribaga ega bo‘lish ... ko‘proq kitob o‘qish zarur.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 136 25/10/24 10:50

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**

**3-bosqich:**

- guruh a’zolari bilan darsdan so‘ng mutolaa uchun tanlagan kitobingiz haqida suhbatlashing;
- tanlagan kitobingizni o‘qishda davom eting;
- siz uchun qiziqarli bo‘lgan voqealarni qayd etib boring.

Maktab kutubxonasidan oxirgi marta qaysi kitobni oldingiz? Kutubxonachi sizga kitob berayotganda asosan nima deb ta’kidlaydi?

## Yangi kitob

Nilufar katta tanaffusda maktab hovlisida o‘rtoqlari bilan biroz o‘ynadi. Darsga qo‘ng‘iroq chalingach, sinfga kirib, sal oldin partasi ustida qoldirib ketgan Muhammad Yusufning she’rlar to‘plamini bir-bir varaqladi. Shu payt kitob orasidan uch varaq yirtib olinganini ko‘rdi-yu, hozirgina shodon chaqnab turgan ko‘zlariga yosh qalqdi.

– Kitob... kitobimni qara, – deya yirtilgan sahifani partadosh dugonasi Sevinchga ko‘rsatib, yig‘lab yubordi.

Nima gapligini tushunolmagan sinfdoshlari:

– Iye, nima bo‘ldi?


– Nega yig‘layapti? – deya uni o‘rab olishdi. Sevinch “bilmasam” deganday yelka qisdi va ko‘zlarini olib qochdi.

O‘quvchilar yetakchisi Marhabo opa: “Yaqinda maktabda kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi, bu tanlovda eng ko‘p kitob o‘qigan, eng ko‘p she’r yodlagan o‘quvchilar bellashadi”, – deb e’lon qilgan. Nilufar badiiy asar o‘qishni yaxshi ko‘radi. Uylaridagi kitoblarning deyarli barchasini o‘qib bo‘lgan. Yodlagan she’rlarining hisobi yo‘q. Shunda ham tanlov haqidagi xabar uni quvontirib yuborgan. Unda qatnashib, g‘olib bo‘lishni niyat qilgan, shuning uchun kutubxonadan Muhammad Yusufning “Ulug‘imsan, Vatanim” kitobini olgan. U tanlovda Vatan haqidagi she’rlar bilan qatnashishni xohlagan. Kutubxonachi Dildora opa kitobni unga berayotib:

– Bu kitobdan atigi ikkita bor. Uni ehtiyot qil. Muddatida qaytar, – deb astoydil tayinlagan edi... Nilufar shularni ko‘nglidan o‘tkazib, partadan boshini ko‘tardi va o‘ziga achinib qarab turgan sinfdoshlariga:



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 137 25/10/24 10:50



– Buni endi kutubxonaga qanday topshiraman, Dildora opaga nima deyman?! – dedi yig‘i aralash. O‘rtoqlari unga qanday yordam berishni bilmay, jim qolishdi. Har doim uyga birga qaytadigan Sevinch ham shosha-pisha xayrlashib, ketib yubordi. Kechga tomon Nilufarning boshi og‘rib, isitmalab yotib qoldi. Ertasi kuni maktabga bora olmadi.

Tushdan so‘ng uni ko‘rgani Sevinch keldi. Nilufarning oyisi Salomat opa:

– Qizim, bilmaysanmi, maktabda uni hech kim xafa qilmadimi? – deb so‘radi.

Sevinch nima deb javob berishni bilmadi. Nahot Nilufar oyisiga hech narsa demagan bo‘lsa? Nilufar Sevinchning qo‘lida shoir Muhammad Yusufning ko‘k muqovali yangi saylanma kitobini ko‘rib sergak tortdi, kasalligini **ham** unutib:

– Voy, yangi kitob sotib oldingmi? – dedi hayajonlanib.

– Ha, senga berish **uchun** sotib oldim, – dedi Sevinch. – Nilufar, meni kechir, **kecha** seni xafa qilgan men edim. Men ham tanlovda Muhammad Yusuf she’rlari **bilan** qatnashmoqchi edim. Kutubxonadan topa olmadim. Qarasam, partamiz ustida men izlagan kitob **turibdi**. Oqibatini o‘ylamasdan, shartta o‘zimga yoqqan she’rlar yozilgan varaqlarni yirtib olibman. Ko‘pchilikning oldida aybimga iqror bo‘lgim kelmadi. **Sen** bilan xayrlashib, uyga borgach, qo‘limga o‘sha varaqlarni oldim. **Lekin** o‘qiy olmadim. She’rlar orasidan **goh** sen, **goh** shoirning o‘zi menga qarab afsus bilan bosh chayqayotgandek bo‘laverdi. Nazarimda, **suyukli** shoirim: “Sen she’rni shunaqa yaxshi ko‘rasanmi? Kitobni shu ahvolga solishdan, do‘stingni ranjitishdan uyalmadingmi?” – deyayotgandek, mendan xafa bo‘layotgandek tuyuldi. Arang tong ottirdim. **Dadam** tushlik qilarsan deb bergan pullarni yig‘ib yurgandim. To‘g‘ri **kitob** do‘koniga bordim. Xayriyat, kitob sotilayotgan ekan.

– Nimalar deyapsan, Sevinch?

– Kechir meni, Nilu... Sen kechirsang, shoir ham kechiradi. Bunaqa... bunaqa bo‘lishini bilmovdim, – deya yig‘lab yubordi Sevinch.

– Bo‘pti, bo‘pti, yig‘lama. Kutubxonaga borib, Dildora opadan birga uzr so‘rab, yangi kitobni beramiz. Avval o‘sha she’rlarni kompyuterda ko‘chirib, yirtilgan sahifalar o‘rniga qo‘yamiz. Tanlovgacha kamida beshtadan she’r yodlab olamiz-da, g‘olib bo‘lamiz. Faqat bundan keyin hech qachon kitob varaqlarini yirtmaslikka so‘z bersang bo‘ldi, – dugonasini bag‘riga bosdi Nilufar.

*Ulug‘bek Mustafo*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 138 25/10/24 10:50

**16. Quyidagi so‘zlarning matndagi ma’nosini aniqlab, yozing.**

| | |
|---|---|
| saylanma | saylab qo‘yiladigan, saylov yo‘li bilan belgilanadigan, tayinlanadigan |
| | tanlangan, tanlab, saralab olingan |
| to‘plam | ma’lum tartibda to‘plangan bir turdagi narsalar yig‘indisi, kolleksiya |
| | ma’lum tartibda to‘plangan va nashr etilgan asar |
| | to‘p, to‘da, uyum |
| oqibat | qadrdonlik, do‘stlik tuyg‘usi, mehr, muhabbat |
| | oxirgi natija, yakun |

1. Nilufar xonaga kirgach, qanday holatga tushdi? Nima uchun?
2. *Sevinch “bilmasam” deganday yelka qisdi va ko‘zlarini olib qochdi.* Ayting-chi, Sevinch nega o‘zini bunday tutdi?
3. Nilufar qaysi xabardan quvondi?
4. Nilufar nima sababdan maktabga bormadi?
5. Sizningcha, Sevinch do‘stining oldiga borib to‘g‘ri qildimi? Siz qanday yo‘l tutardingiz?
6. Ayting-chi, tanlovda kim g‘olib bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

**17. Matndan olingan gaplarni o‘qing. Sizningcha, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar matn mazmuniga qanday ta’sir qilgan? Ularning ma’nosini izohlang.**

*1. – Nega yig‘layapti? – deya uni o‘rab olishdi. Sevinch “bilmasam” deganday yelka qisdi va* ***ko‘zlarini olib qochdi.***

*2. Nilufar shularni* ***ko‘nglidan o‘tkazib,*** *partadan boshini ko‘tardi va o‘ziga achinib qarab turgan sinfdoshlariga:*

*– Buni endi kutubxonaga qanday topshiraman? Dildora opaga nima deyman?! – dedi.*

*3. She’rlar orasidan goh sen, goh shoirning o‘zi menga qarab afsus bilan* ***bosh chayqayotgandek*** *bo‘laverdi.*

**Kitobni asrab-avaylashga oid 5 ta tavsiya yozing.**



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 139 25/10/24 10:50



**18. “Yangi kitob” matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. Javoblarni daftaringizga yozing.**

**1.** Nilufar nima uchun kutubxonadan Muhammad Yusufning “Ulug‘imsan, Vatanim” kitobini oldi?

**2.** Nilufar nima uchun yig‘ladi?

**3.** Sevinch nimadan hayron bo‘ldi?

A. kitob varaqlarini yirtganini hech kim sezmaganidan
B. Nilufarning bo‘lgan voqeani oyisiga aytmaganidan
D. sinfdoshlarining unga munosabati o‘zgarganidan
E. Nilufar uni tez kechirib yuborganidan

**4.** Muallifning hikoya yozishdan maqsadi nima deb o‘ylaysiz?

A. kitobxonlik tanlovi haqida ma’lumot berish
B. yoshlarni kitobni asrab-avaylashga undash
D. maktab bilan bog‘liq xotiralarini yodga olish
E. do‘stlar orasidagi illatlarni qoralash



**19. “Yangi kitob” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ikki guruhga bo‘lib yozing.**

| Mustaqil so‘zlar | Yordamchi so‘zlar |
|---|---|
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |
| * * * | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 140 25/10/24 10:50

**20.** **Qaysi so‘zlarning talaffuzi yoki yozilishida ayrim tovushlar tushib qoladi?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshkent | kitob | meniki | ikkala |
| singlim | xursand | Samarqand | yozuv |

Ayrim so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilganda tovush tushishi yuz beradi.
**Masalan:**

1. ***Shahar, singil, burun*** kabi so‘zlarga *-im, -ing, -i* qo‘shilsa, ikkinchi bo‘g‘indagi unli tushib qoladi: *shahrim, singling, burni.*
2. ***Qayir, ayir*** fe’llariga *-il* qo‘shilganda *i* tovushi tushadi: *qayril, ayril.*
3. ***Ikki, olti, yetti*** so‘zlariga *-ov, -ala, -ovlon* qo‘shilganda *i* tovushi tushadi: *ikkalasi, oltovi, yettovlon.*
4. ***Men, sen*** so‘zlariga *-ni, -ning, -niki* qo‘shilganda *n* tovushi tushadi: *meni, seniki.*
5. ***Past, sust*** so‘zlariga *-ay* qo‘shilsa, *t* tovushi tushadi: *pasay, susay.*

Ba’zan so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilmasa ham, talaffuzda tovush tushib qoladi. Lekin bu o‘zgarish yozuvda aks etmaydi. **Masalan:** *go‘sht, sust, Toshkent, baland.*

**21.** **Matndan olingan so‘zlarni namuna asosida tahlil qiling.**

**Namuna:**

| So‘z | Tahlili | Tushgan tovush |
|---|---|---|
| o‘ynadi | o‘yin + a + di | i |

yig‘lab, ko‘ngli, o‘rni, bag‘ri



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 141 25/10/24 10:50

**O‘qigan biror kitobingiz haqida quyidagi ma’lumotlarni yozib keling. Oila a’zolaringizdan yordam olishingiz mumkin.**

| | |
|---|---|
| Kitobning nomi | *** |
| Muallifi | *** |
| Muqovada nima aks etgani | *** |
| Rassomi | *** |
| Muharriri | *** |
| Nashriyoti, nashr etilgan yili | *** |
| Umumiy sahifasi | *** |
| Nima haqida ekani | *** |
| Kitobdan olgan xulosangiz | *** |

Eslatma! Tanlab olgan kitobingizni o‘qishda davom eting.

**22. “Yangi kitob” hikoyasi qahramoni Sevinch haqidagi fikrlaringizni og‘zaki shaklda ifodalang.**

| Sevinch | | | |
|---|---|---|---|
| **To‘g‘ri qildi** | | **Xato qildi** | |
| Sabab | Oqibat | Sabab | Oqibat |
| *** | *** | *** | *** |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 142 25/10/24 10:50

**23. “Yangi kitob” matnidagi qahramonlar nutqidan olingan gaplarni o‘qing. Tinish belgilariga e’tibor bering.**

| | |
|---|---|
| Nilufar | – Kitob... kitobimni qara. |
| Sevinch | – Nilufar, meni kechir, kecha seni xafa qilgan men edim. |
| Dildora opa | – Bu kitobdan atigi ikkita bor. |
| Salomat opa | – Qizim, bilmaysanmi, maktabda uni hech kim xafa qilmadimi? |
| Marhabo opa | “Yaqinda maktabda kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi”. |
| Sinfdoshlar | “Iye, nima bo‘ldi unga?” |

**Ko‘chirma gap** o‘zgalarning aynan keltirilgan gapidir.

Bunday gaplar muallif gapi bilan birga qo‘llanadi va qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

**Masalan:** *“Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi”, – deb yozgan edi Alisher Navoiy.*

Ko‘chirma gaplar dialog shaklida berilsa, qo‘shtirnoqqa olinmaydi va oldidan tire qo‘yiladi:

*– Sizga qanday kitob kerak edi?*

*– Fantastik hikoya o‘qimoqchi edim. Qaysi asarni tavsiya qila olasiz?*

**24. Yuqoridagi hikoya qahramonlari nutqini muallif gapi va ko‘chirma gap shaklida yozing.**

Namuna

- *Marhabo opa: “Yaqinda maktabda kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi”, – dedi.*
- *“Yaqinda maktabda kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi”, – dedi Marhabo opa.*
- *“Yaqinda, – dedi Marhabo opa, – maktabda kitobxonlik tanlovi o‘tkaziladi”.*



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 143 25/10/24 10:50

Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin, keyin yoki uning ichida kelishi mumkin. **Masalan:**

1. *“Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur”, – deb yozgan edi Alisher Navoiy.*
2. *Mark Tven shunday yozadi: “Kitob o‘qimaydigan kishining o‘qishni bilmaydigan kishidan ustunligi yo‘q”.*
3. *Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Kitob o‘qimagan odamning ko‘ngli xuddi suv ichmagan, suvga tashna bo‘lib yotgan dalaga o‘xshaydi. Bunday dalada hech narsa unmaydi”, – deydi.*



**25. Partadoshingiz bilan quyidagi qoliplar asosida gaplar tuzing:**

muallif gapi › ko‘chirma gap

ko‘chirma gap › muallif gapi

ko‘chirma gap › muallif gapi › ko‘chirma gap

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**
**4-bosqich:**

- guruhingiz a’zolari bilan darsdan so‘ng mutolaa qilayotgan kitobingizni boshqa tengdoshlaringizga targ‘ib qilish uchun qiziqarli material tayyorlashni boshlang;
- tanlab olgan kitobingizni o‘qishda davom eting.



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 144 25/10/24 10:50

Quyidagi sarlavhada *tabib* so‘zi ishlatilgan. Matn nima haqida deb o‘ylaysiz?

## Kitob “tabib”lari kimlar?



1 Qo‘lyozma kitoblar o‘ziga xos sirli xususiyati bilan bosma kitoblardan ajralib turadi. Kitoblar olamida bebaho boylik hisoblangan bugungi taraqqiyotimizning ilk manbasi, ildizi bo‘lgan qo‘lyozmalar mavjud. Bunday kitoblar fondlarimizdan joy olgunga qadar juda og‘ir kunlarni boshdan kechirgan, tabiiy va sun’iy talafotlar ularning katta qismiga jiddiy zarar yetkazgan.

2 Kitob “tabib”lari deb ataganimiz – nodir kasb sohiblari qo‘lyozmalarni “davolash” bilan shug‘ullanadigan restavratorlardir. Ular o‘z xizmatlari bilan o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishadi.

Bir qo‘lyozma kitobning vujudga kelishida quyidagi kishilar ishtirok etgan:

- qog‘oz tayyorlovchilar;
- kitob yozgan olim, ya’ni kitobning muallifi;
- ilk qo‘lyozma nusxani tayyorlovchi;
- kitobni bir necha nusxada ko‘paytirish uchun xattotlar;
- kotiblar;
- varaqlarni tegishli joyga tikuvchilar;
- muqovalovchi sahhoflar.

Bugun qadimgi kitoblar 3 ta asosiy usul – maxsus zamonaviy jihozlar yordamida mexanik tarzda, issiqlik energiyasi vositasida maxsus jihozlar bilan va qo‘l mehnati orqali ta’mirlanmoqda.



3 Mexanik usul orqali ta’mirlash asosan toshbosma kitoblarni tiklashda qo‘llanadi. Bu usulda zamonaviy texnologiyalar yordamida daraxt po‘stlog‘i kabi tabiiy ashyodan olingan turli xil kukunlardan foydalaniladi. Avvalo, kukunlardan qog‘oz rangiga munosib rang tanlanadi, shuningdek, qog‘ozning qalin yoki yupqaligiga qarab kukun miqdori belgilanadi



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 145 25/10/24 10:50

va suvli eritma tayyorlanadi. Kitobning talafot ko‘rgan sahifalari alohida ajratib olingach, maxsus idishlarga joylanadi. Bunday idishlarning tagida juda ham mayda teshikchalar bo‘lib, kerakli paytda qorishmali suv tushirib yuboriladi. Natijada sahifalarning yirtilgan bo‘sh joylariga kukun quyqalari to‘lib, ular bus-butun holatga keladi.

4 Keyingi usul, ya’ni issiqlik energiyasi orqali ko‘proq toshbosma kitoblar ta’mirlanadi. Zamonaviy maxsus apparatda keng va uzun tasmalar bo‘ladi, ularning yuzasiga kitobning talafot ko‘rgan sahifalari terib chiqiladi va ustidan maxsus yelimli qog‘oz yopiladi. Tasma varaqlarni yuqori haroratli pechga olib kiradi, natijada ta’mirga muhtoj varaqlar yelim va qog‘oz orqali tiklanadi. Yuqoridagi ikki usul orqali ta’mirlash jarayonida kitobning qog‘ozlari ma’lum darajada zararlanishi mumkin, ayniqsa, qo‘lyozma kitoblardagi noyob qog‘oz va yozuvlarga jiddiy zarar yetishi ehtimoli bor. Shuning uchun qo‘lyozma kitoblarni bunday ta’mirlash tavsiya etilmaydi.

5 Uchinchi usul qo‘l mehnati orqali ta’mirlashdir. Ushbu eng qadimiy usulda nodir qo‘lyozma kitoblar ta’mirlanadi. Bunda qo‘lyozmaning asl nusxasiga umuman o‘zgarish va salbiy ta’sir yetmaydi. Dastlab ta’mirtalab qo‘lyozmaning barcha sahifalari raqamlanadi va bir-biridan ajratiladi. Talafot yetgan, yirtilgan yoki kuygan, shuningdek, zararkunandalar shikast yetkazgan sahifalar ta’mir stoliga yoyib qo‘yiladi. Kitob sahifasining hajmiga mos, ayni shu sahifa sifatida qog‘oz tayyorlanadi. Matni mutlaq zararlangan kitoblarning bo‘sh, toza qog‘ozlaridan ham foydalaniladi. So‘ng kitobning yirtilgan varag‘iga yangi qog‘oz tabiiy yelim bilan yopishtiriladi. Yangi qog‘ozning ortiqcha qismlari maxsus pichoqcha yordamida kesib tashlanadi. Chetlari mayin qumqog‘oz bilan tekislanadi. Natijada yaxlit sahifa paydo bo‘ladi.

6 Xattotlar xalq merosiga muhabbatli, omonatdor, juda ham diqqat-e’tiborli, o‘ta sabrli bo‘lishadi. Oppoq xalat kiygan “jarroh”lar – restavratorlar nurli oynavand stol ustida turgan qadimiy qo‘lyozmaga yaqinlasharkanlar, xuddi najot kutib yotgan bemor tepasidagi shifokordek harakat qilishlari lozim. Chunki ko‘hna qo‘lyozmalar ham behol yotgan bemor kabi muolajaga muhtojdir.

*Muhammadsiddiq Usmonov*

**26. So‘zlarning ma’nosini aniqlang va jadvaldagi tartib asosida izohlang.**

| So‘zlar | Taxminim | Lug‘atda |
|---|---|---|
| qo‘lyozma | * * * | * * * |
| fond | * * * | * * * |
| sohib | * * * | * * * |
| xattot | * * * | * * * |
| kotib | * * * | * * * |

| So‘zlar | Taxminim | Lug‘atda |
|---|---|---|
| sahhof | * * * | * * * |
| restavrator | * * * | * * * |
| talafot | * * * | * * * |
| mutlaq | * * * | * * * |
| muolaja | * * * | * * * |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 146 25/10/24 10:50

1. Qanday kitoblarni qo‘lyozma kitob deymiz? Ularning bosma kitoblardan qanday farqi bor?
2. Kitob “tabib”lari kimlar? Muallif nega ularni shunday atagan deb o‘ylaysiz?
3. Bir qo‘lyozma kitobning vujudga kelishida kimlar ishtirok etgan? Ularni ketma-ketlikda sanang.
4. Hozir qadimgi kitoblar qanday ta’mirlanmoqda? Fikringizni matn asosida izohlang.
5. Xattot kim? Uning vazifasi nimadan iborat?
6. Sizningcha, qadimgi kitoblarni ta’mirlashdan maqsad nima?

**27. Matn sarlavhasiga e’tibor bering. Muallif matnni nega bunday nomlagan deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.**

**28. Matnning oxirgi qismini qayta o‘qing. Kitob “tabib”lariga xos quyidagi sifatlarni izohlang.**

| | |
|---|---|
| xalq merosiga muhabbatli | chunki ... |
| omonatdor | * * * |
| diqqat-e’tiborli | * * * |
| sabrli | * * * |

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**

**5-bosqich:**

- quyidagi jadval bilan tanishing;
- guruhingiz a’zolari bilan har bir qismni to‘ldirib boring.

| Mutolaa sharhi: _____ asosida | |
|---|---|
| Asar qahramonlari | Asardan olingan hayotiy saboq |
| Eng hayajonli lavhalar | Taassurotlar |
| Qahramonga tavsiya | Tushunarsiz so‘zlar lug‘ati |
| Asar qahramonlaridan biriga maktub | |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 147 25/10/24 10:50

**29. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.**

1. Kitoblarni mexanik usulda ta’mirlashga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlang.

- Toshbosma kitoblarni tiklashda qo‘llanadi.
- Kitoblar maxsus apparatning keng va uzun tasmalari yordamida ta’mirlanadi.
- Yuqori haroratli pech zarar ko‘rgan varaqlarning tiklanishiga yordam beradi.
- Daraxt po‘stloqlaridan tayyorlangan maxsus kukun ishlatiladi.
- Kitob ta’mirlash usullari ichida eng qadimiysi.
- Jarayonda juda ham mayda teshikchalari bor maxsus idish zarur.
- Nodir qo‘lyozma kitoblarni ta’mirlashda foydalanish samarali.

2. “Qadimgi kitoblar juda og‘ir kunlarni boshdan kechirgan”, deganda muallif nimani nazarda tutgan?

3. Ushbu gapda muallif nimaga ishora qilgan?
“Restavratorlar o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishadi”.

4. Muallif nega restavratorlarni boshqa kasb egalariga emas, aynan jarrohlarga qiyoslagan? Ularni yana kimlarga qiyoslash mumkin deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

**30. Matn qismlari va kichik sarlavhalarni moslab ko‘chiring. Nima uchun aynan ushbu javobni tanlaganingizni asoslovchi kalit so‘zlarni yozing.**

| Matn qismlari | Kichik sarlavhalar |
|---|---|
| 1 | Tabiiy eritma orqali ta’mirlash usuli |
| 2 | Eng bezarar usul |
| 3 | Qo‘lyozma kitobning yuzaga kelishi |
| 4 | Qo‘lyozmalarni tiklovchilar – xaloskorlar |
| 5 | Noyob kasb egalari |
| 6 | Issiqlik yordamida qayta tiklash usuli |




37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 148 25/10/24 10:50

**31.** **“Kitob “tabib”lari kimlar?” matnidan olgan 3 ta xulosangizni yozing va o‘qib bering.**

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**
**6-bosqich:**

- guruhingiz a’zolari bilan “Mutolaa sharhi” jadvalini to‘ldirib boring;
- takror fikrlarni umumlashtiring;
- mutolaada davom eting;
- asar qahramoni yoki asardagi biror voqeaga oid rasm chizing.

**32.** **Qaysi rasmda tovushga taqlidni bildiruvchi so‘z ifodalangan? Aytingchi, holatga taqlidni ifodalovchi rasm qaysi?**










37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 149 25/10/24 10:50

**33. Taqlid so‘zlar ishtirokida gap tuzing.**

| T/r | Taqlid so‘z | Gap |
|---|---|---|
| 1 | *chars-churs* | * * * |
| 2 | *qars* | * * * |
| 3 | *yilt* | * * * |
| 4 | *yal-yal* | * * * |
| 5 | *taraq-turuq* | * * * |
| 6 | *lip-lip* | * * * |

Ba’zan atrofdagi ovoz va holatlarni tilimiz bilan o‘xshatishga harakat qilamiz. **Masalan:** ilonning ovozini “*vish*” deymiz, yaltirash holatini “*yalt-yult*” so‘zi bilan ifodalaymiz. Bunday so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. Ular nimani ifodalashiga ko‘ra **tovushga taqlid** (*chars-churs, taraq-turuq, gurs, tap, miyov, qult-qult* kabi) va **holatga taqlid** (*yal-yal, yilt, milt, lip* kabi) so‘zlarga bo‘linadi.

**34. Gaplarni o‘qing va nuqtalar o‘rniga mos taqlid so‘zni qo‘yib, daftaringizga ko‘chiring. Diqqat, 5 ta so‘z ortiqcha.**

| Gaplar | Taqlid so‘zlar |
|---|---|
| 1. Olmalar … to‘kildi.<br>2. Boshidagi toj … yonarmish.<br>3. Uchqun g‘azabi oshib, … qaltiray boshladi.<br>4. Ko‘chada mashinalar … o‘tadi.<br>5. To‘rtta savag‘ich bilan … urib, par kabi titibdi.<br>6. … qaltiragan bolalar yuk ko‘tarishga yaramas edi.<br>7. Shoikrom onasining barmoqlari … yorilib ketganini endi payqadi.<br>8. Miyasida aql … .<br>9. …ning boisi nima ekan-a?<br>10. Shamol … esmoqda. | tap-tap, jimir-jimir, gurr, duv-duv, viz-viz, dag‘-dag‘, g‘ij-g‘ij, yal-yal, qiy-chuv, g‘iyq, dir-dir, duk-duk, g‘ir-g‘ir, tars-tars, ship-ship |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 150 25/10/24 10:50

**35.** **To‘g‘ri yozilgan taqlid so‘zlarni topib ko‘chiring. Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| g‘ovur-g‘uvur | g‘uj-g‘uj | g‘iyq | chug‘ir-chug‘ir |
| shuv | miyav | g‘iyiq | chug‘ur-chug‘ur |
| hil-hil | shuvv | gumbir-gumbir | miyov |
| g‘uch-g‘uch | xil-xil | qasur-qusur | qasir-qusur |
| | g‘ovir-g‘uvir | gumbur-gumbur | |

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**

**7-bosqich:**

- “Mutolaa sharhi” jadvali ustida ishlang;
- so‘z, gap, matnlardagi xatolaringizni aniqlang;
- asar qahramonlaridan biriga maktub yozing;
- mutolaada davom eting.

**36.** **Videolavhani diqqat bilan kuzating va berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning.**

10










37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 151 25/10/24 10:50

**37. Videolavha asosida savollarga javob bering.**

**1.** Kitob nima uchun ko‘chaga chiqishni istadi?

Kutubxonada uzoq yillar turaverib zerikkani uchun

Odamlar uni olib o‘qishlarini xohlagani uchun



Katta kitoblar orasida bir o‘zi qolib ketgani uchun

Odamlar uning yirtilgan sahifalarini butlab qo‘yishlari uchun

**2.** Kitob ko‘chaga chiqqach, qanday voqealar ro‘y berdi? Har bir holat uchun kalit so‘zlarni yozing.

**a)** kutubxona, kitob;
**b)** _____ ;
**d)** _____ ;
**e)** _____ ;
**f)** _____ ;
**g)** _____ ;
**h)** _____ ;
**i)** _____ .

**38. Ayting-chi, kitob nimani kutgan edi-yu, qanday voqealarga duch keldi? Quyidagi tartib asosida gapiring.**

Kitob ko‘chaga chiqdi. › Chunki u › …, ammo › _____ _____

**39. Videolavha asosida hikoya matni tayyorlang. Unda quyidagilarga e’tibor bering:**

- videolavha uchun sarlavha tanlang;
- videolavha nima haqida ekanini aniqlang (kim/nima?, nima qildi?);
- videolavhada nima sodir bo‘lganini ayting (qayerda?, qachon?, nima sodir bo‘ldi?);
- voqea nima bilan tugaganini bayon qiling (nima bo‘ldi?, qanday natija bilan tugadi?, oqibati nima bo‘ldi?).



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 152 25/10/24 10:50

**40.** **Videolavhadagi yangi so‘zlarni yozib oling.**

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**

**8-bosqich:**

- o‘qigan kitobingiz haqida guruh bilan quyida berilgan jadvaldagi tartibda ma’lumot tayyorlang;
- “Mutolaa sharhi” jadvalidagi qaysi qismni kim taqdimot qilishini belgilab oling.
- asar qahramonlaridan biriga yozgan maktubingizni tahrirlang.

| | |
|---|---|
| Kitobning nomi | Guruh a’zolari asar uchun ishlagan rasmlar |
| Muallifi | |
| Muqovada nima aks etgani | |
| Rassomi | |
| Muharriri | |
| Nashriyoti, nashr etilgan yili | |
| Umumiy sahifasi | |
| Nima haqida ekani | |

**41.** **Matnni o‘qing. Ko‘chirma gaplarni aniqlang. Matndagi yangi so‘zlarni talaffuz qiling va yozib oling. Yordamchi so‘zlar nima maqsadda qo‘llanganini izohlang.**

Siz ham “Kitob o‘qib nima foyda topasan?!”, “Kitob o‘qib olim bo‘larmiding?!”, “Kitob o‘qiguncha boshqa biron-bir foydali ish qilmaysanmi?!” kabi noxush savollarga duch kelgan bo‘lsangiz kerak. Xo‘sh, aslini olganda, kitob o‘qish nima o‘zi? Undan qanaqa foyda bor, ma’naviymi yoki moddiymi? Keling, bu savollarga birgalashib javob topamiz.

Kitob o‘qish ma’naviy olamni boyitadi, tun kabi zim-ziyo qalblarga oftob kabi nur sochadi, dunyoqarashni kengaytiradi, so‘z boyligini oshiradi, ma’lum sohadagi bilimlarni kengaytiradi, qarish jarayonini sekinlashtiradi, xotirani mustahkamlaydi, xullas, har tomonlama foyda keltiradi va kitobxonni tafakkur jihatidan boshqalardan bir necha pog‘ona ustun qiladi.

Yurtimizda kitob o‘qiganlar nafaqat o‘zlari uchun ma’naviy oziq va foyda oladi, balki moddiy jihatdan ham rag‘batlantiriladi. Buni men o‘z hayotimda sinaganman. “Eng



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 153 25/10/24 10:50

yaxshi kitobxon o‘quvchi”, “Zukko kitobxon” kabi tanlovlarning shahar bosqichida yuqori natijalarga erishib, kompyuter, printer, noutbuk, planshet bilan taqdirlanganman.

Shuni unutmangki, kitob har qanday moddiy boylikdan ustundir, kitobga oshno bo‘lsangiz, buni anglab yetasiz. Kitobga do‘st, oshno tutining, kam bo‘lmaysiz!

*Salohiddin Qahhorov*

**42. Xabar matni bilan tanishing va savollarga javob bering.**



## “Gulxan” xabarlari

Ona tili va adabiyot fani oyligida respublikamiz maktablarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi, badiiy adabiyotga qiziqtirish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar bo‘lib o‘tdi.

Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 227-maktabda o‘tkazilgan “Zakovatli kitobxon” tanlovi ijodiy bahslarga boy bo‘ldi. Tanlovda 9–11-sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan jamoalar “Tanishtiruv”, “Asarlar tahlili”, “Ijodkorni top”, “Erkin mavzu” yo‘nalishlarida bellashdi.

O‘quvchilarning bilim va zakovati namoyishiga aylangan bu tanlovda 9-sinflar o‘rtasida “Yosh kitobxonlar”, 10-sinflararo musobaqada “Kitobsevarlar”, 11-sinflar bellashuvida “Yosh avlod” jamoalari g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

* * *

Navoiy viloyati Karmana tumanida 10–14 hamda 10–20 yoshli badiiy adabiyot ixlosmandlari orasida “Yosh kitobxon” tanlovining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda 28-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Nozima Hamroyeva eng zukko kitobxon deb tan olindi. Nozima Yoshlar ittifoqi tuman kengashining diplomi va qimmatbaho sovg‘asi bilan taqdirlandi.

*Gulxanjon*

1. Xabarlar qaysi manbadan olingan?
2. 1-xabardagi tadbir qayerda va qanday maqsadda tashkil etilgan?
3. Tanlovda nechanchi sinf o‘quvchilari ishtirok etgan?
4. Ishtirokchilar qanday shartlar asosida bellashgan?
5. G‘olib bo‘lgan jamoalar qaysi?
6. 2-xabar matnidagi tanlovda kimni nima uchun taqdirlashgan?
7. Bunday xabarlarni qaysi gazeta, jurnal yoki saytlardan o‘qiysiz?



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 154 25/10/24 10:50

**43. Xabar matnini to‘ldirib yozing. Matnga sarlavha qo‘ying.**

... kuni ...da ... nomli tadbir (musobaqa, tanlov va hk.) o‘tkazildi. Tadbir (musobaqa, tanlov va hk.)da ...lar ishtirok etdi. Ushbu ...da ...lar namoyish etildi. Tadbir (musobaqa, tanlov va hk.) so‘ngida g‘olib jamoa/o‘quvchilarga ...lar topshirildi. Bunday tadbir (musobaqa, tanlov va hk.)lar ...ni yanada ko‘proq ...ga ...di.

**Diqqat! “Zukko kitobxon” loyihasi davom etadi.**
**9-bosqich:**

- ijodiy ishingiz taqdimotiga tayyorlaning;
- guruh a’zosi sifatida sizga berilgan topshiriq taqdimotini mashq qiling;
- guruh a’zolari bilan quyidagi shaklda taqdimot tayyorlang:

| |
|---|
| Kitobning nomi |
| Muallifi |
| Muqovasida nima aks etgani |
| Rassomi |
| Muharriri |
| Nashriyoti, nashr etilgan yili |
| Umumiy sahifasi |
| Nima haqida ekani |



Guruh a’zolari asar asosida chizgan rasmlar

| Mutolaa sharhi: _____ asosida | |
|---|---|
| Asar qahramonlari | Asardan olingan hayotiy saboq |
| Eng hayajonli lavhalar | Taassurotlar |
| Qahramonga tavsiya | Tushunarsiz so‘zlar lug‘ati |
| Asar qahramonlaridan biriga maktub | |



37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 155 25/10/24 10:50

**44. Diqqat, “Zukko kitobxon” loyihasi taqdimoti.**
**10-bosqich. “Zukko kitobxon” loyihasiga oid ijodiy ishingizni taqdim eting:**



- jadval asosida asar haqida qisqa ma’lumot bering;
- “Mutolaa sharhi” jadvalini taqdim eting;
- asar uchun chizilgan rasmlarni namoyish qiling.

**Sinfda o‘tkazilgan “Zukko kitobxon” loyihasi haqida tuman, shahar, viloyat gazetalaridan biriga xabar matni yozing.**


**Yo‘riqnoma:**

- xabar matni sarlavhasi;
- kirish qismi (loyiha nomi, maqsadi);
- o‘tkazilgan tadbir vaqti, joyi, sinf;
- kimlar ishtirok etgani;
- loyiha ishiga kim rahbarlik qilgani;
- o‘qituvchi qaysi kitoblarni taqdim etgani;
- qaysi jamoa qaysi kitob taqdimotini o‘tkazgani;
- har bir jamoaning o‘ziga xos jihatlari;
- xulosa.

## Korrektor so‘zi

*(mustaqil o‘qish uchun)*

Korrektor deb osondir aytish,
Aslida-chi, juda injiq ish.
Bilish kerak so‘zlar imlosin,
Chaqish kerak mag‘z-u ma’nosin.
To‘g‘ri ma’no chiqsin deb gapda
Har bitta so‘z turadi safda.
Harflar-chi, so‘zdagi askar,
Tartib zarur askarga aksar.
Men so‘zlarga bo‘lib komandir,
Tekshiraman ularni bir-bir,
Har bir harf bo‘lsa joyida,
Buzilmaydi mazmun-qoida.
Gar bittasi ko‘chsa o‘rnidan,
Keltiraman tortib burnidan.





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 156 25/10/24 10:50

O‘qiyotib ajoyib kitob
Birdan bo‘lar o‘quvchi xunob.
Agarda kim yegan chog‘da osh
Orasidan chiqsa biror tosh,
Ishtahangiz qochadi darhol,
Xatolar ham bu holga misol.
O‘z o‘rnida turmasa vergul,
Gap ma’nosi bo‘ladi kul-kul.
Har bir undov, savol va nuqta
Fikrlarni yetkazar puxta.
Shuning uchun ko‘z nurin to‘kib,
Barcha so‘zni sinchiklab o‘qib,
Hunarimdir xato tuzatmoq,
Harflarning ishin kuzatmoq.
Goh kitobda uchrasa xato,
Qocholmayman men undan hatto.
Sira qattiq botmas ko‘nglimga,
Olajakman uni bo‘ynimga.
Kitoblarning ichiga mudom
Qo‘yiladi chiroyli imzom.

*Po‘lat Mo‘min*

## Bob yuzasidan takrorlash



**45. Sinfda o‘tkazilgan “Zukko kitobxon” loyihasi haqida tuman, shahar, viloyat gazetalaridan biriga yozilgan xabar matnlarini ko‘rib chiqing. Buning uchun sinfdoshingiz yozgan matn bilan tanishing va uni tahlil qiling. Unda quyidagilarga e’tibor bering:**

- xabar matni sarlavhasi bor-yo‘qligi va to‘g‘ri tanlangani;
- kirish qismi (loyiha nomi, maqsadi) mavjudligi;
- o‘tkazilgan tadbir vaqti, joyi, sinf aks etgani;
- loyihada kimlar ishtirok etgani;
- loyiha ishiga kim rahbarlik qilgani;
- o‘qituvchi o‘qish uchun qaysi kitoblarni taqdim etgani;
- jamoalar qaysi kitoblarning taqdimotini o‘tkazgani;
- har bir jamoaning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilgani;
- xulosa berilgani;
- imloviy, ishoraviy va mazmuniy xatoga yo‘l qo‘yilmagani.



**46. Sinfdoshingiz tahlil qilgan matn ustida ishlang va uni qayta yozing.**



**Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash.**





37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 157 25/10/24 10:50

# MUNDARIJA


## 1. MILLIY QADRIYATLAR ..... 3

1-dars ..... 4
2-dars ..... 7
3-dars ..... 10
4-dars ..... 12
5-dars ..... 15
6-dars ..... 18
7-dars ..... 21
8-dars ..... 23
9-dars ..... 26
10-dars ..... 28
11-dars ..... 30
12-dars ..... 32

## 2. SAN'AT ..... 34

1-dars ..... 35
2-dars ..... 37
3-dars ..... 40
4-dars ..... 43
5-dars ..... 46
6-dars ..... 47
7-dars ..... 49
8-dars ..... 52
9-dars ..... 54
10-dars ..... 56
11-dars ..... 58
12-dars ..... 59

## 3. BOLALAR O'YINLARI ..... 61

1-dars ..... 62
2-dars ..... 64
3-dars ..... 68
4-dars ..... 70
5-dars ..... 72
6-dars ..... 74
7-dars ..... 76
8-dars ..... 78
9-dars ..... 82
10-dars ..... 84
11-dars ..... 86
12-dars ..... 88

## 4. ORZU VA IMKON ..... 90

1-dars ..... 91
2-dars ..... 93
3-dars ..... 96
4-dars ..... 99
5-dars ..... 102
6-dars ..... 105
7-dars ..... 107
8-dars ..... 110
9-dars ..... 113
10-dars ..... 115
11-dars ..... 118
12-dars ..... 119
13-dars ..... 121
14-dars ..... 122

## 5. KITOB – BILIM BULOG'I ..... 125

1-dars ..... 126
2-dars ..... 130
3-dars ..... 133
4-dars ..... 135
5-dars ..... 137
6-dars ..... 140
7-dars ..... 142
8-dars ..... 145
9-dars ..... 148
10-dars ..... 149
11-dars ..... 151
12-dars ..... 153
13-dars ..... 156
14-dars ..... 157


37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 158 25/10/24 10:50

*O‘quv nashri*

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna
Qo‘ldosheva Sanobar Hayotovna
Hakimova Nilufar Sobirjonovna
Siddiqov Mansur Rahimjonovich

# Ona tili
# 5-sinf
# II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2024

| | |
|---|---|
| Muharrir | *Orifjon Madvaliyev* |
| Badiiy muharrir | *Mixail Zaimbetov* |
| Musahhih | *Xurshidbek Ibrohimov* |
| Rassomlar: | *Vladimir Frolov, Lina Zatulovskaya* |
| Kompyuterda sahifalovchi | *Dmitriy Konoplich* |

Nashriyot litsenziyasi AI № 080756, 12.05.2023-yilda berilgan.
23.10.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/8. “Arial” garniturasi. Kegli 12 n/shponli.
Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo‘rlangan MFC 80 g/m$^2$ qog‘oz.
Shartli b.t. 18,6. Hisob-nashriyot t. 14,85. Adadi 635 186. Buyurtma raqami 24-292.

“Novda Edutainment” MCHJ.
Toshkent sh. Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 21-uy.

“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.
Toshkent sh. A.Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 159 25/10/24 10:50

## Darslik holati haqida ma’lumot

| T/r | O‘quvchining F I O | O‘quv yili | Darslikning olingan vaqtdagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning qaytarib berilgan vaqtdagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |

## Darslikni olish va o‘quv yili oxirida qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi:

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning holati a’lo darajada. |
| Yaxshi | Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan. |
| Qoniqarli | Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas. |

37 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 160PG.indd 160 25/10/24 10:50